

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QISHLOQ VA SUV XO'JALIK VAZIRLIGI
ANDIJON QISHLOQ XO'JALIK INSTITUTI
QISHLOQ XO'JALIGIDA MENEJMENT FAKULTETI
FERMER XO'JALIGINI BOSHQARISH VA YURITISH TA'LIM
YO'NALISHI

Qishloq xo'jaligida menejment kafedrası

«TASDIQLAYMAN»
fakultet dekani _____
dotsent. X.X.KOMOLOV
«___» _____ 2016 yil

«Ximoyaga ruxsat etaman»
kafedra mudiri _____
dotsent. O.X. Maxmudov
«___» _____ 2016 yil

FERMER XO'JALIGINI BOSHQARISH VA YURITISH
ta'lim yo'nalishining bitiruvchisi Toxirov Odiljon Orifjon o'g'lining

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Mavzu: *“Jalaquduq tumanidagi O'simliklarni ximoya qilish otryadida biomahsulotlar ishlab chiqarishni tashkil etish va uning iqtisodiy samaradorligini oshirish yo'llari”*

BMI raxbari:

katta o'qituvchi T.G'.Yoqubov

Bajaruvchi:

O.Toxirov

Andijon - 2016 yil

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QISHLOK VA SUV XO'JALIGI VAZIRLIGI
ANDIJON QISHLOQ XO'JALIGI INSTITUTI
IQTISODIYOT VA BOSHQARUV FAKULTETI
QISHLOQ XO'JALIK IQTISODIYOTI VA BOSHQARUV
KAFEDRASI

“TASDIQLAYMAN”
Qishloq xo'jalik iqtisodiyoti va
boshqaruv kafedrasining mudiri
O.A. Shermatov. _____

« » 2015 y.

Fermer xo'jaligini boshqarish va yuritish ta'lim yo'nalishining bitiruvchisi

Toxirov Odiljonga

bitiruv malakaviy ishini bajarish uchun

TOPSHIRIQ

- 1. Bitiruv malakaviy ishining mavzusi:** *institut rektorining «18» sentyabr 2015 yildagi 240 St(A)- sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan.*
- 2. BMIning mavzusi:** *“Jalaquduq tumanidagi O'simliklarni ximoya qilish otryadida biomahsulotlar ishlab chiqarishni tashkil etish va uning iqtisodiy samaradorligini oshirish yo'llari”*
- 3. Bitiruv malakaviy ishni tugatish vaqti:** *«16» may 2016 yil.*
- 4. Bitiruv malakaviy ishning asosiy bo'limlari.** *BMI kirish, asosiy qismida 3-ta bob, xulosa va takliflar xamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.*
- 5. Bitiruv malakaviy ishni bajarish uchun kerakli ma'lumotlar.** *O'zbekiston Respublikasining qishloqda iqtisodiy isloxlarni o'tkazishga oid bo'lgan qonunlari, Prezident farmonlari, Vazirlar Maxkamasining qarorlari, mavzuga oid adabiyotlar, xamda Andijon viloyati “Jalaquduq tumanidagi O'simliklarni ximoya qilish otryadida biomahsulotlar ishlab chiqarishni tashkil etish va uning iqtisodiy samaradorligini oshirish ko'rsatkichlari, 2013-2015 yillar uchun biznes rejalari, yillik xisobotlari va mavzuga oid bo'lgan boshqa ma'lumotlari.*
- 6. Bitiruv malakaviy ishda foydalaniladigan jadvallar.** *Bitiruv malakaviy ishida mavzuning mohiyatini yoritishga yordam beradigan 12 ta jadvallarni tuzilishi ko'zda tutilgan bo'lib, ulardan 3-4 tasi bevosita himoya jarayonida foydalaniladi.*

Bitiruv malakaviy ishning asosiy savollari	BMI raxbari	Bajarilish muddati	Imzo
<i>Kirish.</i>	<i>katta o'qituvchi. T.Yoqubov</i>	<i>28.11.2015</i>	
<i>I.Bob Agrar tarmoqni modernizatsiyalashtirish sharoitida qishloq xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi tadbirkorlik sub'ektlarida ishlab chiqarishni samarali tashkil etishni nazariy asoslari.</i>			
<i>1.1 Qishloq xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi tadbirkorlik sub'ektlarida ishlab chiqarishni tashkil etishni xususiyatlari va ahamiyati.</i>	<i>katta o'qituvchi T.Yoqubov</i>	<i>04.02.2016</i>	
<i>1.2 Qishloq xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatida ishlab chiqarishni tashkil etish tartibi</i>	<i>katta o'qituvchi T.Yoqubov</i>	<i>27.02.2016</i>	
<i>II.Bob . Agrar tarmoqni modernizatsiyalashtirish sharoitida Jalaquduq tumani O'simliklarni himoya qilish otryadi tadbirkorlik faoliyatida ishlab chiqarishni tashkil etishni holati va uning iqtisodiy ko'rsatkichlari.</i>			
<i>2.1 Jalaquduq tumani O'simliklarni himoya qilish otryadi tadbirkorlik faoliyatini tasnifi.</i>	<i>katta o'qituvchi T.Yoqubov</i>	<i>10.03.2016</i>	
<i>2.2 Jalaquduq tumani O'simliklarni himoya qilish otryadida biomahsulotlar ishlab chiqarishni tashkil etishni hozirgi holati va uning taxlili.</i>	<i>katta o'qituvchi T.Yoqubov</i>	<i>20.03.2016</i>	
<i>III .Bob Agrar tarmoqni modernizatsiyalashtirish sharoitida Jalaquduq tumani O'simliklarni himoya qilish otryadida biomahsulotlar ishlab chiqarish samaradorligini oshirishni takomillashtirish yo'llari</i>			
<i>3.1 Jalaquduq tumani O'simliklarni himoya qilish otryadida biomahsulotlarni ko'paytirish usullari.</i>	<i>katta o'qituvchi I.Usmonov</i>	<i>5.04.2016</i>	
<i>3.2 Jalaquduq tumani O'simliklarni himoya qilish otryadida biomahsulotlar ishlab chiqarishda ishlab chiqarish resurslaridan foydalanish samaradorligini ortirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish yo'llari.</i>	<i>katta o'qituvchi T.Yoqubov</i>	<i>10.04.2016</i>	
<i>Xulosa va takliflar.</i>	<i>katta o'qituvchi T.Yoqubov</i>	<i>25.04.2016</i>	
<i>Foydalanilgan adabiyotlar</i>	<i>katta o'qituvchi T.Yoqubov</i>	<i>16.05.2016</i>	

Topshiriq berilgan vaqti:

« 23 »noyabr 2015 yil.

BMI raxbari:

Katta o'qituvchi: T.G'.Yoqubov

Bitiruvchi:

O.Toxirov.

M u n d a r i j a

<i>№</i>	<i>Mazmuni</i>	<i>Betlar</i>
	<i>Kirish</i>	3-8
<p>I-BOB. Agrar tarmoqni modernizatsiyalashtirish sharoitida qishloq xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi tadbirkorlik sub'ektlarida ishlab chiqarishni samarali tashkil etishni nazariy uslubiy asoslari..</p>		
1.1.	<i>Qishloq xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi tadbirkorlik sub'ektlarida ishlab chiqarishni tashkil etishni xususiyatlari va ahamiyati.</i>	9-29
1.2	<i>Qishloq xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatida ishlab chiqarishni tashkil etish tartibi.</i>	30-39
<p>II-BOB. Agrar tarmoqni modernizatsiyalashtirish sharoitida Jalaquduq tumani O'simliklarni himoya qilish otryadi tadbirkorlik faoliyatida ishlab chiqarishni tashkil etishni holati va uning iqtisodiy ko'rsatkichlari.</p>		
2.1.	<i>Jalaquduq tumani O'simliklarni himoya qilish otryadi tadbirkorlik faoliyatini tasnifi.</i>	40-49
2.2.	<i>Jalaquduq tumani O'simliklarni himoya qilish otryadida biomahsulotlar ishlab chiqarishni tashkil etishni hozirgi holati va uning taxlili.</i>	50-60
<p>III-BOB. Agrar tarmoqni modernizatsiyalashtirish sharoitida Jalaquduq tumani O'simliklarni himoya qilish otryadida biomahsulotlar ishlab chiqarish samaradorligini oshirishni takomillashtirish yo'llari</p>		
3.1	<i>Jalaquduq tumani O'simliklarni himoya qilish otryadida biomahsulotlarni ko'paytirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish usullari.</i>	61-74
3.2	<i>Jalaquduq tumani O'simliklarni himoya qilish otryadida biomahsulotlar ishlab chiqarishda ishlab chiqarish resurslaridan foydalanish samaradorligini ortirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish yo'llari.</i>	75-86
	Xulosa va takliflar	87-89
	Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	90-93

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. Mamlakatimizda barqaror va samarali iqtisodiyotni shakllantirish borasida amalga oshirib kelinayotgan islohatlar bugungi kunda o'zining ijobiy natijalari namoyon bo'lib, qisqa vaqt ichida iqtisodiyotda chuqur tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, axoli daromadlarining o'sishini ta'minlash, qishloq xo'jaligini isloh qilish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasini barqaror rivojlantirish kabi sohalarda ahamiyatli qo'lga kiritildi.

O'zbekistonning xalqaro iqtisodiy maydondagi nufuzi va mavqei sezilarli darajada va muntazam oshib bormoqda. Bunda mamlakatimiz rahbari I.Karimov tomonidan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasining puxta ishlab chiqilganligi, iqtisodiy islohatlar maqsadi va vazifalarini amalga oshirish yo'llarining aniq va to'g'ri ko'rsatib berilganligi bosh maqsad yo'lidagi yutuq va marralarning salmoqli bo'lishiga imkon beradi.

Hozirgi davrda dunyo mamlakatlari ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti o'zining ma'no-mazmuni jihatidan oldingi bosqichlardan keskin farq qiladi. Bunda eng asosiy va muhim jihati milliy iqtisodiyotlarning tobora integratsiyalashuvi va globallashtiruvining kuchayib borishidir. Ayni paytda bu jarayonlar xalqaro maydondagi raqobatning ham keskinlashuviga, har bir mamlakatning xalqaro mehnat taqsimotidagi o'z mavqeini mustahkamlash uchun kurashishining kuchayishiga ham ta'sir ko'rsatadi. Bu jarayonlarning ijobiy tomonlari bilan bir qatorda turli mamlakatlardagi iqtisodiy rivojlanishining bir tekisda bormasligi, dunyo mamlakatlari o'rtasida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jihatidan tafovutning, ekologik taxdidlarning kuchayib borishi, turli mamlakatlarda aholi soni o'zgarishining keskin farqlanishi kabi salbiy holatlar jahon xo'jaligining yaxlit tizim sifatida barqaror rivojlanishiga to'sqinlik qiladi. SHuningdek jahon hamjamiyati bugungi kunda boshidan kechirayotgan moliyaviy inqiroz ham aynan shu ma'noda globallashtiruv jarayonlarining salbiy oqibati sifatida namoyon bo'lmoqda.

Shunga ko'ra, mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining joriy va istiqboldagi chora-tadbirlarini belgilashda jahon moliyaviy inqirozi oqibatlarining

ta'siri har tomonlama hisobga olishimiz, iqtisodiy rivojlanish dasturlarining ushbu jarayonlar ta'siri nuqtai-nazaridan shakllantirishimiz va ularni izchil amalga oshirishimizni taqazo etadi.

Jahon iqtisodiyotining globallashuvi sharoitida Respublikamiz aholisining iste'mol buyumlariga va oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini yanada yaxshiroq qondirish eng avvalo agrosanoat tarmog'iga va uning asosi bo'lgan qishloq xo'jaligining rivojlanish darajasiga bevosita bog'liqdir. Shuning uchun qishloq xo'jaligida vujudga kelayotgan yangi tadbirkorlik shakllari muhim ahamiyat kasb etib, bu xo'jalik yuritishning shaxsiy manfaatdorlik, tashabbuskorlik va mulkiy javobgarlik tamoyillariga tayanib, qishloq xo'jaligida mulk shakllarining teng xuquqiylik va sog'lom raqobat asosida rivojlantirib borishiga asoslanadi. Tadbirkorlik sub'ekti sifatida fermer xo'jaliklari yetishtirgan mahsulotiga egalik qilishiga, o'ziga tegishli mol-mulk, moliyaviy va moddiy resurslarni mustaqil tasarruf etishi, yerga bo'lgan egalik xissiga ko'ra bozor iqtisodiyoti tamoyillariga mos keladi.

Respublikamiz Prezidenti va xukumatining bir qator farmonlari, qarorlari va qonunlarida istiqbolda kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish maqsadida ayniqsa qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchi sub'ekt sifatida faoliyat yuritayotgan fermer xo'jaliklarini yanada rivojlantirish bo'yicha qonuniy asoslar yaratilmoqda.

Islohatlarning ilk bosqichida mamlakat qishloq xo'jaligi barqarorligini ta'minlash va rejali iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga o'tishning dastlabki asoslari yaratildi. Bunda ustivor yo'nalish qilib, shaxsiy tomorqa xo'jaliklarini rivojlantirish belgilandi.

Islohatlarning ikkinchi bosqichida "Yer kodeksi", "Fermer xo'jaligi to'g'risida", "Dexqon xo'jaligi to'g'risida", "Erkin tadbirkorlik faoliyati kafolatlari to'g'risidagi" va boshqa qonunlar hamda xukumat qarorlari qabul qilinib, me'yoriy xujjatlar tasdiqlanib, iqtisodiy isloxlarni chuqurlashtirishga zamin yaratildi. Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishni tashkil etishning xalqaro

andozalari va xalqimiz mentalitetiga mos keladigan-fermer va dexqon xo'jaliklaridan iborat modeli tanlandi.

Islohatlarning uchinchi bosqichida 2000 yildan boshlanib, bu bosqich:

- Qishloq xo'jaligida tovar ishlab chiqaruvchilar va ularga servis xizmat ko'rsatuvchi tadbirkorliksub'ektlarining xaq-xuquqlarini ximoya qilish ustivorligi:

- Tovar ishlab chiqaruvchilarning iqtisodiy erkinligi yanada kengaytirish va davlat buyurtmasi bo'yicha yetishtirilayotgan mahsulotlarga baho belgilashda dunyo bozor narxlariga mos keluvchi tizimni shakllantirish. Birinchi navbatda past rentabelli va zarar ko'rib ishlayotgan xo'jaliklarni fermer xo'jaliklariga aylantirish asosida qayta tashkil etish mexanizmi joriy etildi.

- Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilariga xizmat ko'rsatuvchi zamonaviy infratuzilma tizimining barpo etilishi ,bunda texnik-servis xizmat ko'rsatuvchi sohalarni rivojlanishi kabilar bilan xarakterlanadi. Xizmat ko'rsatish sohalari ob'ektlarini bozor tamoyillari bo'yicha shartnoma asosida tashkil etish, OAJ ko'rinishidagi MTPlar, MMTP, Kimyota'minot, neft mahsulotlari yetkazib berish bo'yicha, o'simliklarni ximoya qilish bo'yicha ixtisoslashtirilgan korxonalar faoliyati boshlandi.

Qishloq xo'jaligida o'tkazilayotgan iqtisodiy islohatlarning yangi bosqichda mulkchilikning shartnomaviy munosabatlarga asoslangan xo'jalik yuritish tizimini rivojlantirish, qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilari manfaatleri ustivorligini ta'minlagan holda xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar faoliyatini iqtisodiy rivojlantirish, turli tashkiliy-xuquqiy shakldagi xo'jalik yuritish sub'ektlari bilan o'zaro iqtisodiy manfaatdorlikka asoslangan shartnomaviy munosabatlar asosida fermer xo'jaliklarini rivojlantirish muhim yo'nalish etib belgilanadi.

Tadbirkorlik sub'ekti sifatida fermer va dexqon xo'jaliklari va boshqa tadbirkorlarning ishlab chiqarish faoliyatida yanada keng erkinliklar berildi, yersuv resurslaridan unumli foydalanish va shartnoma shartlarini bajarishda tomonlarning javobgarligi va ma'suliyati oshirildi. Umuman iqtisodiy isloxlarni

yanada jadallashtirish, mavjud tabiiy, iqtisodiy, tashkiliy va mehnat resurslaridan foydalanish, pirovard natijada aholi turmush farovonligini oshirishga qaratilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 22 oktyabrda qabul qilingan "O'zbekistonda fermerlik faoliyatini tashkil qilishni yanada takomillashtirish va uni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi" farmoniga asosan qishloq xo'jalik ishlab chiqarishining samaradorligini oshirish muhim ahamiyatga ega ekanligini inobatga olib, fermer xo'jaliklariga ajratilayotgan yer maydonlarini maqbullashtirish borasida zarur ishlar amalga oshirildi, dastlab zarar ko'rib ishlaydigan, rentabelligi past va istiqbolsiz xo'jaliklari tugatilishi negizida tashkil etilgan xususiy fermer xo'jaliklari bugungi kunda xaqli ravishda qishloqda yetakchi bo'g'inga qishloq xo'jalik ishlab chiqaruvchi asosiy kuchga aylandi.

Bugungi kunda fermer xo'jaligi haqli ravishda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining yetakchi bo'g'iniga, uni tashkil etishning asosiy shakliga aylandi. Hozirgi vaqtda fermerlik harakati o'z tarkibida 66 mingdan ziyod fermer xo'jaligini birlashtirmoqda. Mamlakatimizdagi jami haydaladigan yerlarning 85 foizdan ortig'i, yetishtiriladigan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining asosiy qismi aynan fermerlar hissasiga to'g'ri kelmoqda. Kun sayin mustahkamlanib, hal qiluvchi kuchga aylanib borayotgan fermerlik harakati O'zbekistonda o'zini to'la oqladi va fermerlarimizning ongu tafakkurida o'z yeri va ishlab chiqarayotgan mahsulotiga nisbatan egalik hissiyoti yildan-yilga tobora mustahkamlanib, ularning o'z mehnati natijasidan manfaatdorligi oshib bormoqda. Eng asosiysi-odamlarimizning ongi va dunyoqarashi tubdan o'zgarmoqda, bebaho boyligimiz bo'lgan yer va suv resurslaridan samarali hamda oqilona foydalanish uchun mas'uliyat tuyg'usi kuchaymoqda.

So'nggi yillarda qabul qilingan qonunlar va me'yoriy hujjatlar fermer xo'jaliklari vakolatlarini sezilarli ravishda kengaytirdi.

Jaxon xamjamiyatidagi global muammolardan biri ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarish xisoblanib, Respublikamiz agrar tarmog'ida ham ekologik toza mahsulot ishlab chiqarishda biologik usuldan keng foydalanilmoqda. Agar biologik usul 2004 yilda 1,6 mln.gektar maydonda qo'llanilgan bo'lsa, 2014 yilga

kelib bu ko'rsatkich 2,3 mln.gektarga yetdi. Bugungi kunda 730 dan ortiq biolaboratoriya va biofabrikalar, joylarda mahalliy xokimliklar va mutasaddi idoralar tomonidan har yili o'nlab qo'shimcha biolaboratoriyalar tashkil etilayotganligi bu usul samaradorligini yanada oshirish imkonini bermoqda.

Jumladan, keyingi uch yil mobaynida 70 dan ortiq yangi biolaboratoriya tashkil etilganligi va 80 dan ziyod biolaboratoriyaning biomahsulot ko'paytirish quvvati yangi liniyalar o'rnatish evaziga oshirildi. Buning natijasida qo'shimcha 350 ming gektardan ko'proq maydonda biologik usulni qo'llash imkoni yaratildi. E'tiborli jihatlari shundaki, 2014 yilda respublikamiz bo'yicha g'o'za zararkunandalariga qarshi biologik kurash usulining ulushi 91 foizni tashkil etdi.¹

Tadqiqotning maqsadi - O'zbekiston Respublikasida agrar tarmoqni modernizatsiyalash sharoitida qishloq xo'jalik korxonalariga xizmat ko'rsatuvchi tadbirkorlik sub'ektlarida ishlab chiqarishni tashkil etish va uning iqtisodiy samaradorligini oshirish va uni takomillashtirish hamda ularni amaliyotda joriy etish, hamda rivojlantirish istiqbollari yuzasidan o'rganish va takliflar berish hisoblanadi.

Tadqiqotning ob'ekti O'zbekiston Respublikasida agrar tarmoqni modernizatsiyalash sharoitida qishloq xo'jalik korxonalariga xizmat ko'rsatuvchi tadbirkorlik sub'ektlarida ishlab chiqarishni samarali tashkil etish va uni boshqarishni takomillashtirish bilan bog'liq sub'ektlar bitiruv malakaviy ishida ilmiy tadqiqotning ob'ekti bo'lib hisoblanadi.

Tadqiqot predmeti. Qishloq xo'jalik korxonalariga xizmat ko'rsatuvchi tadbirkorlik sub'ektlarida ishlab chiqarishni samarali tashkil etish va uning iqtisodiy samaradorligini oshirish bilan bog'liq jarayonlar mazkur tadqiqotning predmeti bo'ladi.

Bitiruv malakaviy ishining amaliy ahamiyati. Bitiruv ishida tadbirkorlik sub'ekti sifatida Jalaquduq tumani O'simliklarni himoya qilish otryadida biomahsulotlar ishlab chiqarishni samarali tashkil etishni iqtisodiy samaradorlikni

¹ Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi Matbuot xizmatidan olindi."O'zbekiston qishloq xo'jaligi"jurnali. №12.2014y.4-bet.

oshirishdagi o'zni bo'yicha tayyorlangan bo'lib, biolaboratoriyada ishlab chiqarishni samarali tashkil etishni nazariy va ilmiy asoslarini o'rganish xamda ilmiy izlanishlarim bo'yicha fikr-mulohazalar, xulosa va takliflarni berishdan iborat. SHu maqsadda bitiruv ishini tayyorlash davomida quyidagi vazifalar bajariladi:

-Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida qishloq xo'jaligi sohasiga xizmat ko'rsatuvchi tadbirkorlik sub'ektlarida ishlab chiqarishni tashkil etish, hamda ulardan samarali foydalanish ko'rsatkichlarini nazariy asoslash;

- qishloq xo'jaligi sohasiga xizmat ko'rsatuvchi tadbirkorlik faoliyatida ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanishni tashkil etish va iqtisodiy samaradorligini oshirish yo'llarini asoslash;

-Jalaquduq tumanidagi O'simliklarni himoya qilish otryadida biomahsulotlar ishlab chiqarishni tashkil etish va uning iqtisodiy samaradorlikni oshirishdagi o'zni bo'yicha fikr-mulohazalar va takliflar tayyorlash.

Bitiruv ishidagi fikr-mulohazalardan nafaqat Jalaquduq tumani O'simliklarni himoya qilish otryadida, balki viloyatimizda joylashgan boshqa xo'jaliklarda ham biomahsulotlar ishlab chiqarishni samarali tashkil etish yuzasidan chora-tadbirlar ishlab chiqishda foydalanish mumkin.

BMIning tarkibi. Bitiruv ishi kirish, asosiy qismida 3 ta bobdan , hamda xo'jalik faoliyatini taxlil etgan holda xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Bitiruv ishi elektron variantda tayyorlanib - betni tashkil qiladi. Bitiruv ishini tayyorlashda __ ta jadvaldan foydalanildi.

I. Bob Agrar tarmoqni modernizatsiyalashtirish sharoitida qishloq xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi tadbirkorlik sub'ektlarida ishlab chiqarishni samarali tashkil etishni nazariy uslubiy asoslari.

1.1 Qishloq xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi tadbirkorlik sub'ektlarida ishlab chiqarishni tashkil etishni xususiyatlari va ahamiyati.

Mustaqillik yillarida amalga oshirilgan tub o'zgarishlar va islohatlar joriy va kelgusi yillarda, ayni jahon moliyaviy-iqtisod inqirozi sharoitida O'zbekiston iqtisodiyotiga ta'sirini hamda uning oqibatlarini oldini olishda, kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatining samaradorligini oshirishda zamin yaratdi.

Tadbirkorlik bozor iqtisodiyotiga xos iqtisodiy faoliyat bo'lib, u muayyan ijtimoiy-iqtisodiy natijaga erishish maqsadida tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarish va ayirboshlashni tashkil etish buyicha mulkdorlarning yoki ular vakillarining ongli va maqsadli iqtisodiy faoliyatidir. "O'zbekiston Respublikasining tadbirkorlik to'g'risida"gi qonunida tadbirkorlikka quyidagicha ta'rif berilgan: -"Tadbirkorlik-mulkchilik sub'ektlarining foyda olish maqsadida tavakkal qilib va mulkiy javobgarlik asosida amaldagi qonunlar doirasida tashabbus bilan iqtisodiy faoliyat ko'rsatishdir"².

Tadbirkorlikning sub'ekti O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va O'zbekiston Respublikasida tadbirkorlik to'g'risidagi qonunga muvofik balog'at yoshiga yetgan xar bir fukaro o'z mulki asosida yoki mulk egasining vakolati asosida o'z ixtiyor etgan qonunga zid bo'lmagan faoliyat turi bilan shug'ullanishi mumkin.

Yuqoridagi ta'rifda tadbirkorlikning yana bir tomoni mazmuni ifoda etilgan bo'lib, u mazmunan boy, xilma xil ko'rinishiga ega. Tadbirkorlik faoliyatini tanlash, uni tashkil etish va rivojlantirish moxiyat jixatidan davlat, jamiyat axamiyatiga molik ish bulmasdan, balki erkin tanlanadigan faoliyatdir.

Tadbirkorlik faoliyatining uch turi va unga mos ravishda tadbirkorlarning 3 guruxini aloxida ko'rsatish mumkin:

² "O'zbekiston Respublikasining "Tadbirkorlik to'g'risida"gi qonuni.1991y.16.02.

yangi tovar yoki xizmat loyihasini tashkil etish. Tadbirkorlikning bu turi bilan intellektual mulk egalari innovatsiya tadbirkorlari shug'ullanadi.

tovar ishlab chiqarishni tashkil etish bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlar.

tovarni sotish, qayta sotish va tijorat ishlarini tashkil etish bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlar.

Uchinchidan, maqsad jixatidan tadbirkorlikning ikki turini:

- a) foyda olishni, iqtisodiy samaraga erishishni maqsad qilgan;
- b) ijtimoiy samaraga (masalan, tabiat muxofazasi, yosh avlod tarbiyasi, sog'liqni saqlash) erishishni maqsad qilgan turlarini ajratish mumkin.

Tadbirkorlarga xos xususiyatlar quyidagilardan iborat:

- Shug'ullanayotgan soha buyicha ilm, bilimga egaligi.
- Tavakkalchilikka asoslangan qarorlar qabul qilish bo'yicha tashabbuskorlik qobiliyati.
- Iqtisodiy jarayonlarni chuqur fikrlay olish.
- Qonunlarga itoatkorligi.
- Innovatsiyachilikning faolligi.
- Maqsad sari intiluvchanlik.
- Tashkilotchilik.
- Tejamkor bo'lishi.
- O'z so'zining ustidan chiqish.
- Ruxiy poklik va xalolligi.
- O'z jamoasi uchun kurashuvchanlik.
- Tadbirkorlikni rivojlantirish uchun quyidagi shart-sharoitlar talab etiladi:

Mulk munosabatlarining uyg'unlashuvi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida mulkiy munosabatlar uch jixat bilan belgilanadi:

-egalik qilish, ya'ni mulk egasi sifatida mulkka to'la xukumronlik qilish: sotish, ijaraga berish, xadya etish;

-foydalanib turish, ya'ni mulk egasining nazorati asosida ma'lum shart va tulov evaziga mulkdan vaktincha foydalanish;

-operativ tezkor boshqarishni, yangi mulk egasining nazorati ostida resurslarni taqsimlash va ishlab chiqarishni tashkil etish bo'yicha mulkni boshqarish xuquqini joriy etish.

Tadbirkorlarga o'z qobiliyatini to'la namoyon etish uchun quyidagi iqtisodiy erkinliklarning berilishi.

mahsulot assortimenti turlarini va ishlab chiqarish usulini tanlash erkinligi;
xamkorlarni mustaqil tanlash;

mablag'larni qonunga zid bo'lmagan sohalarga mustaqil sarflash erkinligi va x.k.;

Bozorning ochiqqligi, ya'ni tovarlar, sarmoyalar, ma'lumotlar, ish kuchi, xom-ashyo xarakati uchun sun'iy g'oyalarning yo'qligi. Bozor infratuzilmasining mavjudligi.

Bunga quyidagilar kiradi:

- tijorat banklari;
- tovar, fond, mehnat, valyuta birjalari;
- tijorat tavakkalchiligi va mulk sug'urtasi;
- ma'lumot va reklama manbalari, ommaviy axborot vositalari, aloqa vositalari;
- ekspert byurolari, sertifikat markazlari, bojxonalar, soliq nazorati tashkilotlari, arbitrajlar va x.k.

Tadbirkorlik uchun xuquqiy kafolatning mavjudligi, ya'ni tadbirkorlikni ximoyalovchi qonunchilikning mavjudligi.

Yangi korxonalar kadrilar tayyorlash, kredit olish, solik to'lash, tabiiy boyliklardan foydalanish buyicha davlat tomonidan berilgan imtiyozlar va x.k.

Hozirda tadbirkorlikni rivojlantirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasiga xorijiy sarmoyalarni olib kirish uchun mikrofirmalar, kichik korxonalar va urta korxonalar tashkil etilib, makbul sharoitlar yaratilmokda. Bizning mamlakatimizda xorijiy mamlakatlar tajribasiga suyangan xolda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga davlat tomonidan katta e'tibor berilmokda. Bunga dastlab 1995 yilning 21 dekabrda Oliy majlis tomonidan qabul qilingan "Kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni rag'batlantirish to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini misol bo'ladi. Erkin raqobatga tobora keng

imkon yaratish, turli mulkchilik shakllaridagi bozor sub'ektlari o'rtasida buladigan iqtisodiy -xuquqiy munosabatlarni jaxon andozalari darajasida tashkil etish borasida ushbu qonun muhim axamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasining mulkchilik to'g'risidagi, korxonalar to'g'risidagi, xususiylashtirish va davlat tasarrufidan chiqarish to'g'risidagi va boshqa bir qator me'yoriy xujjatlarda ko'p ukladlilik asoslari belgilanib, ular mulkchilikning barcha shakllarining teng xuquqliligini qaror toptirish, mulkdorlarning xuquqlarini qat'iy ximoyalaniishi, xususiy mulkni yanada ximoya qilish, tadbirkorlikni rivojlantirish va chet el investitsiyalarini jalb etishga qaratilgandir.

Tovar-pul munosabatlari rivojlanayotgan va boshqariladigan bozor sharoitida mulkchilikning barcha shakliga mansub korxonalarni barpo etish, ular faoliyatining, ularni qayta tashkil etish va tugatishning umumiy xuquqiy, iqtisodiy va ijtimoiy asoslari mazkur me'yoriy xujjatlarda keng yoritib berilgan.

“O'zbekiston Respublikasida mulkchilik to'g'risida”gi qonunida belgilab qo'yilgan mulk shakllariga muvofiq quyidagi turdagi korxonalar bo'linadi:

-O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining, shuningdek ajnabiy fuqarolarning individual (xususiy va shaxsiy) mulkiga asoslangan korxonalar;

-jamo'a (shirkat) mulkiga asoslangan jamo'a, oila, maxalla korxonalari, ishlab chiqarish kooperativlari; kooperativlarga karashli korxonalar, aktsiyali jamiyatlarga, mas'uliyatli cheklangan jamiyatlarga, o'zga xo'jalik jamiyatlari yoki shirkatlariga karashli korxonalar; jamoat tashkilotlarining korxonalari, diniy tashkilotlarining korxonalari va jamo'a mulkchiligining boshqa shakllariga asoslangan korxonalar;

-davlat mulkiga asoslangan respublika davlat korxonasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi davlat korxonasi, viloyatlararo, viloyat, tumanlararo, tuman, shaxar davlat korxonasi va korxonalarning boshqa turlari;

-to'la yoki ulush qo'shib ishtirok etishga asoslangan (qo'shma korxonalar) respublika mulki, Qoraqalpog'iston Respublikasi, ajnabiy xuquqiy shaxslar, firmalar va davlatlar mulki bo'lgan korxonalar;

-mulkchilikning aralash shakllariga asoslangan korxonalar.

Mulkchilik shakllaridan qat'iy nazar, korxonalar ishlovchilar soniga qarab kichik korxonalar jumlasiga kiritilgan, bunday korxonalarni barpo etish va ular faoliyatining o'ziga xos jixatlari, makomi, ularni ruyxatga olish shartlari, shuningdek korxonalarni bu turga kiritish tartibi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasi va Qoraqolpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi tomonidan tartibga solinadi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish, uni rivojlantirishning xuquqiy asoslari, shuningdek rag'batlantirish yo'llari "O'zbekiston Respublikasida tadbirkorlik to'g'risida"gi (1991 yil 15 fevral) va Kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni rag'batlantirish to'g'risida"gi (1995 yil 21 dekabr) qonunlarida o'z aksini topdi.

Mazkur Qonunlar kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiy va xuquqiy mustakilligiga kafolat beradi, ularning xuquq va ma'suliyatini aniqlaydi, tadbirkorlarning boshqa korxonalar va tashkilotlar, davlat boshqaruvi idoralari bilan munosabatlarini tartibga soladi.

Bundan tashkari, fuqarolarning tadbirkorlik qobiliyatini butun choralar bilan ishga solish, ularning ishbilarmonligini oshirish, tadbirkorlikni rivojlantirishning xuquqiy kafolatlarini belgilash asosida bozor munosabatlarini jadallashtirishga qaratilgandir.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik to'g'risidagi me'yoriy xujjatlar mulkchilik va xo'jalik yuritish shakllarini erkin tanlash, bu shakllarning tengxuquqlilik asosida amal qilishi, o'zaro xamkorlik va erkin raqobatlashuv ta'minlanadigan sharoitlarning yaratilishiga ko'maklashadi.

Korxonalarni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish iqtisodiy isloxotlarning yetakchi bo'g'inidir. Xususiylashtirish natijasida demokratik jamiyatning ijtimoiy zaminini tashkil kiluvchi xususiy mulkchilik katlami shakllanib bordi.

Iqtisodiyot fanida tadbirkorlik faoliyatiga doir dastlabki tadqiqotlar XVIII asrda R. Kontilon, A. Tyurgo, F. Kene, A. Smit va J.B. Sei asarlarida amalga

osHIRILA boshlandi. Biroq xozirga kadam jamoatchilik fikrida “tadbirkorlik” tushunchasining ko’p ma’noziligi saqlanib qolmoqda. Ilmiy adabiyotda ushbu tushuncha xaqida ko’pincha bu favqulodda xodisaning iqtisodiy, tashkiliy va ruxiy tavsiflari (turli-tuman qarashlar) to’plashidan iborat xar xil tasavvurlar mavjud.

Xorijiy adabiyotlarda biznes ta’rifini ko’p turlari mavjuddir. Inson jamiyatining butun rivojlanish tarixi u yoki bu jihatdan doimo biznes bilan bog’liq bo’lgan.

Dastlabki bosqichlarda tadbirkorlikning eng muhim alomati biron bir shaxs-tadbirkor faoliyatining foydali yoki zararligini belgilovchi noaniklik omili xisoblangan. Tadbirkorlikning ijtimoiy-iqtisodiy vazifasi turli bozorlarda talab bilan taklif orasida muvozanat urnatishga doir takkomillik faoliyatidan iborat deb tan olingan.

Keyinchalik “sarmoya egasi” va “Tadbirkor” tushunchalari bir-biridan farqlana boshlandi. Tadbirkor sarmoyaning muomalada yuritishni, ko’payib borishini ta’minlaydi va bu borada u venchur sarmoyador, ya’ni jalb qilingan moliyaviy mablag’larni ustalik bilan tasarruf etuvchi shaxs sifatida ishni yuritib yuborishga o’z g’oyalari, bilimi va ko’nikmalarini tatbiq qilib, ko’p foyda olish maqsadida shu mablag’larni tavakkal ishlarga sarflaydi.

O’zbekistonda va MDXda biznes haqidagi maqolalar, adabiyotlar 60-yillarning o’rtalarida paydo bo’ldi. Xususiy mulkchilik esa o’sha davrda bizning mafkuramiz uchun butunlay yod narsa edi. Lekin bizda biznesni fan tariqasida o’rganish faqatgina 90-yillarning boshlarida bozor munosabatlariga asta-sekin o’tish bilan boshlanadi.

“Biznes” - so’zi inglizcha so’z bo’lib, u tadbirkorlik faoliyati yoki boshqacha so’z bilan aytganda kishilarni foyda olishga qaratilgan tadbirkorlik faoliyatidir.

Xorijiy adabiyotlarda biznes ta’rifini ko’p turlari mavjuddir. Inson jamiyatining butun rivojlanish tarixi u yoki bu jihatdan doimo biznes bilan bog’liq bo’lgan.

Biznesmen (tadbirkorlik) so'zi birinchi marotaba Angliya iqtisodiyotida XVIII asrda paydo bo'lib, u "Mulk egasi" degan ma'noni bildiradi. Jumladan, Adam Smit tadbirkorni mulk egasi sifatida ta'riflab, uni foyda olish uchun qandaydir tijorat g'oyasini amalga oshirish maqsadida iqtisodiy tavakkalchilikka boradigan kishidir, -deb ta'kidlaydi. Tadbirkorni o'zi, o'z ishini rejalashtiradi, ishlab chiqarishni tashkil etadi, mahsulotni sotadi va olgan daromadiga o'zi xo'jayinlik qiladi.

Biznes-bu avvalo ishlab chiqarishni tashkil etish, iqtisodiy faoliyat va munosabatlar, xatni o'zi sungra esa pul ishlash demakdir. Biznes-bu xorijiy so'zdir. U butun dunyo bo'yicha tarqalgandir, undan barcha mamlakatlarda foydalanidilar. O'zbek tilida esa biznes so'zi tadbirkorlik, biznesmen esa tadbirkor demakdir. O'zbekcha so'z xorijiy so'zga to'g'ri keladi, lekin unga qo'shimcha ma'no xam beradi. Bu so'zlarni ortida "ish" ya'ni ish bilan shug'ullanish yoki korxonani tashkil qilish yotadi. SHunday qilib, biznes - bu korxonani tashkil qilish demakdir (sanoat korxonasi, savdo do'koni, xizmat ko'rsatish korxonasi, auditorlik firmalari, advokat idorasi, bank va x.k.). Demak, biz bu yo'q narsadan pul qilish emas, balki murakkab ishlab chiqarishni yoki xizmat ko'rsatishni tashkil etish demakdir. Tadbirkorlik - bu doimo o'z ishining fidoiysi, bilimdonidir. Tadbirkorlik uchun o'qish kerak, nafaqat dastlabki paytlarda, balki tadbirkor bir umr o'qishi, izlanishda bo'lishi kerak.

Tadbirkor eng avvalo, tadbirkorlik faoliyatini kanday amalga oshirishni, kanday sharoitda amaliy xarakat qilishni, tadbirkor oldida uchraydigan tusiklarni xal qilish yullarini va kanday yutuklarga erishishni bilishi kerak. Tadbirkor-ishlab chiqarishni tashkil etishni, xamda mahsulotni sotishni bilishi kerak. U bozor munosabatlari sharoitida yuzaga keladigan anik sharoitlarni baxolashni va tugri yul tanlashni bilishi kerak. Xech kim, xech kachon tadbirkorga nima qilishni urgatmay va ogir paytdlarda yordamga kelmaydi. Xar bir tadbirkor faqat o'z kuchiga, bilimiga va zakovatiga ishonishi va suyanishi lozim.

Tadbirkorlik faoliyatini aktsiyadorlik mulki shaklida xam, jamoa mulki shaklida xam, xususiy (yakka) mulk shaklida xam amalga oshirish mumkin. Birok

aktsiyadorlik mulki shakli va jamoa mulki shakli doirasida uni tashabbus ko'rsatish, qarorlar qabul qilish va o'z faoliyati uchun javobgarlik masalalarida xodimlar va menejerlarga xususiy mulk egasi imkoniyatlari kanchalik darajada berilishiga bog'liq ravishda amalga oshirish mumkin.

1995-1999 yillarda kichik va xususiy korxonalar tashkil qilishga eng katta ahamiyat berildi. Ijtimoiy yunaltirilgan bozor iqtisodiyotiga o'tish davriga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov ta'kidlab o'tganidek, "...qishloq joylarida ixcham ishlab chiqarish korxonalari tashkil etish, kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni rag'batlantirish xisobiga axolining ish bilan bandligini ta'minlash siyosatini faol amalga oshirmoqchimiz"³

Mamlakatimizda bu siyosatni amalga oshirishda asosan tadbirkorlikni rivojlantirishni taqozo etadi

O'zbekiston Respublikasida mustaqillikning birinchi yillaridan kichik biznesni rivojlantirishga berilayotgan e'tibor va uning tarkib topib, rivojlanishiga xos bo'lgan umumiy xususiyatlar hakida so'z yuritadigan bo'lsak, u xolda quyidagilarni aloxida ajratib ko'rsatish maqsadga muvofiq deb xisoblaymiz:

1. Iqtisodiyotni rivojlantirish andozalari o'zgardi. Ya'ni miqdoriy ko'rsatkichlardan sifat ko'rsatkichlariga ustuvorlik berildi. Tovar va xizmatlarning sifati katta ahamiyat kasb etmoqda.

2. Ilmiy–texnika taraqqiyotining jadallashuvi natijasida kichik biznes korxonalari faoliyati uchun zarur bo'lgan texnikalar, masalan, mini uskunalari, mikroprotessorlar, mini EXMLar paydo bo'ldi.

3. Iste'molchilar ruhiyatining o'zgarishi natijasida ularda standart tovarlar sotib olishga bo'lgan qiziqish keskin so'ndi. Bir so'z bilan aytganda talabning tabaqalashuvi va iste'molning individuallashuvi yuz berdi.

Yaqinda qabul qilingan mamlakatimiz Prezidentining farmonlari va qarorlari tadbirkorlarning huquq va qonuniy manfaatlarining mustahkam himoyasini ta'minlash, ularning iqtisodiyotdagi o'rni va ahamiyatini tubdan oshirishga qaratilgan. chunki tadbirkorlik, ayniqsa, uning kichik biznes shakli iqtisodiy

³ I. Karimov. yangicha fikrlag va ishlash-davr talabi. 5-tom. -T..O'zbekiston, 1997 y.

taraqqiyotning muhim omili sifatida nafaqat jamiyatning milliy va ma'naviy salohiyatini oshirishga ko'maklashadi, balki har bir insoning mahorati va qobiliyatini ro'yobga chiqarish uchun qulay zamin yaratadi.

Iqtisodiy va ilmiy–texnikaviy salohiyati yuqori mamlakatlarda davlat siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri kichik biznesni qo'llab-quvvatlash bilan bog'liq. Ushbu mamlakatlarda kichik biznes ulushiga barcha korxonalarining 90-95% va yalpi ichki mahsulotlarining 40% atrofida to'g'ri keladi.

Ayniqsa, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik-savdo va xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. U o'zining faoliyat sohasini va ixtisoslashuvini tez o'zgartira olish tufayli va fan-texnika yangiliklarini faol o'zlashtirish imkoniga ega. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik raqobat muhiti rivojlanishiga yordam beradi va shu bilan iqtisodiyotning monopollashuv darajasini kamaytiradi hamda mulkdorlarni shakllantirishning asosiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Hajmining kichikligi uning ommoviylikiga sabab bo'ladi va shuning uchun ham yangi ishchi o'rinlarini yaratishda tadbirkorlikning ushbu shakli haetda, amaliyetda qo'l keladi.

Shu bois O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasida iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish yo'nalishlari haqida to'xtalib, kichik biznes va fermerlikni rivojlantirish borasidagi ishlarni chuqurlashtirish, ko'lamini kengaytirish muhim ustuvor vazifalardan biri ekanligini alohida ta'kidladi va kichik biznes uchun qo'shimcha kafolat, imtiyoz va shart-sharoitlar yaratish vazifasini qo'yadi.

Darhaqiqat, O'zbekiston o'z mustaqilligini qo'lga kiritgan dastlabki kunlardan boshlab, jamiyatda tadbirkorlik ruhini qaror toptirish, iqtisodiy taraqqiyotining muhim omillaridan biri sifatida uning ustuvor rivojlanishini har tomonlama qo'llab-quvvatlashga va shu asosda odamlarda mulkdorlik tuyg'usini uyg'otishga jiddiy e'tibor qaratilmoqda.

Mamlakatimizda nisbatan qisqa vaqt ichida tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish, uni yuritish uchun zarar bo'lgan hududiy – me'eriylar asos yaratildi.

O'zbekiston Respublikasining "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida", "Xususiy korxonalar to'g'risida"gi va shu kabi boshqa qonunlari tadbirkorlik faoliyatini tashkil etishda qator imtiyoz va imkoniyatlar yaratib, uni qo'llab – quvvatlash hamda himoyalashga kafolat beradi.

Jamiyat taraqqiyotining muhim omili sifatida tadbirkorlik, ayniqsa, kichik va xususiy biznes shakllarining faoliyat yuritishi uchun qulay shart-sharoit yaratish, yangi tashkil etilayotgan tadbirkorlik sub'ektlarini ro'yxatga olishni yengillashtirish, yuqori likvidli mahsulotlar, xom-ashe va materiallarni ochiq birja savdolarida sotishni tashkil etishga qaratilgan chora-tadbirlar, tadbirkorlar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarni sertifikatlashga doir qarorlar ushbu yo'nalishda keng imkoniyatlar ochib berdi.

Mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash yo'li bilan zamonaviy, diversifikatsiya-langin va kuchli raqobatga bardosh beradigan iqtisodiyotni shakllantirish yuzasidan ko'rilayotgan chora-tadbirlar iqtisodiy o'sishning barqaror yuqori sur'atlari saqlanishini ta'minlamoqda.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining salbiy oqibatlarini bartaraf etish, iqtisodiy o'sishning makroiqtisodiy mutanosibligi va barqaror sur'atlarini, iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror ishlashini ta'minlash, aholi bandligiga ko'maklashish, eksport qiluvchilar, sanoatning yetakchi tarmoqlari korxonalarini hamda kichik biznesni aniq qo'llab-quvvatlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 28 noyabrdagi "Iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo'llab-quvvatlash, ularning barqaror ishlashini ta'minlash va eksport salohiyatini oshirish chora-tadbirlari dasturi to'g'risida"gi PF-4058-sonli Farmoni qabul qilindi.

Dasturda kichik biznes rivojlanishini qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish, aholi bandligiga va yangi ish o'rinlarini tashkil etishga ko'maklashish maqsadida bir qator tadbirlar belgilangan bo'lib, bunda kichik biznes korxonalarining bank kredit resurslaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, yangi tashkil etilayotgan kichik biznes va xususiy korxonalarini ustuvor asosda qo'llab-

quvvatlash maqsadida tijorat banklari tomonidan belgilangan normalar doirasida Imtiyozli kreditlash jamg'armasi resurs bazasini kengaytirish yo'naltiradigan summalarini ikki baravar oshirish kabi ustivor yo'nalishlar belgilangan.

Bu tadbirlar iqtisodiy nochor korxonalarini moliyaviy sog'lomlashtirish, modernizatsiyalash, texnik va texnologik jihatdan yaxshilash, tijorat banklarining mablag'larini kengroq jalb qilishni yo'lga qo'yish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatini samarali tashkil etish uchun asos bo'lmoqda.

O'z navbatida, bank tizimi Prezidentimiz I.Karimov tomonidan belgilab berilgan Inqirozga qarshi choralar dasturining bajarilishi doirasida iqtisodiyotning real sektori korxonalarining barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash va eksport salohiyatini oshirish bo'yicha sezilarli moliyaviy ko'mak ko'rsatib kelmoqda.

Umuman rivojlangan davlatlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyaviy sog'lomlashtirish sohasida katta tajribalar to'plangan. Bunda quyidagilarga tayaniladi:

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan maxsus qonunlarga;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning Davlat dasturlariga;
- moliyaviy yordam yo'nalishlariga(masalan, Italiya kichik firmalarning ilmiy – tadqiqot va konstruktorlik ishlari uchun ma'lum miqdorda moliyaviy yordam ko'rsatiladi);
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni kafolatli va imtiyozli kreditlovchi firmalarga(masalan, Angliyada tadbirkorlikni moliyalashtiruvchi maxsus firmalar mavjud bo'lib, bunda ular davlat qarzlarning 70 foizini kafolatlaydi);
- kichik biznes sub'ektlari faoliyatini imtiyozli kreditlashga, ularga soliq yukini yengillashtirishga(masalan, Frantsiyada har yili 100 mingta korxonalar soliqdan to'liq va qisman ozod qilinadi).

Mamlakatimizda ham bu sohani har tomonlama rivojlantirish maqsadida turli xil imtiyozlar berilayotganligini ta'kidlab o'tish kerak. Tadbirkorlik faoliyatida kuzatilayotgan ko'plab qiyinchiliklar va kamchiliklar kichik biznesni barpo etish va rivojlantirishni jiddiy qo'llab-quvvatlash zarurligini tasdiqlaydi. Bu

avvalo, tadbirkorlik faoliyatining o'zi bilan bog'liq bo'lgan, kichik biznesni tashkil qilishning mohiyatidan kelib chiqadigan qiyinchiliklardir. Ko'pgina kichik korxonalarida tadbirkorlarning o'zlari ta'minot, savdo, ishlab chiqarishni tashkil qilish, iqtisod, buxgalteriya va shu kabi barcha boshqaruv funktsiyalari bilan yakka tartibda shug'ullanadilar. Tabiiyki, bir kishiga bu murakkab funktsiyalarning barchasini professional darajada bajarish qiyinlik qiladi. SHuning uchun xo'jalik jarayonlarida qabul qilinayotgan qarorlar har doim ham samarali bo'lavermaydi, bu esa kichik korxonalarining bankrot bo'lishiga olib kelaetgan asosiy sabablardan biridir.

Tadbirkorlik faoliyatining o'ziga xos xususiyati tinimsiz ravishda me'yorlanmagan mashaqqatli mehnat, ulkan mas'uliyat, xatarlarning kattaligi va daromadlarning muntazam emasligi kabi shaxsiy muammolar vujudga kelib turadi.

Tadbirkorlar yordamni avvalo do'stlar va tanishlardan olishlari xamda boshqa sohalarga murojaat qilish mumkin. SHuningdek tadbirkorlarning turli birlashmalari ,ittifoqi va uyushmalar bo'lib, lekin eng asosiy yordam faqat davlat tijorat banklari, kredit uyushmalari va boshqa kredit liniyalari tomonidan bo'ladi.

Bunday qo'llab-quvvatlash so'ngi yillarda tobora kengayib, kuchayib bormoqda. Kichik biznesni rivojlantirish va qo'llab-quvvatlashga, rag'batlashtirishga qaratilgan yangi qonun va farmonlar qabul qilinib, hayotga tadbiq etilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida Iqtisodiy islohotlar, tadbirkorlik va xorijiy investitsiyalar bo'yicha Mahkamalararo kengash ishlab turibdi. Ushbu kengash tadbirkorlik sektorini rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish bilan shug'ullanadi, kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlashning bozor iqtisodiyoti tamoyillaridan kelib chiqadigan asosiy yo'nalishlari, shakl va usullarini belgilaydi, kichik biznesning umumiy mafkurasini shakllantiradi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qoshida kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni rag'batlantirish bo'yicha Respublika muvofiqlashtiruvchi kengashi faoliyat ko'rsatmoqda. Uning huzurida beshta ishchi

guruhi tashkil qilingan. Davlat tomonidan berilayotgan yordamdan tashqari, O'zbekistonda tadbirkorlikning barpo etilishi va rivojlanishi mobaynida tadbirkorlarning nohukumat va notijorat tashkilotlariga birlashish yo'li bilan o'z-o'zini qo'llab-quvvatlash shakllari tobora keng tarqalmoqda. Ushbu kengash respublika mintaqalarida kichik biznesni rivojlantirish bo'yicha muayyan chora tadbirlarni ishlab chiqish bilan shug'ullanadi, shu muammolarni hal qilish bo'yicha soha organlarning faoliyatini muvofiqlashtiradi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash ko'lami har bir mamalakat iqtisodiy-ijtimoiy va siyosiy ahvoli holatidan kelib chiqadi. Shuning uchun bu borada mavjud tajribalarga tayanib quyidagi yo'nalishlarni tavsiya etiladi:

- davlat byudjeti mablag'lari evaziga qo'llab-quvvatlash;
- har xil fondlar va uyushmalar mablag'lari hisobiga;
- axborotlar bilan doimiy ravishda ta'minlab borish va hokazo.

Bu borada mamalakatimizda ham bir qator ijobiy ishlar amalga oshirildi. Jumladan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlanishiga bevosita ko'mak beruvchi, uni qo'llab-quvvatlovchi mahsus qo'mitalar va kengashlar:

-O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi islohotlar va investitsiyalar bo'yicha idoralararo muvofiqlashtiruvchi kengash;

-O'zbekiston Respublikasi Monopoliyadan chiqarish, raqobat va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash davlat qo'mitasi kabi maxsus idoralar tashkil etildi;

Mamlakat miqyosida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash hamda rag'batlantirish dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish bu idoralarning asosiy vazifasi hisoblanadi.

Mahalliy organlar, hokimliklar hududiy xususiyatlardan kelib chiqqan holda, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish bo'yicha o'z dasturlarini ishlab chiqadilar hamda amalga oshiriladilar.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi har yili kelgusi yilning davlat byudjeti loyihalarini Oliy Majlisida ko'rib chiqish va tasdiqlash uchun tavsiya

etadi. Muhokama jarayonida kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni rahbatlantirish dasturi loyihasini kiritadi va har yili davlat byudjetidan shu maqsadlar uchun mablag'lar ajratish ko'zda tutiladi.

Bugungi kundagi asosiy vazifa mamlakatimizda kichik biznes va tadbirkorlikning raqobatbardoshligini rivojlantirishni rag'batlantirish uchun iqtisodiy va huquqiy sharoitlarni yaratish bo'lsa, boshqa tomondan unga moddiy va moliyaviy resurslar kiritish ko'zda tutiladi. Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash oqilona dotatsiyalar, soliq solish, kreditlash, sug'urtalash va investitsiyalashdagi imtiyozli tartiblar va hokazolar shaklida namoyon bo'lishi kerak.

Zamonaviy sharoitlarda davlat ko'magining asosiy tamoyili biznesni - ma'muriy-direktiv boshqarishni asta-sekin qisqartirish va bozor xo'jaligini normal yuritish uchun iqtisodiy va huquqiy sharoitlar yaratish lozim. Davlat ko'magi tarmoqli, geografik, milliy, tarixiy xususiyatlar va an'analar, shuningdek, xorijiy tajribani hisobga olgan holda tadbirkorlikning raqobatbardoshligini rivojlantirish uchun iqtisodiy va huquqiy sharoitlar, omillar yaratish sifatida namoyon bo'lishi kerak.

Tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning eng muhim vazifasi-kichik korxonalariga teng huquqlarni ta'minlash, kichik va yirikroq korxonalar o'rtasidagi xo'jalik imkoniyatlari bo'yicha farqni imkon qadar kamaytirish, o'zbekiston xo'jaligining bozor tizimini shakllantirishning bazaviy jarayonlarida kichik va yirik tadbirkorlikning eng maqbul nisbatini ta'minlashdan iborat.

Bu sohani davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, bu birinchi galda, raqobatli bozor musobaqasida teng huquqlilikni, faoliyat turini erkin tanlash sharoitida tadbirkorlik faoliyatini yuritishda teng imkoniyatlar yaratish, ularning huquqlari va javobgarligini, imkoniyatlari va tavakkalchiligini aniq belgilashdir. Bunda ijtimoiy, iqtisodiy, yuridik, siyosiy va boshqa qulay sharoitlar mavjud bo'lsagina biznesni muvaffaqiyatli rivojlantirish mumkin.

Agrar sohada mulkchilikning turli shakllariga asoslangan tadbirkorlik sub'eklarini rivojlantirish, ishlab chiqaruvchilarga tashkiliy sharoitlarni va bozor talablarini hisobga olgan holda ishlab chiqarishni tashkil etish, iqtisodiy manfaatdorlikka, tadbirkorlik foydasiga va o'z faoliyatining natijalari uchun moddiy javobgarlikka tayanish imkoniyatlarini beradi. Isloxatlarni dastlabki amalga oshirish jarayonida sobiq shirkat xo'jaliklarining faoliyati tanqidiy tahlil etilib, fermer xo'jaliklariga aylantirish mexanizmi joriy etildi.

Bu jarayonlarni amalga oshirilishida "Er kodeksi", "Fermer xo'jaliklari to'g'risida"gi, "Dehqon xo'jaligi to'g'risida"gi qonunlar va xukumat qarorlari hamda boshqa me'yoriy xujjatlar qabul qilindi. Bunday xuquqiy asoslarning yaratilishi iqtisodiy islohatlarni chuqurlashtirishga zamin yaratdi.

Qishloq xo'jaligida xo'jalik yuritishning bozor munosabatlariga mos keladigan fermer va dehqon xo'jaliklari ustivorligi belgilandi, hamda unga xizmat ko'rsatuvchi infratuzilma shakllantirildi.

Qishloq xo'jaligida bozor munosabatlarining faol kirib borishi va tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishi bilan fermer xo'jaligining yangi ijtimoiy-iqtisodiy ukhad sifatida mohiyatini aniqlashtirish, ularning tashkiliy tashkiliy iqtisodiy asoslarini teranlashtirish hamda xuquqiy maqomini mustahkamlash zaruriyati yuzaga keldi.

O'zbekiston Respublikasining 1998 yil 30 apreldagi "Fermer xo'jaligi to'g'risida"gi qonuni qabul qilinishi bilan fermer xo'jaligi maqomi, uning ijtimoiy iqtisodiy mohiyati va tashkiliy iqtisodiy asoslari qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishi bilan shug'ulanuvchi tadbirkorlik sub'ekti sifatidagi faoliyatlari belgilab berildi, hamda ushbu qonunni 2004 yil 26 avgustdagi yangi tahriri fermerlik faoliyatining kelajakdagi istiqbolini belgilaydi.

Fermer xo'jaligining faoliyatiga–qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash, saqlash, shuningdek, bozorlarda o'z savdo shahobchalari orqali mahsulotlarini sotish, tijorat faoliyati va marketing tadqiqotlarini tashkil qilish, yuridik va ijtimoiy shaxslarga pulli xizmatlar

ko'rsatish, tashqi iqtisodiy faoliyatini amalga oshirish, faoliyatning qonun xujjutlariga taqiqlanmagan boshqa turlarni amalga oshirish kiradi.

Etishtiriladigan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetkazib berish hamda moddiy-texnika resurslari va xizmatlarini olish uchun shartnomalarni faqat fermer xo'jaliklari o'zlari tayyorlab, qayta ishlash hamda xizmat ko'rsatish korxonalarini va tashkilotlar bilan to'g'ridan-to'g'ri to'zadilar. Ishlab chiqarish mahsulotlarini iste'molchilarga shartnoma asosida yetkazib beradilar.

Shuning uchun Respublikamizda fermer xo'jaliklari va ularga xizmat ko'rsatuvchi tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatlarini yuritish uchun keng iqtisodiy-xuquqiy asoslar yaratildi.

Prezidentimiz I.Karimov o'zining "Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari" nomli asarida mamlakatimizda fermer xo'jaliklarini moddiy-texnikasini ta'minlash va moliyalash bo'yicha bozor iqtisodiyoti tamoyillariga to'la javob beradigan ishonchli tizim va mexanizmlar shakllantirilganligi va muvoffaqiyatli faoliyat ko'rsatayotganligiga alohida e'tibor qaratdilar.

Tadbirkorlik sub'ektlariga "Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va 2009-2012 yillarga mo'jallangan inqirozga qarshi choralar" Dasturi doirasida katta miqdorda moddiy resurs va mablag'lar ajratildi. Shuningdek O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 7 dekabrda 2011 yilning deb nomlanishi munosabati bilan 2011 yil 7 fevralda "Kichik bizes va xususiy tadbirkorlik" yili davlat dasturini qabul qilishi to'g'risida Prezidentimizning qarori qabul qilindi.

Qarorda mulkdorlar-ning o'rta sinfini shakllantirish ichki bozorni raqobatbardosh va sifatli mahsulotlar bilan to'ldirish, yangi ish o'rinlari yaratish va shu asosda aholi daromadlarini ko'paytirish va farovonligini oshirishni muhim omili, mamlakat taraqqiyoti yo'lidagi faol xarakatlantiruvchi kuch sifatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish uchun "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik" yili davlat dasturi qabul qilindi.

Umuman Respublikada kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarini Davlat tomonidan kullab-kuvvatlash maqsadida bank kredit resurslari ajratish miqdori ortib bormokda, bunda ayniksa mikrokreditlar miqdori o'smoqda.

Buning natijasida qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligi sezilarli darajada oshishiga olib keldi Prezidentimiz I.Karimovning mamlakatimizni 2015-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustivor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasida ta'kidlaganidek: "mamlakatimizda ishbilarmonlik muhitini yaxshilash borasida olib borayotgan ishlarimiz xalqaro iqtisodiy tashkilotlarning reytinglarida o'zining ijobiy ifodasini topmoqda. O'tgan yilning oktyabr oyida Jahon banki «Biznes yuritish» reytingini e'lon qildi. Ana shu reytingda O'zbekiston faqat bir yilning o'zida 16 pog'onaga ko'tarilib, 87-o'rinni egalladi.

Shuni alohida qayd etish kerakki, «yangi biznesni qo'llab-quvvatlash» deb ataladigan mezon bo'yicha mamlakatimiz ayni paytda jahonda 42-o'rinni, tuzilgan shartnomalar ijrosini ta'minlash bo'yicha 32-o'rinni, iqtisodiy nochor korxonalarga nisbatan qo'llanadigan bankrotlik tizimining samaradorligi bo'yicha 75-o'rinni egallab turibdi. «Kichik biznes sub'ektlariga kredit berish» deb nomlanadigan ko'rsatkich bo'yicha O'zbekiston so'nggi uch yilda 154-o'rindan 42-o'ringa ko'tarildi va o'tgan yilning o'zida reytingini 63 pozitsiyaga yaxshiladi.

Jahon bankinging ma'ruzasida O'zbekiston keyingi yillarda tadbirkorlik faoliyati uchun ishbilarmonlik muhitini yaxshilash sohasida eng yaxshi natijalarga erishgan dunyodagi o'nta davlat qatoridan joy olgani qayd etilgan.

Ana shu yo'nalishdagi islohotlar natijasida yalpi ichki mahsulotimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi 2000-yildagi 31 foizdan bugungi kunda 56,7 foizga yetgani yoki 1,8 barobar oshganini alohida ta'kidlashni istardim. Hozirgi paytda ushbu sohada jami sanoat mahsulotlarining uchdan bir qismi, qishloq xo'jaligi mahsulotlarining 98 foizi ishlab chiqarilmoqda. Ish bilan band jami aholimizning 77 foizdan ortig'i – shunga e'tibor bering – mazkur tarmoqda mehnat qilayotgani, o'z peshona teri bilan nafaqat o'z oilasini boqayotgani, balki

mamlakatimiz boyligiga boylik qo'shayotgani, avvalo, mustaqillik bizga ochib bergan imkoniyatlarning yaqqol isboti, desam, ayni haqiqatni aytgan bo'laman imkonini berdi"⁴.

Kichik bizes va xususiy tadbirkorlikning YaIMdagi hissasi va soliqqa tortilishi.

1-jadval.

Yillar	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YaIMdagi ulushi.	Yagona soliq stavkasi
2007	45,5	10,0
2008	48,2	8,0
2009	50,0	7,0
2010	52,5	7,0
2011	54,0	6,0
2012	54,5	5,0
2013	55,8	5,0
2014	56,0	5,0
2015	56,7	5,0

Izoh: O'zbekiston Respublikasi statistika markazining ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Keltirilgan 1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YaIMdagi hissasi yil sayin o'sib bormoqda soliqqa tortish yuzasidan imtiyozlar berib borilmoqda. Oxirgi yillar ichida sohani YaIMdagi hissasi 18,7 foizga oshgan holda yagona soliqqa tortish 50 foizga kamaytirildi.

Respublikamiz rahbarining tashabbusi bilan mikrofirma va kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lovi stavkalarining kamaytirilishi xo'jalik yurituvchi sub'ektlar investitsiya faoliyatining kengayishiga xizmat qildi.

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimovning mamlakatimizni 2015yilda ijtimoiy -iqtisodiy rivojlanish yakunlari va 2016-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustivor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasi."Xalq so'zi"16.01.2016

Buning natijasida bo'shab qolgan mablag'lar ishlab chiqarishni texnologik yangilash va zamonaviy texnikani joriy etishga yo'naltirish imkonini berdi.

2015 yili iqtisodiyotimizni tarkibiy o'zgartirish va diversifikatsiya qilishni chuqurlashtirish, bandlikni ta'minlash, odamlarimizning daromadi va hayot sifatini oshirishning muhim omil va yo'nalishlaridan biri tariqasida **xizmat ko'rsatish va servis** sohasini jadal rivojlantirish borasidagi tizimli ishlar izchil davom ettirildi.

2015-yilda yalpi ichki mahsulot o'sishining yarmidan ko'pi xizmat ko'rsatish sohasi hissasiga to'g'ri kelgani bu tarmoqning iqtisodiyotimizdagi o'rni va ta'siri naqadar katta ekanini ko'rsatadi. Bugungi kunda xizmat ko'rsatish sohasining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 2010-yildagi 49 foizdan 54,5 foizga yetdi. Jami band aholining yarmidan ko'pi ushbu sohada mehnat qilmoqda.

Mustaqillik yillarida amalga oshirilgan tub o'zgarishlar va islohatlar joriy va kelgusi yillarda, ayniqsa jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi o'zining salbiy oqibatlariniko'rsatayotgan hozirgi sharoitda, O'zbekiston iqtisodiyotida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning roli muhim xisoblanadi.

Tadbirkorlik bozor iqtisodiyotiga xos iqtisodiy faoliyat bo'lib, u muayyan ijtimoiy-iqtisodiy natijaga erishish maqsadida tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarish va ayirboshlashni tashkil etish bo'yicha mulkdorlarning yoki ular vakillarining ongli va maqsadli iqtisodiy faoliyatidir. "O'zbekiston Respublikasi tadbirkorlik to'g'risida"gi qonunida tadbirkorlikka quyidagicha ta'rif berilgan: "Tadbirkorlik-mulkchilik sub'ektlarining foyda olish maqsadida tavakkal qilib va mulkiy javobgarlik asosida amaldagi qonunlar doirasida tashabbus bilan iqtisodiy faoliyat ko'rsatishdir".

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va O'zbekiston Respublikasida tadbirkorlik to'g'risidagi qonunga muvofik balog'at yoshiga yetgan xar bir fukaro o'z mulki asosida yoki mulk egasining vakolati asosida o'z ixtiyor etgan qonunga zid bo'lmagan faoliyat turi bilan shug'ullanishi mumkin. Tadbirkorlik faoliyatini tanlash, uni tashkil etish va rivojlantirish moxiyat jixatidan davlat, jamiyat axamiyatiga molik ish bo'lmasdan, balki erkin tanlanadigan faoliyat bo'lib quyidagi xususiyatlarni o'zida mujassamlantiradi:

- qonunlarga itoatkorligi;
- innovatsiyachilikning faolligi;
- maqsad sari intiluvchanlik;
- tashkilotchilik;
- tejamkor bo'lishi;
- o'z so'zining ustidan chiqish;

Ruxiy poklik va xalolligi.

-o'z jamoasi uchun kurashuvchanlik kabilar

Tadbirkorlikni rivojlantirish uchun mulk munosabatlarining uyg'unlashuvi muhim hisoblanadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida mulkiy munosabatlar uch jixat bilan belgilanadi:

-egalik qilish, ya'ni mulk egasi sifatida mulkka to'la xukumronlik qilish:

-sotish, ijaraga berish, xadya etish;

-foydalanib turish, ya'ni mulk egasining nazorati asosida ma'lum shart va to'lov evaziga mulkdan vaqtincha foydalanish;

-operativ tezkor boshqarishni, yangi mulk egasining nazorati ostida resruslarni taksimlash va ishlab chiqarishni tashkil etish bo'yicha mulkni boshqarish xuquqini joriy etish.

Tadbirkorlarga o'z qobiliyatini to'la namoyon etish uchun quyidagi iqtisodiy erkinliklar berilmoqda:

-mahsulot assortimenti turlarini va ishlab chiqarish usulini tanlash erkinligi;

-xamkorliklarni mustaqil tanlash;

-mablag'larni qonunga zid bo'lmagan sohalarga mustakil sarflash erkinligi va x.k.;

Bozorning ochiqligi, ya'ni tovarlar, sarmoyalar, ma'lumotlar, ish kuchi, xom ashe xarakati uchun sun'iy g'oyalarning yukligi.

Bozor infratuzilmasining mavjudligi.

Bunga quyidagilar kiradi:

-tijorat banklari;

-tovar, fond, mehnat, valyuta birjalari;

-tijorat tavakkalchiligi va mulk sug'urtasi;

-ma'lumot va reklama manbaalari, ommaviy axborot vositalari, aloqa vositalari;

-ekspert byurolari, sertifikat markazlari, bojxonalar, soliq nazorati tashkilotlari, arbitrajlar va x.k. Tadbirkorlik uchun xuquqiy kafolatning mavjudligi, ya'ni tadbirkorlikni ximoyalovchi qonunchilikning mavjudligi.

1.2 Qishloq xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi tadbirkorlik sub'ektlarida ishlab chiqarishni tashkil etishni tartibi.

Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarning iqtisodiyotda erishgan yutuqlarining asosi bozor iqtisodiyotida mulk shakllarining takomillashuvi, iqtisodiyotdagi keskin tuzilmaviy o'zgarishlar, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning yalpi ichki mahsulotlari bilan baholanmoqda. Jahon inqirozi sharoitida Respublikamizda iqtisodiyotni erkinlashtirish orqali iqtisodiyotning ijtimoiy yo'nalishlarini kuchaytirish, ishlab chiqarishni iste'molchilar talablari asosida tashkil etish hamda fuqarolar erkinligiga keng yo'l ochib berish, ularning mavjud imkoniyatlaridan to'la foydalanishi yuqori unum, tashabbuskorlik va tashkilotchilik asosida tadbirkorlik faoliyati olib borishni ta'minlashdir.

Tadbirkor o'zining ma'lum bir miqdordagi moliyaviy mablag'larini tavakkal qilib, bozorga yangi g'oya, mahsulot, xizmat va ishlar bilan kirib boruvchi ishbilarmon shaxsdir.

Tadbirkorlik sub'ekti esa ma'lum bir faoliyatini ya'ni ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalaridagi tadbirkorlik, savdo-sotiq tadbirkorligi, moliya sohasidagi tadbirkorlik tushuniladi.

Tadbirkorlikning mustaqilligi va erkinligi bozor mexanizmini ta'minlagan holda, aniq bir qaror qabul qilish imkonini berishini anglatadi. Tadbirkorlikning mustaqilligi bilan iqtisodiy manfaatdorligi uzviy bog'liq bo'lib, uning muhim belgilari quyidagilar:

- mulkiy munosabatlarning ishtirokchisi bo'lish;
- iqtisodiy erkinlik;
- foyda olishga intilish;
- raqobat kurashida qatnashish;
- tijorat siriga ega bo'lish;
- imidjga ega bo'lish;
- iqtisodiy xatti-xarakter uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olish.

O'zbekiston Respublikasining 1995 yil 21 dekabrda O'zbekiston Respublikasining Oliy majlisi sessiyasida qabul qilingan "Kichik va xususiy

tadbirkorlikni rivojlantirish to'g'risida"gi qonunda tadbirkorlikning iqtisodiy-xuquqiy mustaqilligi hamda ushbu mustaqillikni ta'minlash uchun zarur bo'lgan kafolatlar tadbirkorlikning xuquq va ma'suliyati aniq belgilangan hamda tadbirkorlar o'rtasidagi munosabatlar, ularning boshqa korxonalar va tashkilotlar, davlat boshqaruv idoralari bilan munosabatlarini tartibga solishga oid qoidalar ham yoritib berilgan.

Bu qonuniy hujjatlar mulkchilik va xo'jalik yuritish shakllarini erkin tanlashga, bu shakllarni erkin tanlashga, bu shakllarning teng xuquqlik asosida amal qilishiga, o'zaro hamkorlik va erkin raqobatbardoshlikni ta'minlaydigan sharoitlarni yaratilishiga ko'maklashadi.

Respublikamiz mustaqillik yillarida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Er kodeksi", "Mulk to'g'risidagi", "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi, "Korxonalar to'g'risida"gi, "Erkin tadbirkorlik faoliyati kafolatlari to'g'risida"gi, "O'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyati to'g'risida"gi, "Chet el investitsiyalari va chet el investitsiyalari faoliyatini kafolatlash to'g'risida"gi, "Fermer xo'jaliklari to'g'risida"gi, "Dehqon xo'jaligi to'g'risida"gi qonunlari, Prezident farmonlari, Vazirlar Mahkamasining Qarorlari va boshqa me'yoriy hujjatlari bilan tadbirkorlik faoliyati tartibga solinmoqda.

O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash maqsadida dastlab 1995 yil 28 avgustda Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasida kichik va xususiy korxonalarining rivojlantirishni qo'llab quvvatlash Davlat dasturi qabul qilingan bo'lib, ushbu dastur iqtisodiyotni erkinlashtirish tadbirlari qo'llashni ko'zda tutadi, mamlakatda kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning asosiy maqsadlarini belgilab berdi.

O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab quvvatlash Davlat dasturini muvoffaqiyatli amalga oshirishini ta'minlash maqsadida "Bozor islohatlarini chuqurlashtirish va iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish sohasidagi ustivor yo'nalishlar amalga oshirilishini jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi tadbirkorlik sub'ektlarini xuquqiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida, mikrofirmalar va kichik korxonalarni

rivojlantirishni rag'batlantirish bazasidagi qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risidagi bir qator O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari qabul qilindi.

Tadbirkorlik sub'ektlari turlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 11 oktyabrdagi "Kichik tadbirkorlik (biznes) sub'ektlariga tegishli bo'lgan korxonalar va tashkilotlar klassifika-tsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 439-sonli qaroriga asosan tadbirkorlik sub'ektlari quyidagicha turkumlanadigan bo'ldi:

Kichik biznes sub'ektlari – korxonalar ko'lamini, ishlab chiqarish hajmi, ishlovchilar soni, moliyaviy mablag'lari miqdori va boshqalar jihatidan imkoniyatlari cheklangan ishlab chiqaruvchi sub'ektlar. Respublikamizda sanoat ishlab chiqarishning ayrim tarmoqlarida (masalan, yengil va oziq-ovqat sanoati, metallga ishlov berish va asbobsozlik sanoati va h.k.) 100 kishigacha, ayrimlarida (masalan, mashinasozlik, metallurgiya, yoqilg'i-energetika sanoati va boshqalarda) 50 kishigacha, xizmat ko'rsatish sohasida 25 kishigacha ishlovchi korxonalar kichik biznes sub'ektlari hisoblanadi.

Xususiy tadbirkorlik-bu fuqarolar (alohida fuqarolar) tomonidan o'zlarining tavakkalchiliklari va mulkiy javobgarliklari ostida, shaxsiy daromad (foyda) olish maqsadida amaldagi qonunchilik doirasida amalga oshiriladigan tashabbuskor xo'jalik faoliyatidir.

Kichik korxonalar-mustaqil xo'jalik faoliyatini olib boruvchi, o'z balansiga ega bo'lgan, soliqlar va boshqa to'lovlarni to'lagandan so'ng qolgan foydasini o'zi taqsimlaydigan korxonalar.

Mikrofirma–kichik biznes korxonasining bir turi. Mamlakatimizda sanoat ishlab chiqarishning tarmoqlarida 20 kishigacha, xizmat ko'rsatish sohasida 10 kishigacha, savdo va umumiy ovqatlanish sohasida 5 kishigacha ishlovchi korxonalar mikrofirmalar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 11 martdagi PK-1501-sonli "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga kredit berishni ko'paytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, tijorat banklarining imtiyozli kredit berish maxsus jamg'armasi mablag'lari

xisobidan kreditlar berishdan oladigan daromadlari 2011 yil 1 apreldan boshlab 2016 yilning 1 yanvariga qadar foyda solig'idan ozod qilinishi kichik biznes sub'ektlarini imtiyozli kreditlash hajmini kengaytirish imkonini yaratdi.

Kichik ishlab chiqarishda xususiy biznes boshchilik qilishi, shu bilan birga xususiy ishni tashkil qilish va uni taraqqiyot topishi ancha murakkab jarayon xisoblanadi. Shunga qaramasdan faqat keyingi yillarda dunyo bo'yicha millionlab yangi korxonalar bunyod etilmoqda. Har qanday yangi tadbirkorlik sub'ektini faoliyati insonning o'z hayot tarzini keskin o'zgartirishi va ishbilarmon bo'lishga ishtiyoq sabab bo'ladi. S.G'ulomovning "Tadbirkorlik va kichik biznes" (T-2002) kitobida tadbirkorlik taraqqiyotini ta'minlovchi asosiy omillar quyidagilardan iborat deb ko'rsatadi.

1. Xalq xo'jaligi tarmoqlarining bozor munosabatlariga o'tishi va iste'mol bozorining yaratilishi, bu manfaat talab doirasini kengaytiradi hamda faqat ommaviy talabdagi tovar va xizmatlarga bo'lgan extiyojni yaratib qolmay balki individual talab bo'lgan narsalarga extiyojni ham tug'diradi. Bunday talab va extityojlarni tez va sifatli qilib faqat kichik tadbirkorlik sub'ektlari qondira oladi.

2. Tadbirkorlarning yuzaki, xuquqi va iqtisodiy manfaatlarining ximoyalanishiga xuquqiy va davlat tarkibidagi idoralar kafolatining mavjudligi.

3. Tadbirkorlikning davlat tomonidan soliq, moliyaviy kredit va boshqa jarayonlardagi siyosati orqali munosib qullab quvvatlashi.

4. Davlat va (mahalliy o'zini-o'zi boshqarish) korxonalarini davlat tasarrufidan chiqarish, xususiylashtirish va kichik firmalarni bunyod etish:

5. Kamdaromad, past rentabellik va zarar ko'rib ishlovchi korxonalarining bankrotlikka uchrashishining aniqligi va ular asosida xususiy kichik korxonalar tashkil etish:

6. Davlatning ijtimoiy-siyosiy jihatdan barqaror holati:

7. Jamiyatning tadbirkorlik to'g'risidagi ijobiy fikri:

8. Ishbilarmonlikning tashkiliy-xuquqiy shaklini to'g'ri tanlash:

Bozor iqtisodiyoti infrastrukturasi ya'ni turli innovatsion markazlar, banklar, birjalar, sug'urta kompaniyalar, reklama agentliklari kabilarni tezlik taraqqiy topishi:

Tadbirkorlik faoliyati maqsadi, turi va yo'nalishlariga qarab tadbirkorlik faoliyatining ishlab chiqarish, tijorat, moliyaviy va konsalting turlarini ajratish mumkin.

Qishloq xo'jaligi amaliyotidagi quyidagi tadbirkorlikni tashkiliy-xuquqiy shakllari keng tarqalgan:

1. Fermer xo'jaliklari
2. Dehqon xo'jaliklari
3. Davlat mulkiga asoslangan firmalar
4. Qishloq xo'jaligi tarmog'iga xizmat ko'rsatuvchi infratuzilma soha sub'ektlari. Bularga agrokimyo xizmatlari, selektsiya xizmatlari, urug'chilik, o'simliklarni ximoya qilish, MTP va boshqa shu kabilar kiradi.

Har bir korxonada ishlab chiqarish jarayonida ishlab chiqarish resurslaridan foydalangan holda mahsulot yaratadilar, Mahsulot ishlab chiqarish jarayonida sarf qilgan moddiy resurslar (asosiy vositalarning eskirishi, xom ashyo va materiallar, ehtiyot qismlar va boshqalar) va jonli mehnat sarfi ishlab chiqarish xarajatlarini tashkil etadi.

Mehnat resurslarining ish bilan ta'minlash, ularning mehnati unumdorligini oshirish maqsadida respublika Prezidenti I.Karimov sanoatni qishloqqa olib borish zarurligini asoslagan holda isbotlamoqdalar. SHu maqsadda uzoqqa mo'ljallangan turli xildagi chora-tadbirlar ishlab chiqilib, ularni bosqichma-bosqich amalga oshirishga alohida e'tibor berilmoqda.

Iqtisodiy rivojlangan davlatlarda, ya'ni AQSH, Germaniya, Fransiya, Ispaniya, Gollandiyada qishloq xo'jaligida jami axolisining 3 foizdan 10 foizgacha bo'lgan qismi faoliyat ko'rsatmoqda. Ular mehnatining unumdorlik darajasi nixoyatda yuqori. Ularda faoliyat ko'rsatayotgan har bir kishi 120 nafargacha kishini qishloq xo'jalik mahsulotlari bilan ta'minlamoqda.

Respublikamiz miqyosida bu ko'rsatkich darajasi hozirgi davrda ancha past. Demak, uni yuksaltirishga alohida e'tibor berish lozim. Tadbirkorlik sub'ektlarining mol-mulkiga: binolar, inshootlar, qishloq xo'jaligi ekinzorlari va ko'chatlari, dov-daraxtlar, chorva mollar, parrandalar, yetishtirilgan mahsuloti, qishloq xo'jalik texnikasi, inventar, asbob-uskunalar, transport vositalari, pul mablag'lari, intellektual mulk ob'ektlari, shuningdek, korxonalarining balansidagi boshqa mol-mulklar kiradi.

Tadbirkorlik sub'ektlarining mol-mulkni shakllanish manbalari quyidagilar: Ta'sischi'larning pul moddiy mablag'lari; mahsulot (ishlar, xizmatlar) realizatsiyasidan, shuningdek, faoliyatining boshqa turlaridan olingan daromatlar; qimmatli qog'ozlaridan olingan daromadlar; kreditlar; yuridik va jismoniy shaxslarning beg'araz xayriya va boshqa badallari, exsonlari; qonunlarda taqiqlanmagan boshqa manbalar.

Tadbirkorlik sub'ektlarining zarur mol-mulkni va ishlab chiqarish vositalarini birjalarda, yarmarkalarda, bozorlarda yuridik va jismoniy shaxslardan sotib oladi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining mol-mulklariga bino, inshootlar, texnika vositalari va boshqa shu kabilar kirib, ulardan samarali foydalanish yo'llariga:

- mavjud texnika vositalaridan intensiv foydalanish;
- bino - inshootlarini o'z vaqtida ta'mirlab borish;
- texnika vositalarining yuk ko'tarish qobiliyatidan maksimal foydalanish;
- mavjud transport vositalaridan oqilona foydalanish va boshqalar kiradi.

Aylanma mablag'lar deb, bir ishlab chiqarish jarayonida qatnashib, o'z qiymatini butunlay boshqa yangi mahsulotga o'tkazadigan mehnat buyumlariga aytiladi. Masalan, urug'lik, o'g'it, yonilg'i, yem-xashak, materiallar va x.k.

Aylanma fondlar ish jarayonida ikki xil bo'lib, birinchidan, ishlab chiqarish jarayoniga hozircha qatnashmagan, o'zliksiz ishlab chiqarishni ta'minlash uchun zaxiradagi mehnat buyumlari; ikkinchidan, ishlab chiqarishda qatnashib, o'z qiymatini yangi mahsulotga o'tkazuvchi vositalardir.

Aylanma fondlar aylanishi qancha sekin bo'lsa ishlab chiqarish samaradorligi shuncha past bo'ladi. Kichik korxonalarda uzluksiz ishlashi uchun aylanma fondlari bilan bir qatorda muomala fondlariga ega bo'lib, muomala fondlariga-realizatsiya qilishdan tushgan pullar, aylanma vositalarini sifatli ishlatish, tashish, saqlash uchun ketadigan xarajatlardan tashkil topadi. Aylanma fondi va muomala fondi birgalashib, korxonaning aylanma mablag'ini tashkil etadi. Aylanma mablag'ning 75-80 % i aylanma fondini tashkil etadi.

Tadbirkorlik sub'ektining moddiy - texnika resurslari deganda, korxonaning mavjud barcha asosiy fondlari va xo'jalik inventarlari tushuniladi.

Hozirgi sharoitda xo'jalik yurituvchi subektlarining vujudga kelish va rivojlanishning asosiy shartlaridan biri uning samaradorligi darajasi bilan belgilanadi. Samarali xo'jalik yurtish raqobatli bozor muxitida xo'jalikning yashovchanligi va taraqqiyotini belgilab beruvchi eng asosiy omillardan biri hisoblanadi. Shu bilan birga ishlab chiqarish jarayonida foydalaniladigan iqtisodiy resurslar (er, kapital, mehnat va shu kabi boshqalar) cheklangan xarakterga ega bo'lib, bu holat ulardan imkoni boriga unumli, samarali foydalanishni talab etadi.

Samaradorlik muammosi tovar ishlab chiqaruvchilarning ishlab chiqarish resurslaridan maksimal darajada tejab-tergab foydalanish bilan bog'liq. Bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbirkorlik faoliyati fermerning bir o'zining tavakkalchiligi, xatarlarning borligini ko'ra-bila turib ish tutish zaruriyatidan kelib chiqadigan bir paytda samaradorlik ahamiyati ortadi.

Samaradorlik va iqtisodiy samaradorlik to'g'risida iqtisodchilar tomonidan turlicha ta'riflar keltiriladi. Toshkent Davlat iqtisodiyot universitetining professorlari Salimov B, Berkinov B. Xamdamov Q va boshqalar tomonidan tayyorlangan "Dehqon va fermer xo'jaliklari iqtisodi" nomli o'quv qo'llanma (T-2004:-134-bet)da ishlab chiqarish samaradorligi juda murakkab iqtisodiy kategoriya ekanligi izoxlanadi . Ob'ektiv iqtisodiy qonunlar, ijtimoiy ishlab chiqarishning asosini ifoda etuvchi natijani, ya'ni oqibatni aks ettiradi. Oqibat yoki natija xar qanday faoliyatning maqsadidir. Samara tushunchasi bilan iqtisodiy samara tushunchasini farqlash kerak.

Samara bu - keng tushuncha bo'lib, xar qanday tadbir yoki faoliyatning natijasida, o'g'itlardan foydalanish samarasi, ekinlar xosildorligini oshishida, yem-xashak samaralar va maxsuldorligi oshishida ifodalanadi. Ammo bu samara, ya'ni xosildorlik va maxsuldorlikning oshishi bu tadbirlar qanchalik foydaliligini ko'rsatmaydi.

Respublikada iqtisodiyotning tez va barqaror o'sishi tanlangan yo'lning naqadar samarali va hayotiyiligini ko'rsatdi. Amalga oshirilayotgan tizimli choralar mamlakatda global iqtisodiy inqiroz oqibatlarini yengib o'tish, iqtisodiyotning real sektorida tezkor va izchil o'sishini ta'minlashga xizmat qilyapti.


Ma'lumki, bugungi kunda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik o'zining iqtisodiyotdagi o'ta muhim va salmoqli xissasi o'rni va katta ahamiyati bilan davlat va jamiyatimiz rivojida alohida o'rin egallaydi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda ishlab chiqarish faoliyatini tashkil etish va moliyaviy mablag'larni jalbetish muxim xisoblanadi.

Kichik korxonalarda tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish va yuritish uchun moliyaviy mablag'larni jalb etish quyidagi 1-chizmada aks ettiriladi.

1-chizma.

Tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish va yuritish uchun zarur moliyaviy mablag'larni jalb qilish yo'llari.



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti "Bank tizimini yanada erkinlashtirish va isloh qilish borasidagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2000 yil 21 martdagi PF 2564 sonli farmonini bajarish hamda tijorat banklarining kichik biznesni, xususiyl tadbirkorlikni rivojlantirishda faol qatnashishini yanada rag'batlantirish maqsadida Vazirlar mahkamasining "Tijorat banklari tomonidan kichik tadbirkorlik sub'ektlariga, dehqon va fermer xo'jaliklariga imtiyozli kredit berish maxsus jamg'armasi xisobidan kredit berish tartibi to'g'risida" va "Tijorat banklari tomonidan imtiyozli kredit berish maxsus jamg'armasini shakillantirish tartibi to'g'risida"gi nizomlarining tasdiqlanishi ana shu soha rivoji yo'lida tashlangan muhim qadam bo'ldi.

"Tijorat banklari tomonidan kichik tadbirkorlik sub'ektlariga dehqon va fermer xo'jaliklariga imtiyozli kredit berish maxsus jamg'armasi xisobidan kredit berish tartibi to'g'risida"gi nizom sub'ektlarining iqtisodiyotimizdagi ulushini ko'paytirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan. SHuningdek, ushbu nizom orqali banklar tomonidan kichik biznes va xususiyl tadbirkorlik sub'ektlariga, mikro firmalarga, kichik korxonalariga, dehqon va fermer xo'jaliklariga imtiyozli kredit berish maxsus jamg'armasi mablag'lari xisobidan kredit berish qoidalari tartibga solinadi.

"Tijorat banklari tomonidan imtiyozli kredit berish maxsus jamg'armasini shakillantirish tartibi to'g'risida"gi nizom esa tijorat banklari tomonidan imtiyozli kredit berish maxsus jamg'armasini shakillantirish tartibini va bu jamg'armalarga banklar foydasidan ajratmalar normalarini belgilaydi.

Yuqorida ta'kidlab o'tilgan qarorlardan Hukumatimiz tomonidan kichik tadbirkorlikni rivojlantirishda tijorat banklari faoliyatini yanada yuksaltirishga alohida e'tibor qaratilganini ko'rishimiz mumkin.

Taxlil qilib ko'rilganda, tijorat banklari sof foydasidan imtiyozli kreditlash fondini shakillantirish uchun mablag' yo'naltirilib, shu fond xisobidan imtiyozli kreditlar berish orqali quyidagi afzalliklarga erishish mumkin:

Eng avvalo, imtiyozli kreditlar fondini shakllantirish orqali bank kapitalini oshishiga erishiladi. O'z-o'zidan ma'lumki, bank kapitalining o'sishi mijozlar va boshqa investorlarning bankka bo'lgan ishonchining yanada oshishiga olib keladi.

Shu bilan birga, tijorat banklari, boshqa xo'jalik sub'ektlari kabi, o'zining xo'jalik va tijorat faoliyatini ta'minlash uchun muhim miqdorda pul mablag'lariga, ya'ni resurslariga ega bo'lishi lozim. Imtiyozli kreditlash fondini tashkil etish orqali bank resurslarining bankdan chiqib ketishining oldini olinadi. Iqtisodiyot rivojlanishiga zamonaviy talablariga bank resurslarini tashkil etish muammosi bank faoliyatini bir maromda olib borish uchun birinchi darajali xisoblanadi. Hozirgi davrda tijorat banklari tomonidan bo'sh pul resurslari o'rtacha xisobda yillik 8-9 foiz ustama to'lash sharti bilan jalb qilinib kelmoqda.

Bundan ko'rinib turibdiki, bank sof foydasining 25 foiz miqdoridagi summani imtiyozli kreditlash fondini tashkil etishga imtiyozli kredit fondining 8-9 miqdorda jalb qilingan resurslarga qilinishi lozim bo'lgan bank xarajatlarining iqtisod qilib qolinishiga erishiladi.

Shuningdek, shakllangan fond resurslarining imtiyozli 6 foiz ustama to'lash sharti bilan kredit berish orqali qo'shimcha ravishda bank foydasining oshishiga erishiladi.

Undan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentini 2011 yil 11- martdagi "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga kredit berishni ko'paytirishga oid qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida"gi PQ-1501 sonli qaroriga asosan, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va Moliya vazirligini tijorat banklarining imtiyozli kredit berish maxsus jamg'armasi resurslari xisobidan kreditlar berishdan olinadigan tijorat banklarining daromadlari bo'shaydigan mablag'larini mazkur jamg'armaning resurs bazasini oshirishga maqsadli yo'naltirish sharti bilan, yuridik shaxslar foydasidan to'lanadigan soliqdan 2011 yil 1 apreldan boshlab 2016 yilning 1-yanvarigacha ozod etish taklifi qabul qilingan. Shu munosabat bilan, fond xisobidan ajratilgan kreditlarning 0,9 foiz miqdorida foyda solig'i to'lovi xarajati iqtisod qilinib qolinadi.

2-BOB. Agrar tarmoqni modernizatsiyalashtirish sharoitida Jalaquduq tumani O'simliklarni himoya qilish otryadi tadbirkorlik faoliyatida ishlab chiqarishni tashkil etishni holati va uning iqtisodiy ko'rsatkichlari.

2.1 Jalaquduq tumani O'simliklarni himoya qilish otryadi tadbirkorlik faoliyatini tasnifi.

Jalaquduq tumani O'simliklarni himoya qilish otryadi Jalaquduq tumanining markazida Oxunboboyev shaxar fuqorolar yig'inida joylashgan. Otryad viloyat markazidan 17 kilometr uzoqlikda joylashgan. Jalaquduq tumani O'simliklarni himoya qilish otryadi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 29 martdagi "O'simliklarni himoya qilish xizmati tuzilmasini takomillashtirish va samaradorligini oshirish—chora tadbirlari to'g'risida"gi 1480-sonli qarori, Andijon viloyat Xokimining 2004 yil 3 apreldagi 74-k sonli qarori, hamda Viloyat qishloq va suv xo'jaligi boshqarmasining 2004 yil 5 apreldagi 36 sonli buyrug'iga asosan Jalaquduq tumani Xokimining 2004 yil 6 apreldagi №126-K sonli "O'simliklarni himoya qilish xizmati tuzilmasini takomillashtirish va samaradorligini oshirish chora – tadbirlari to'g'risida"gi qarori asosida davlat tadbirkorlik sub'ekti sifatida tashkil etilgan.

Jalaquduq tumani O'simliklarni himoya qilish otryadi "Agrobank" Aktsiyadorlik Bankining Jalaquduq bo'limida o'z xisob raqamini ochgan bo'lib, bank x/r 20208000404263798001, MFO 00073, soliq to'lovchining INN-205077346 bilan o'z operatsiyalarini amalga oshirib kelmoqda.

Xulosa qilib aytganda Jalaquduq tumani O'simliklarni himoya qilish otryadining joylashgan o'rni qulay bo'lib, kelajakda mahsulotlar ishlab chiqarish, xizmatlar ko'rsatish va fermerlarga yetkazib berish kabilarni amalga oshirishda otryadning asosiy vazifalari quyidagilar:

Tumandagi qishloq xo'jaligiga o'simliklarni kimyoviy va biologik himoya qilish, o'simliklarni kasalliklari, qishloq xo'jaligi zararkunandalari, begona o'tlar va ularning profilaktikasi bo'yicha yagona texnika va texnologiya siyosati o'tkazish;

Zararkunandalar, kasalliklar va begona o'tlarning tarqalish imkoniyatlarini o'rganish va prognoz qilish, qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilarini ximoningkimyoviy va biologik vositalari, stimulyatorlar bilan ta'minlash;

-qishloq xo'jaligi korxonalarini va axolini o'simliklarni ximoya qilish sohasida metodik ta'minlash, qishloq xo'jaligiga xizmat ko'rsatish bo'yicha ishlarni shartnoma asosida amalga oshirish;

-qishloq xo'jaligi ekinlarining o'ta xavfli zararkunandalarining kirib kelishini oldini olish bo'yicha ilmiy asoslangan tadbirlar o'tkazish;

-o'simliklarni ximoya qilish sohasida rahbarlar va mutaxassislarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish.

Jalaquduq tumani O'simliklarni himoya qilish otryadining funktsiyalariga quyidagilar kiradi:

-ilmiy izlanishlar sohasida shartnomaviy aloqalarni rivojlantirish, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida tugallangan ishlanmalarni joriy qilish uchun ilmiy xodimlar va mutaxassislar manfaatdorligi choralarini ishlab chiqish;

-o'simliklarni himoya qilish sohasidagi ilg'or jaxon tajribalarini o'rganish va ularni amaliyotga qo'llash, xalqaro va yetakchi xorijiy tadqiqot markazlari va tashkilotlari bilan hamkorlikni rivojlantirish, ilmiy xodim va mutaxassislarni xorijiy muassalarda malaka oshirishni tashkil qilish;

-qishloq xo'jalik ekinlarining zararkunandalariga, zararlilchigirtkalar, tut porvonasiga qarshi ilmiy asoslangan kurash tadbirlarini o'tkazish, ularga qarshi kurash uchun kimyoviy vositalar zaxirasini yaratish;

-axoli, korxonalar va fermerlarga biologik, kimyoviy va boshqa kurash usullari bo'yicha turli xizmat ko'rsatish, uslubiy va amaliy yordam berish;

-tuman va xo'jaliklar biolaboratoriyalari faoliyati ustidan uslubiy raxbarlikni amalga oshirish;

-xo'jalik, mulk shakllaridan qat'iy nazar barcha qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarning zararkunanda, kasallik va begona o'tlarga qarshi kurashishda amaliy yordam ko'rsatish;

-tuproq tarkibini, berilayogan mineral o'g'itlar va qo'shimcha ozuqalar sifatini aniqlash, agrokimyoviy ximoya vositalari, o'suvni boshqaruvchi moddalar, defoliantlarga bo'lgan talabini aniqlash va monitoring hamda bashorat ma'lumotlariga ko'ra ularni taqsimlash kabilar.

Jalaquduq tumani O'simliklarni himoya qilish otryadi o'z faoliyatini kolejal yo'l bilan tashkil etib, otryadni viloyat o'simliklarni ximoya qilish markazi direktori tomonidan Tuman xokimining va tuman qishloq va suv xo'jaligi boshqarmasi bo'limi boshlig'ining tavsiyasiga asosan tayinlanadigan direktor boshqaradi.

Otryadning direktori:

- otryadning faoliyatiga umumiy raxbarlikni amalga oshiradi, kundalik vazifalarni xal qiladi, otryadga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirishda shaxsan javobgardir;
- otryadning moliyaviy resurslarining asosiy taqsimlovchisi xisoblanadiva ulardan to'g'ri, oqilona foydalanishni nazorat qiladi;
- xodimlarning javobgarlik darajasini aniqlaydi, belgilangan tartibda rag'batlantirish va jazo choralarini ko'radi, ularning ko'p yillik mehnatlari, o'z vazifalariga chin dildan yondashuvi, vazifalarini sidhidildan bajarganligi uchun lavozimlar bo'yicha belgilagan maoshlariga qo'shimchalar va mukofotlar belgilaydi;
- alohida xizmat ko'rsatgan xodimlarga belgilangan tartibda davlat mukofotlari va faxriy unvonlar bilan rag'batnantirish uchun viloyat o'simliklarni ximoya qilish markaziga taqdim etadi, otryad xodimlarini faxriy yorliqlar. Qimmatbaho sovg'alar yoki pul mukofotlari bilan taqdirlaydi.

Jalaquduq tumani O'simliklarni himoya qilish otryadining davlat ro'yxatidan o'tgan nizomiga muvofiq, uning mulki asosiy vositalar va aylanma mablag'lardan tashkil topadi

Otryad o'z iqtisodiy faoliyatini olib borishda asosan tumandagi faoliyat ko'rsatayotgan 15-ta massivdagi 338-ta fermer xo'jaliklarining 18781,4 gektar

qishloq xo'jalik maydoniga, hamda Jalaquduq paxta tozalash zavodi, Jalaquduq don mahsulotlarini qabul qilish korxonasi, tuman OAJ MTP.si, hamda Qishloqxo'jalikkimyos tashkilotining Jalaquduq bo'limi, Grunch mozor neftta'minoti korxonasi, shuning bilan birgalikda suvdan foydalanuvchilar uyushmalari hamda boshqa xo'jalik yurituvchi sub'ektlar bilan olib boradi.

Otryadga Y.Otajonov 2012 yildan buyon rahbarlik qilib keladi. Ma'lumoti oliy Andijon qishloq xo'jalik institutini 2004 yilda agronomiya fakulteti agronomiya ta'lim yo'nalishi bo'yicha tugatgan. Otryadning xodimlar to'g'risidagi ma'lumotlar quyidagi - jadvalda keltiriladi.

**Jalaquduq tumani O'simliklarni ximoya qilish
otryadi xodimlari ro'yxati**

№	I.F.O	Lavo zimi	Tug'ilgan yili va joyi	Ma'lumoti, mutaxassisligi	Qachon qayerni tamomlagan	Qachonda n shu vazifada ishlaydi
1	Y.Otajonov	Otryad boshlig'i	03.12.1978 yil, Andijon viloyati Jalaquduq tumani	Oliy, Olim-agronom	2000 yil, Andijon qishloq xo'jalik instituti	02.09.2012 yil
2	A.Ashurov	Etakchi mutaxassis	12.08.1976 yil Andijon viloyati Jalaquduq tumani	Oliy, agronom	1999 yil And.Qish.Xo'j. Inst.	3.02.2014 yil
3	A.Umirzakov	Bosh xisobchi	1970 yil Jalaquduq tumani	O'rta maxsus xisobchi	1989 yil Farg'ona maishiy xizmat ko'rsatish texnikumi	2.01.2014 yil
4	D.Adishev	SHartnomalar bo'lim boshlig'i, Iqti sodchi	29.03.1986. yil Andijon viloyati Jalaquduq tumani	Urta maxsus iqtisodchi	2005 yil, Andijon moliya iqtisodiyot kolleji	23.11.2012 yil
5	M.Abduraxmonova	Agronom	1992 yil Jalaquduq tumani	O'rta maxsus agronom	2012 yil Jalaquduq agrosanoat kolleji	1.07.2014
6	U.Xamdamova	Kadrlar bo'limi boshlig'i	1981 yil Qo'rg'ontepa tumani	O'rta maxsus Boshlang'ich talim	2000 yil Jalaquduq pedagogika kolleji	3.01.2011 yil
7	A.Madmarov	Labarant	1971 yil Jalaquduq tuman	O'rta maxsus agronom	1983 yil Qishloq xo'jalik texnikum	3.06.2013 yil
8	F.Kuchkarov	Labarant	1978 yil Jalaquduq tumani	O'rta	1976 yil Buloqboshi Tuman 1-o'rta maktab	2.03.2007 yil
9	A.Abdullaeva	Labarant	1966 yil Jalaquduq tumani	O'rta	1983 yil Jalaquduq tuman 7-o'rta maktab	1.12.2013 yil
10	G.Abduraxmonov	Traktorchi	1960 yil Jalaquduq tuman	O'rta	1978 yil Jalaquduq tuman 1-o'rta maktab	1.06.2010 yil
11	Isroilov SH.	Qorovul	1989 yil Jalaquduq tumani	O'rta	2005 yil Jalaquduq tuman 7-o'rta maktab	01.12.2013 yil
12	Xaydarov Maxmud	Qorovul	1954 yil Jalaquduq tumani	O'rta	1971 yil Jalaquduq tuman 1-o'rta maktab	3.08.2009 yil

Izoh : Jalaquduq tumani O'simliklarni ximoya qilish otryadi ma'lumotlari asosida tuzildi.

Mehnat resurslari mehnat kodeksida quyidagi guruhlarga ajratilgan

1. 15 yoshli o'smirlar
2. 16-55 yoshli ayollar.
3. 16-60 yoshli erkaklar
4. nafaqa yoshida bo'lib mehnat qilish qobiliyatiga ega bo'lgan qariyalar.

O'simliklarni ximoya qilish otryadida mehnat resurslari 12 nafarni tashkil etib, shulardan 3 nafari oliy ma'lumotli bo'lib, qolganlari esa o'rta maxsus va o'rta ma'lumotli xodimlardir.

3-jadval

**Jalaquduq tumani O'simliklarni ximoya qilish
otryadi Markaziy biolaboratoriya xodimlari ro'yxati**

№	I.F.O	Lavozimi	Tug'ilgan yili va joyi	Ma'lumoti, mutaxassisligi	Qachon qayerni tamomlagan	Qachondan shu vazifada ishlaydi
1	Abdullaeva Matluba Jonto'raevna	Yetakchi	1969 yil Jalaquduq tumani	Oliy agronom	1986 yil Qishloq xo'jalik instituti	2.03.2007 yil
2	Mamitova Mo'tabar Yo'ldashevna	Labarant	1961 yil Jalaquduq tuman	Orta maxsus	1986 yil Andijon buxgalteriya texnikumi	3.06.2009 yil
3	Sodiqova Mexrinsa Qo'ziyevna	Labarant	1969 yil Jalaquduq tumani	O'rta	1987 yil Jalaquduq tuman 7-o'rta maktab	1.12.2013 yil
4	Шаробиддинова Нигора	Labarant	1992 yil Jalaquduq tumani	O'rta maxsus	2011 yil Jalaquduq tuman Агросаноат КОЛЛЕЖИ	1.10.2012 yil

Izoh : Jalaquduq tumani O'simliklarni ximoya qilish otryadi ma'lumotlari asosida tuzildi.

Otryad markaziy biolaboratoriyasida mehnat resurslari 3 nafarni tashkil etib, shulardan 1 nafari oliy ma'lumotli ayol bo'lib, qolganlari esa qishloq xo'jaligi sohasida malakaga ega bo'lgan mutaxassislardir.

Jalaquduq tumani O'simliklarni himoya qilish otryadidagi uzoq muddatli aktivlar-asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar bo'linadi:

- a) bir yildan ko'proq foydali xizmat qilish muddatiga ega bo'ladi;

b) ishlab chiqarish, ma'muriy maqsadlar uchun foydalaniladi yoki ijaraga beriladi;

v) sotish uchun mo'ljallanmaydi.

Uzoq muddatli aktivlar o'z navbatida quyidagilarga bo'linadi:

Moddiy aktivlar (asosiy vositalar); jismoniy, tabiiy ko'rinishga ega bo'lgan, uzoq muddatda foydalaniladigan, aktivlar; yerlar, binolar, inshootlar, uskunalar, tabiiy resurslar va shunga o'xshashlar.

Asosiy vositalar quyidagi guruhlariga bo'linadi:Er;

1. Yerni obodonlashtirish;
2. Bino va inshootlar;
3. Mashina va uskunalar;
4. Mebel va jihozlar;
5. Kompyuter uskunalari;
6. Transport vositalari va boshqalar;

4-jadval

Jalaquduq tumani O'simliklarni himoya qilish otryadida 2015 yillik Asosiy vositalari haqida ma'lumot. (ming so'm hisobida)

№	Asoiy vositalarning nomlanishi	O'lchov birligi	Miqdori	Summasi	Eskirish normasi	Yillik eskiri sh summasi	Qoldiq summasi
1.	Bino	dona	1	47 831	15	7 174	40 657
2.	Agregat DT-690	dona	1	17 864	15	2 679	15 185
3.	Vodorazdatchik VU-3A1	dona	1	7 987	5	399	7 588
4.	ORPD-12 purkagich	Komp lekt	1	1 923	20	384	1 539
5.	Nasos OVX-600	dona	1	902	15	135	767
6.	Kompyuter	dona	1	720	5	36	684
	Jami			77 227	x	10 807	66 420
7.	Televizor	dona	1	200	15	30	170
	Boshqa asosiy vositalar						
	jami			2308,5	x	346	19625
	xammasi			79535,5	x	11153	68 382,5

Izoh : Jalaquduq tumani O'simliklarni ximoya qilish otryadi moliyaviy ma'lumotlari asosida tuzildi.

Mamlakatimiz qishloq xo'jaligida tadbirkor va ishbilarmon dehqonlar boshqarayotgan fermer xo'jaliklarni yanada rivojlantirish maqsadida davlat miqyosida iqtisodiy qo'llab quvvatlashning to'g'ri mexanizmlari hayotga joriy etish tadbirlari ishlab chiqarib hayotga tadbiiq etlmoqda. Bular jumlasiga O'zbekiston Respublikasining "Erkin tadbirkorlik faoliyati kafolatlari to'g'risi"dagi va 1998 yil 29 avgustdagi qabul qilingan "Xo'jalik yurutuvchi subektlar faliyatining shartnomaviy xuquqiy bazasi to'g'risidagi" qonuni, xamda boshqa moliyaviy-me'yoriy xujjatlardir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Fermer xo'jaliklarining xizmat ko'rsatuvchi va boshqa korxonalar bilan bo'ladigan iqtisodiy munosabatlari shartnoma asosida amalga oshirilib borilmoqda.

Fermer xo'jaliklari paxta, g'alla, meva, sabzavot, poliz, go'sht, sut va boshqalar qishloq xo'jalik maxsulotlari yetishtiradigan iste'molchiga yetkazib berish jarayonida turli tayyorlovchi qayta ishlovchi va servis xizmat ko'rsatuvchi korxonalar, tashkilotlar bilan tuziladigan shartnomalar asosida faoliyat ko'rsatmoqdalar.

Agrar soxada faoliyat ko'rsatayotgan xo'jaliklar xizmat ko'rsatuvchi ta'minotchilar mahsulot sotib oluvchilar va boshqa korxonalar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soladigan xuquqiy xujjat shartnoma xisoblanib uning xar tomon uchun manfaatli bo'lishi lozim.

Respublikamizda fermer xo'jaliklari va xizmat ko'rsatuvchi korxonalarining rivojlantirishini xisobga olib borishda shartnoma munosabatlari va ularning mohiyati xaqidagi tushunchalarni qonuniy rasmiylashtirish muhim xisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi "Fuqarolik kodeksi"da shartnomaviy munosabatlar to'g'risida: "Ikki yoki bir necha shaxslarning fuqaroning xuquqlari va burchlarini vujudga keltirish o'zgartirish yoki bajarish xaqidagi kelishuvi shartnoma deyiladi"-deb izohlanadi.

Yuridik va jismoniy shaxslar xam o'zaro kelishgan holda qonunchilik doirasida bir-birlari bilan shartnoma munosabatlarini amalga oshiradilar.

Bu shartnomaviy munosabatlar xuquqiy jihatdan to'g'ri tuzilishida O'zbekiston Respublikasining fuqoroning qodeksi, "Fermer xo'jaligi to'grisidagi" 2004 yil 26 avgustdagi, "Xo'jalik yurutuvchi subektlar faoliyatining shartnomaviy xuquqiy bazasi to'g'risida"gi qonunlar va Vazirlar Maxkamasining " 2003 yil 4 sentyabrdagi 383-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilar bilan tayyorlov xizmat ko'rsatish tashkilotlari o'rtasida shartnomalar tuzish ularni ro'yxatdan o'tkazish, bajarish, shuningdek ularning bajarilishi monitoringini olib borish tarkibi to'g'risidagi nizomga" asosan tartibga solinadi.

Jalaquduq tumani O'simliklarni himoya qilish otryadida faoliyat soxasidagi shartnomaviy munosabatlar quyidagi asosiy tamoyillarga asoslandi:

- Xo'jalik shartnomalarining tuzishning erkinligi;
- Taraflarning o'zaro manfaatdorligi;
- Shartnoma intizomiga rioya qilishi;
- Taraflarning o'zaro mulkiy javobgarligi.

Shuningdek xo'jalik shartnomalarida tomonlarning xuquq va majburiyatlari mahalliy davlat xokimiyat organlarining shartnoma munosabatlari soxasidagi vakolatlari, shartnomaga nisbatan qo'yiladigan talablar.

Kontraktatsiya shartnomasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi joylashgan yerda tuzilishi va bunda yetkazib berayotgan qishloq xo'jalik maxsuloti uchun qonun xujjatlarida nazarda tutilgan holda avans to'lovlari xamda boshqa munosabatlar o'z ifodasini topadi.

Xo'jalik shartnomasi bitimlar tuzish uchun nazarda tutilgan yozma shartnomada tuzilib yozma shartnoma tomonlar imzolagan bitta xujjatni tuzish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Xo'jalik shartnomasi taraflarning kelishuviga muvofiq o'zgartirishi va bekor qilinishi mumkin.

Fermer va dehqon xo'jaliklari tomonidan ishlab chiqarilgan maxsulotlarni sotish va xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar bilan bo'ladigan iqtisodiy aloqalarning umumiy xamda va tartiblari "fermer xo'jaligi to'g'risidagi qonunda va ushbu

munosabatlarni Vazirlar Maxkamasining 2004 yil 30 oktyabrdagi 476-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Namunaviy kontraktatsiya shartnomasi”, “Moddiy-texnika resurslari yetkazib berishga namunaviy shartnoma”, “Xizmatlar ko’rsatishga ishlarni bajarishga namunaviy shartnoma” xujjatlarida aks ettirilgan.

Ushbu me’yoriy xujatlarda shartnomaning mazmuni, tomonlarining xuquq va majburiyatlari, mahsulot, resurs, xizmatlarning bahosi va xisob kitob tartibi, xujjatlarning javobgarligi, nizolarni ham bartaraf etish tartibi, shartnomaning amal qilishi, yakuniy qoidalar, tomonlarning manzili va bank rekvizitlari xaqida yoziladi. Bu xujjatlarni foydalanishda xar bir fermer mahsulot, resurs va xizmat turlari bo’yicha aloxida shartnomalar tuzadi, xamda o’ziga xos xususiyatlarni xisobga olgan holda tegishli o’zgartirishlar kiritadi.

Tadbirkorlik faoliyati sub’ekti sifatida Jalaquduq tumani O’simliklarni himoya qilish otryadi quyidagi majburiyatlarni o’z zimmasiga oladilar:

- o’zlari tuzgan shartnomalardan kelib chiqadigan majburiyatlarni bajarishlari;
- yollash asosida jalb etilgan xodimlar bilan o’z vaqtida hisob-kitob qilishlari;
- xavfsizlik, ekologiya, sanitariya, gigiyena va mehnatni muhofaza qilish talablariga rioya etishlari;

- realizatsiya qilinadigan tovarlar uchun qonun hujjatlariga muvofiq sertifikatlariga ega bo’lishlari kabi majburiyatlarni oladi.

Shartnomaviy munosabatlardan kelib chiqqan holda korxonaning biznes rejasi tuziladi.

2.2 Jalaquduq tumani O'simliklarni himoya qilish otryadida biomahsulotlar ishlab chiqarishni tashkil etishni hozirgi holati va uning taxlili.

Jahondagi ko'plab mamlakatlarda moddiy va moliyaviy resurslar cheklangan hozirgi sharoitda qishloq xo'jaligidagi iqtisodiy islohatlarni izchil chuqurlashtirish, fermerlik xarakterini yanada qo'llab-quvvatlashga uning moddiy va moliyaviy bazasini mustaxkamlash orqali qishloq xo'jalik mahsulotlarini ko'paytirish, uning tannarxini pasaytirish bo'yicha belgilangan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Jalaquduq tumani O'simliklarni himoya qilish otryadida tadbirkorlik faoliyatini iqtisodiy samaradorligi daromadlar bilan xarajatlarni taqqoslash, asoslash asosida aniqlanadigan murakkab va ko'p qirrali iqtisodiy kategoriya bo'lib uni shakllanishida ko'p omillar ta'sir ko'rsatadi. Uni oshirish mavjud resurslardan tejab-tergab foydalanish asosida amalga oshirish kerak.

Ishlab chiqarish resurslari o'zlarining xarakteriga qarab tabiiy-iqtisodiy, mehnat, moddiy-texnika resurslariga bo'linadi. Tabiiy resurslarga qishloq xo'jaligida yer, suv, tabiiy o'tloqlar va shu kabilar kiradi.

Iqtisodiy resurslar korxonada asosiy va aylanma fondlar shaklida namoyon bo'lib ular inson mehnati bilan yaratiladi. Asosiy fondlarga binolar, inshootlar kuch beruvchi va uzatuvchi mashinalar va asbob-uskunalar texnika va qishloq xo'jalik mashinalari kabi moddiy buyumlar kiradi. Asosiy vositalar ishlab chiqarish jarayonida to'la qatnashib o'z qiymatini tayyor maxsulotga ishlab chiqarish tsikllari davomida qisman o'tkazib o'zini oldingi shakllini saqlab qoladi. Jalaquduq tumani O'simliklarni himoya qilish otryadi faoliyatini rejalashtirishdan asosiy maqsad bu: tovar massasini belgilangan hajmda sotishga erishish, foyda olish va bozor ulushiga erishishdir.

Bashoratlash -milliy iqtisodiyotning va mintaqani alohida sohalarini rivojlanish istiqbolini o'rganishni o'z ichiga oladi.

Vazifalarni belgilash Umumiy vazifalarni belgilash, bashorat asosida amalga oshirilib, ularni bajarishni taxminiy muddatlarini qo'yadi va resurs ta'minotini aniqlaydi.

Rejani korrektirovka qilish. Dasturlash bosqichida rejani bajarish muddatlari aniqlashtiriladi. Dasturning alohida bosqichlari, ishlab chiqarish va sotish operatsiyalari bilan o'zaro muvofiqlik amalga oshiriladi.

Byudjet tuzish Bo'limlar o'rtasidagi resurslar taqsimotini va turli byudjetlar tuzish asosida dasturlash amalga oshiriladi.

Rejani aniqlashtirish. YAKunlovchi bosqich-bu aniq ishlab chiqilgan qarorlarni quyi zvenolarga tarqatish. SHu daqiqadan rejani amalga oshirish boshlanadi.

Jalaquduq tumani O'simliklarni ximoya qilish otryadida biomahsulotlar yetishtirish uchun dastlab xarajatlar tarkibi bo'yicha kalkulyatsiya qilinadi va bir birlik mahsulotlar tannarxi aniqlanadi.

Kalkulatsiya — tannarxni aniqlash demakdir. Tannarx deganda mahsulot tayyorlash yoki xizmat ko'rsatish uchun ketgan xarajatlarning puldagi ifodasi tushuniladi.

Ushbu usuldan korxonalar mulklaridan ba'zilarining hisobini yuritishda foydalaniladi. Masalan, ishlab chiqarilgan mahsulot, material tannarxini aniqlash.

Kalkulatsiya orqali mahsulot tannarxi aniqlanadi va foyda miqdori aniqlanishi uchun asos hisoblanadi. Bundan ko'rinib turibdiki, kalkulatsiya, tannarx va xarajat so'zlari o'zaro bog'langandir. SHuning uchun xarajatlar va ularning iqtisodiy mazmuni, guruhlanishi to'g'risida tushunchaga ega bo'lish maqsadga muvofiqdir. «Mahsulot (ishlar, xizmatlar) ni ishlab chiqarish va uni sotish bilan bog'liq xarajatlar tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllanish tartibi to'g'risida»gi nizomga asosan xarajatlar ishlab chiqarish va davr xarajatlariga bo'linadi. Ishlab chiqarish xarajatlari ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxini tashkil etadi. Davr xarajatlari korxonaning foyda yoki zararlari hisobidan qoplanadi.

Kalkulatsiya orqali mahsulot tannarxi aniqlanadi va foyda miqdori

aniqlanishi uchun asos hisoblanadi. Bundan ko'rinib turibdiki, kalkulyatsiya, tannarx va xarajat so'zlari o'zaro bog'langandir. SHuning uchun xarajatlari va ularning iqtisodiy mazmuni, guruhlanishi to'g'risida tushunchaga ega bo'lish maqsadga muvofiqdir.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 1999 yil 5 fevraldagi 54-sonli qarori bilan tasdiqlangan, xamda 2003-yilda o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan

«Mahsulotlarni ishlab chiqarish va sotish harajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risidagi Nizom»da keltirilgan.

Mazkur Nizomga muvofiq barcha xarajatlari quyidagilarga guruhlanadi:

- mahsulotning ishlab chiqarish tannarxiga kiritiladigan xarajatlari:

a) bevosita va bilvosita moddiy xarajatlari;

b) bevosita va bilvosita mehnat xarajatlari;

v) boshqa bevosita va bilvosita xarajatlari, shu jumladan, ishlab chiqarish xususiyatlariga ega bo'lgan ustama xarajatlari xisobga olinadi.

Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ning ishlab chiqarish tannarxini hosil qiluvchi xarajatlari ularning iqtisodiy mazmuniga ko'ra quyidagi elementlar bilan guruhlarga ajratiladi:

- ishlab chiqarish moddiy xarajatlari

- ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lgan mehnatga haq to'lash xarajatlari;

- ishlab chiqarishga tegishli bo'lgan ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar;

- asosiy fondlar va ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo'lgan nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi;

- ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo'lgan boshqa xarajatlari kiradi.

«Mahsulot (ishlar, xizmatlar) ni ishlab chiqarish va uni sotish bilan bog'liq xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllanish tartibi to'g'risida»gi nizomga asosan xarajatlari ishlab chiqarish va davr xarajatlari bo'linadi.

Mahsulot (ish va xizmatlar) tannarxini aniqlash usullari ularning turlari, mahsulot ishlab chiqarish xili, uning murakkabligi, tugallanmagan ishlab chiqarish mavjudligi, ishlab chiqarish tsiklining davomiyligi, tovar-moddiy

nomenklaturasiga bog'liqdir. Mahsulot (ishlar, xizmatlar) tannarxini aniqlashning asosiy usullari bo'lib: oddiy, me'yoriy, buyurtmali, bosqichli usullar hisoblanadi, savdo tashkilotlarida esa xarajatlarni inventar baholash usullari ham qo'llaniladi.

Jalaquduq tumani O'simliklarni himoya qilish otryadida 2015 yilda Andijon viloyat Me'yorlashtirish tadqiqot markazi tomonidan 2015 yil 16.01 da tasdiqlangan va Andijon viloyati O'simliklarni ximoya qilish markazi direktori A.Qo'ldoshev tomonidan kelishilgan biomahsulotlar ishlab chiqarish bo'yicha rejali tannarx quyidagi jadvallarda keltiriladi

5-jadval

1. Tsitotroga (450 gramm tsitotroga uchun) olish uchun.

№	Xarajatlar nomi	O'lchov birligi	miqdori	Narxi (so'm)	Summasi (so'm)
1.	Arpa	kg	100	450	45 000
2.	TSitotroga urug'i	gramm	100	400	40 000
3.	SHakar	kg	2	3 000	6 000
4.	Elektr energiya	kvt	74,2	91	6752,2
5.	Gaz	M.kub.	180	104	18720
6.	Ish xaqi	so'm	30	4700	141000
7.	Ish xaqidan ajratma	%	x	x	35250
	Jami ishlab chiqarish xarajatlari	x	x	x	292 722,2
8.	Rentabellik	24%	x	x	70 253,3
9.	Ishlab chiqarish tannarxi	x	x	x	362 975,52

Izox: 1-gramm tsitotroga narxi $(362975,53/450)= 806,6$ so'm

Keltirilgan 5-jadvalda 450 gramm tsitotroga olish uchun sarflanadigan xom –ashyo va materiallar sarfi keltirilgan bo'lib, bunga shakar, elektr energiya, gaz va ish xaqi kabilar keltirilgan bo'lib, 450 gramm tsitotroga yetishtirish uchun 806,6 so'm xarajat sarflanishi keltirilgan. Biomahsulot ishlab chiqarishda 24 foizli retabellik belgilangan.

6-jadval

2.Trixonogramma olish uchun. (7-kunda)

№	Xarajatlar nomi	O'lchov birligi	miqdori	Narxi (so'm)	Summasi (so'm)
1.	TSitotroga	gramm	100	806,6	80661,2
2.	Material	metr	1	600	600
3.	Elektr energiya	kvt	26,1	91	2375,1
4.	Gaz	M.kub.	130	104	13520
5.	Ish xaqi	so'm	1	70 000	70 000
6.	Ish xaqidan ajratma	%	x	4700	17 500
	Jami ishlab chiqarish xarajatlari	x	x	x	184 656,3
7.	Rentabellik	24 %	x	x	44 317,5
8.	Ishlab chiqarish tannarxi				228 973,85

Izoh : 1-gramm trixonogramma narxi(228 973,85/138,7)= 1651so'm.

2014 yil uchun 1-gektarga trixonogramma narxi 1651 so'm

Keltirilgan 6-jadvalda Trixonogramma olish uchun sarflanadigan xom –ashyo va materiallar sarfi keltirilgan bo'lib, bunga elektr energiya, gaz va ish xaqi kabilar keltirilgan bo'lib, 1-gramm Trixonogramma olish uchun yetishtirish uchun 1651 so'm xarajat sarflanishi keltirilgan. Biomahsulot ishlab chiqarishda 24 foizli retabellik belgilangan.

3.brabrakon olish uchun xarajatlar (Mum kuya qurtini boqish uchun.)

7-jadval

No	Xarajatlar nomi 10 000 dona qurt olish uchun	O'lchov birligi	miqdori	Narxi (so'm)	Summasi (so'm)
1.	Mum kuya qurti	dona	1000	10	1000
2.	Maka jo'xori uni	kg	4	1000	4000
3.	SHakar	kg	3	3000	9000
4.	Sut	litr	3	300	900
5.	Merva	kg	4	1500	6000
6.	margarin	kg	0,6	2500	1500
7	Guruch	kg	3	2500	7500
8	makaron	kg	3	1500	4500
9	Olma qoqi	kg	3	900	2700
10	Gaz	Metr.kub.	325	104	33800
11	Elektr energiya	kvt	34	91	3094
12	Ish xaqi	so'm	1	67500	67500
13	Ish xaqidan ajratma	25%	-	-	16875
	Jami ishlab chiqarish xarajatlari	x	x	x	167369
7.	Rentabellik	24 %	x	x	40168,6
8.	Ishlab chiqarish tannarxi	x	x	x	207 537,6

Izoh : 1-dona boqilgan qurt narxi(207537,6/10000) = 20,75so'm

4.brabrakon ko'paytirish uchun xarajatlar (15-kunda .)

8-jadval

No	Xarajatlar nomi 2500dona gabrabrakon uchun	O'lchov birligi	miqdori	Narxi (so'm)	Summasi (so'm)
1.	Mum kuya qurti	dona	1000	20,75	20750
2.	asal	gramm	0,2	10000	2000
3.	Shakar	gramm	0,2	3000	600
4.	Gaz	Metr.kub.	70	104	7280
5.	Elektr energiya	kvt	24	91,0	2184
	Jami ishlab chiqarish xarajatlari	x	x	x	32814
6.	Rentabellik	24%	x	x	7875,4
7	Ishlab chiqarish tannarxi	x	x	x	40689,4

Izox : 1-dona brakon narxi (40689,4/4315) = 9,43so'm.

1 gektarga brabrakon 300 dona *9,43 = 2829 so'm

5. Oltinko'z ko'paytirish uchun xarajatlar(30 -kunda .)

9-jadval

№	Xarajatlar nomi 100 dona kapalak olish uchun	O'lchov birligi	miqdori	Narxi (so'm)	Summasi (so'm)
1.	Tsitotroga	gramm	10	806,6	8066
2.	Arpa	kg	10	450	4500
3.	I/chiqarish xarajatlari	so'm	x	x	12566
4.	I/chiqarish tannarxi	so'm	x	x	12566

Izox: 1 dona kapalak narxi $(12566/100) = 125,66$ so'm

6.Oltinko'z tuxumini olish uchun xarajatlar. (6000dona oltinko'z tuxumini olish uchun)

10-jadval

№	Xarajatlar nomi	O'lchov birligi	miqdori	Narxi (so'm)	Summasi (so'm)
1	Oltin ko'z kapalagi	Dona	100	125,66	12566
2.	Mum kuya qurti	dona	300	20,75	6225
3.	asal	gramm	0,2	10000	2000
4.	Material	metr	3	600	1800
5.	Gaz	Metр.kub.	104	104	10816
6.	Elektr energiya	kvt	50	91,0	4550
7	Ish xaqi	so'm	1	7000	7000
8	Ish xaqidan ajratma	25 %	x	x	1750
	Jami ishlab chiqarish xarajatlari	x	x	x	46707
6.	Rentabellik	25%	x	x	11676,75
7	Ishlab chiqarish tannarxi	x	x	x	58383,75

Izoh : 1 dona oltinko'z narxi $(58383,75/8200) = 7,12$ so'm

O'simliklarni ximoya qilish otryadida aylanma fondlarga urug'lik, yonilg'i moylash materialari, ish haqi, o'g'itlar va shu kabi boshqa materiallar kiradi.

Aylanish jarayonida bir marta qatnashib o'z qiymatini tayyor maxsulotga o'tkazadi, shuning uchun ham asosiy fondlarni eskirgan ya'ni foydalanilgan qismini ishlab chiqarish korxonalarida amortizatsiya ajratmalari shaklida o'z aksini topadi. Foydalanilgan aylanma fondlar esa ishlab chiqarilgan mahsulotlarga o'z qiymatini to'la o'tkazib ishlab chiqarish xarajatlariga o'z aksini topadi.

Jalaquduq tumani O'simliklarni himoya qilish otryadida mahsulot ishlab chiqarish xarajatlarini xisobga olish va taxlil etish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 5 fevraldagi 54-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida"gi Nizomga asosan amalga oshiriladi

Mazkur Nizomga muvofiq barcha xarajatlar quyidagilarga guruhlanadi:

- mahsulotning ishlab chiqarish tannarxiga kiritiladigan xarajatlar:

a) bevosita va bilvosita moddiy xarajatlar;

b) bevosita va bilvosita mehnat xarajatlari;

v) boshqa bevosita va bilvosita xarajatlar, shu jumladan, ishlab chiqarish xususiyatlariga ega bo'lgan ustama xarajatlar xisobga olinadi.

Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ning ishlab chiqarish tannarxini hosil qiluvchi xarajatlar ularning iqtisodiy mazmuniga ko'ra quyidagi elementlar bilan guruhlarga ajratiladi:

- ishlab chiqarish moddiy xarajatlar

- ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lgan mehnatga haq to'lash xarajatlari;

- ishlab chiqarishga tegishli bo'lgan ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar;

- asosiy fondlar va ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo'lgan nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi;

- ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo'lgan boshqa xarajatlar kiritiladi.

Biolaboratoriyada yetishtirilayotgan mahsulotlarga sarflanayotgan moddiy xarajatlar va ularni taxlil natijasini o'rganish korxonaning qanday xolatda ekanligini aniqlashga yordam beradi. Shundan kelib chiqib Jalaquduq tumani

O'simliklarni himoya qilish otryadida biomahsulot ishlab chiqarish xarajatlari va ularni aks ettirishi 11-jadvalda keltiriladi.

11-jadval.

Jalaquduq tumani O'simliklarni ximoya qilish otryadida biomahsulot ishlab chiqarish harajatlari va ularning tarkibi (ming so'm hisobida)

№	Xarajatlar turi	2013	%	2014	%	2015	%
1	Moddiy xarajatlar	7917,7	45,2	15176,6	41,0	13274,4	34,8
	a) bug'doy, arpa uni	1086,0	6,2	2966,5	8,1	3666,0	9,5
	b) meva qoqilari	526	3,0	12223,7	3,3	596,0	2,0
	v)shakar, asalari mumi	3660	21,0	5943,3	16,0	3945,0	10,3
	g)kimyoviy preparatlar	2032,8	11,6	4153,1	11,2	3103,6	8,0
	d) boshqa moddiy xarajatlar	613	3,4	890	2,4	1963,8	5,0
2	Mehnat xaqi xarajatlari	6659	38,0	15203	40,4	16338,9	42,8
3	Ijtimoiy ajratmalar	1598	9,1	3810	10,3	4084,5	10,8
4	Asosiy vositalarni eskirishi	665,9	3,8	2076,6	5,6	3362	8,8
5	Boshqa xarajatlar	683,4	3,9	815,8	2,2	1029,4	2,7
	jami	17524	100	37082,0	100	38089,2	100

Jadval ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki O'simliklarni ximoya qilish otryadida oxirgi uch yilda ishlab chiqarish xarajatlardan moddiy xarajatlarning unumi ancha ko'tarilgan. Bu ijobiy xolat xisoblanadi. Sababi moddiy xarajatlar biomahsulot yetishtirishga ta'sir ko'rsatuvchi omillar kiradi.

O'simliklarni ximoya qilish otryadida 2013 yilda maxsulot ishlab chiqarish xarajatlari 17 mln. 524 ming so'mni, shundan moddiy xarajatlar 7 mln. 917,2 ming

so'mni, mexnat xaqi xarajatalari 6 mln. 659 ming so'mni, ijtimoiy ajratmalar 1 mln.598 ming so'mni tashkil etgan. 2015 yilda jami xarajatlar 38 mln. 89,2 ming so'mni, shundan moddiy xarajatlar 13 mln. 274,4ming so'mni yoki 34,8 foizni, mexnat xaqi xarajatlari 16 mln. 338,9 ming so'mni yoki 42,8 foizni, ijtimoiy ajratmalar 4mln. 84,5 ming so'mni tashkil etgan.

Ishlab chiqarish resurslaridan foydalanish darajasi uning har bir turi uchun alohida iqtisodiy ko'rsatkichlar o'z natijasida natural va qiymat ko'rsatkichlarga bo'linadi. Biz O'simliklarni himoya qilish otryadida ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligini aniqlashda xisobot davrining sof foydasi ko'rsatkichidan foydalandik. U samaradorlikning asosiy yakunlovchi iqtisodiy ko'rsatkich bo'lib, Taqsimlanmagan foyda sifatida takror ishlab chiqarishni kengaytirish uchun moliyaviy manbaasi xisoblanadi.

12-jadval

Jalaquduq tumani O'simliklarni ximoya qilish otryadining moliyaviy natijalar va uning o'zgarishi (ming so'm hisobida)

№	Ko'rsatkichlar	2013-yil	2014-yil	2015-yil	2015y-da2013y-ga nisbatan o'zgarishi +/-
1	Mahsulot (tovar, ish va xizmat) larni sotishdan sof tushum	183330	152012	243797	+60 467
2	Sotilgan mahsulot (tovar, ish va xizmat) larning tannarxi	88 302	80 645	186 047	+97 745
3	Mahsulot (tovar, ish va xizmat) larni sotishning yalpi foydasi	95 028	71 367	57 750	-37 278
4	Davr xarajatlari jami:	82 927	44 930	39 490	-43 437
	shu jumladan: a) sotish xarajatlari	35 982	7 320	9 250	-26 732
	b) ma'muriy xarajatlar	38 075	26 280	28 155	-9 920
	s) boshqa operatsion xarajatlar	8 870	11 330	2 085	-6 785
5	Asosiy faoliyatning foydasi	12 101	26 437	18 260	+6 159
6	Moliyaviy faoliyatning boshqa xarajatlari	9 325	22 670	16 170	+6 845
7	Umumxo'jalik faoliyatining foydasi	2 776	3 767	2 090	-686
8	Hisobot davrining sof foydasi	2 776	3 767	2 090	-686

Izoh: Jalaquduq tumani O'simliklarni ximoya qilish otryadining moliyaviy xisobotlaridan qisqartirib olindi.

Keltirilgan -jadvalda Jalaquduq tumani O'simliklarni ximoya qilish otryadining moliyaviy faoliyati aks ettirilgan bo'lib, 2015 yilda otryad 243 mln.797 ming so'mlik ish va xizmatlar ko'rsatilgan bo'lib, shundan sotilgan mahsulotlar tannarxi 186 mln. 47 ming so'mni, xisobot davrining sof foydasi 2 mln.90 ming so'mni tashkil etgan.

13-jadval

Jalaquduq tumani O'simliklarni ximoya qilish otryadida biomahsulot ishlab chiqarish va uning samaradorligi to'g'risida ma'lumot

№	Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	2013 y	2014y.	2015 y	2015 y.da 2013 nis (+;-)
1	Mahsulot ishlab chiqarish	Ming so'm	30754	65487	67798	+37044
1.1	Shj- brakon	Ming so'm	10764	22920	23729,3	+12965,3
1.2	- trixogramma	Ming so'm	11686	24885	25763	+14077
1.3	- oltinko'z	Ming so'm	8304	17682	18305,7	+10001,7
2	Ishlab chiqaril mahsulot tannarx	Ming so'm	17524	37082	38089	+20565
2.1	-brakon	Ming so'm	6308	13349	13712	+7404
2.2	-trixogramma	Ming so'm	6484	13720	14093	+7609
2.3	-oltinko'z	Ming so'm	4732	10013	10284	+5552
3	Ishlab chiqarish	Ming so'm	13230	28405	29709	+16479
3.1	-brakon	Ming so'm	4456	9571	10017,3	+5561,3
3.2	-trixogramma	Ming so'm	5202	11165	11670	+6468
3.3	-oltinko'z	Ming so'm	3572	7669	8021,7	+4449,7
4	Ishlab chiqarish rentabelligi	%	75,8	76,6	78,0	+2,5

Izoh : Jalaquduq tumani O'simliklarni ximoya qilish otryadi moliyaviy xisobotlari asosida tuzildi.

Jalaquduq tumani O'simliklarni ximoya qilish otryadida biomahsulot ishlab chiqarish va uning samaradorligi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan bo'lib, 2013 yilda 30 million 754 ming so'mlik, 2015 yilda esa 67 million 798 ming so'mlik biomahsulotlar ishlab chiqarilgan bo'lib, ishlab chiqarish rentabelligi 78,0 foizni tashkil etgan.

3-BOB. Agrar tarmoqni modernizatsiyalashtirish sharoitida Jalaquduq tumani O'simliklarni himoya qilish otryadida biomahsulotlar ishlab chiqarish samaradorligini oshirishni takomillashtirish yo'llari.

3.1 Jalaquduq tumani O'simliklarni himoya qilish otryadida biomahsulotlarni ko'paytirish usullari.

Trixogrammani biolaboratoriyalarda ko'paytirish tartibi. Trixogramma biolaboratoriyada chiqarish uchun xampalarga don kuyasi (sitotroga) tuxumlarida ko'paytiriladi va dalaga chiqarish uchun foydalaniladi. Trixogrammani yetishtirish texnologiyasi quyidagicha.

Dastlab sovutkichlarda saqlanayotgan trixogrammadan olib qayta jonlantirish uchun shisha bankalariga joylanada. Bu bankalar xavo xarorati 25-26 S , namligi 75-80% bo'lgan xonalarda saqlanadi. 3-6 kun o'tgach banka ichida trixogramma ucha boshlaydi.

Dastlab yaxshilab yuvilgan, ichki devorlari namlangan uch litirli shisha bankalarga 10 gr sitotroga tuxumlari solinadi va bakani yonboshlantib aylantirib, devorlariga tuxumlar yopishtiriladi. So'ngra bankaning ichiga jonlangan 2 gr trixogramma tushiriladi, uning og'zi qalin mato bilan berkitib qo'yiladi. Oziqlantirish uchun uchgan trixogrammaga 20 foizli shakar qiyomi beriladi. Bankaga zararlash uchun berilgan sitotroga tuxumi miqdori trixogramma bilan zararlangan kun yozilgan yorliq yopishtiriladi. Zararlash davrida shisha bankalar laboratoriyadagi stelojlarga terib qo'yiladi. Bankalar har tomonidan lampalar bilan yoritib turilishi lozim. Buning iloji bo'lmasa bankaning hamma qismiga yorug'lik tushib turadigan qilib oynalar oldiga joylanadi. Oradan 5-6 kun o'tgan, banka ichidagi sitotroga tuxumlari qoramtir tusga kiradi. Shundan so'ng tuxumlar yumshoq cho'tka yoki g'oz pati bilan shisha banka devorlarini oxista sidirib olinadi va ularning miqdori o'lchami qog'oz paketlarga joylab sanasi bilan yozib qo'yiladi.

Yetishtirilgan trixogrammani tezda dalalarga tarqatishning iloji bo'lmasa, uning maishiy sovutgichda (3-10 grs. xarorat, namlik 80-90 %) da 7-10 kun saqlash mumkin.

Trixogrammani diapauzaga (tinim) kiritish. Biolaboratoriyada urchitilayotgan trixogrammani xayoti ko'rsatkichlarni ta'minlash va sifatli mahsulot yetishtirish uchun trixogramma ko'z, qish diapauza (tinim) xolatiga o'tkaziladi. Buning uchun 3 litirli bankalarga yopishtirilgan don kuyasi (sitotrogo) tuxumlariga zararlash uchun 1-5 nisbatda trixogramma kiritilgandan so'ng bankalar kunduz kuni 25 xaroratda kechasi esa 8-12 gr.da bir yarim ikki kun saqlanadi va 10^S li xonaga qo'yiladi. Tuxumlar qoraygandan so'ng tushirib olinadi va qog'oz paketlarga joylab maishiy sovutgichlarda 1-3^oli xaroratda 60-70% namlikda saqlanadi. Bunday sharoitda trixogrammani 6 oy davomida saqlash mumkin. Ularni jonlantirish faqat 3 oy o'tgandan so'ng amalga oshiriladi. Trixogramma don kuyasida 3-4 avlod ko'paytirilgandan so'ng uning mahsuldorligi 30-60% ga ko'payib ketadi. SHuning uchun uning avlodi yangilanadi.

Buning uchun quyidagi usullardan foydalaniladi:

- daladan trixogramma bilan zararlangan tuxumlarni yig'ib olish;
- tunlam kapalaklarini laboratoriyalarda ko'paytirilib tuxumlarini dalalarga (bedapoya va sabzavot ekinlari) qo'yib trixogrammani yig'ib olish;
- tayyor tunlam tuxumlarini zararlagan trixogrammani olib kelib sitotrogada urchitishni davom ettirish.

Trixogrammani don kuyasida ko'paytirish. 1000 kg. Arpadan shrtacha 6 kg sitotroga, 6 kg. Sitotroga tuxumidan 3, 0-3,5 kg. Trixogramma. Urg'ochi kapalagi don sirtiga 1 yoki 2 tadan qilib, jami 65-120 ta tuxum qo'yadi. Oradan taxminan bir oy vaqt o'tgach don ichida g'umbakka aylanadi.

Tuxumi 5-28 kun, lichinkasi 21-40 kun, g'umbagi 7-15 kun, kapalagi 4-13 kunda rivojlanadi. Bitta tsiklda tuxum olish 25-30 kun davom etadi.

Tuxumidan qurt chiqishi uchun xavo xarorati 24+1S, xavo namligi 80+5%, arpaning namligi 16 % bo'lishi optimal xisoblanadi. Sitotroga tabiatda 5-8 avlod berib rivojlanadi. Biolaboratorilarda trixogramma don kuyasi tuxumida ko'paytiriladi.

Arpada sitotroga tuxumida yetishtirish

Arpa	Sitotroga
1000 kg	6 kg
100 kg	0.6 kg
10 kg	60 gr.
1 kg	6 gr.
0.1 kg	0.6 gr.
1 gr. Sitotrogada 50000-60000 dona tuxum bo'ladi	

Brakon (Brason xebetor say)-Brakon ko'sak qurtining o'rta va katta yoshdagilarini paralich (shol) qilib, ularning tanasiga tuxumini qo'yadi. Tuxumdan chiqqan lichinkalar qurti ichini so'rib oziqlanadi. O'zbekistonda uning to'rtta turi mavjud.

1. Bir sutkada bitta brakon 100-150 ta qurti chaqib shol qilib qo'yadi.
2. Ko'pgina tunlam qurtlarining 3-4 yoshdagilarini zararlaydi.
3. Urg'ochilari qo'yib yuborilgan nuqtadan 500-550 metr atrofiga tarqaladi.
4. Brakon zararkunandaning har bir avlodiga urg'ochi hisobida zararkunandaning sonini xisoblab 1:20, 1:10, 1:5 nisbatlarda uch marta 7-8 kun oralatib qo'yiladi.
5. Toza asal bilan oziqlantirilgan brakon 250-300 tagacha tuxum qo'yishi mumkin.
6. Bitta ko'sak qurti lichinkasida 20-25 tagacha, makkajo'xori parvonasida 15 tagacha, katta asalari parvonasi qurtida 6-10 tagacha brakon lichinkasi rivojlanishi mumkin.
7. Brakonning rivojlanishi uchun optimal xarorat 25-30 S, nisbiy havo namligi 65-80% gacha;
8. Bitta mum kuyasi qurtidan 6-10 ta brakon olinadi.
9. Brakon imagosi tabiatda gul nektari, qurtlarning gemolimfasi bilan oziqlanadi.

Brakonni ko'paytirish va saqlash. Brakon kuzda (sentyabr, oktyabr) pomidor, makkajo'xori ekilgan maydonlarda ko'sak qurtlarida yig'iladi. Zararlangan qurtlar probirkalarga joylashtiriladi va brakon uchib chiqquncha kuzatuv olib boriladi. Uchib chiqqan brakonlar katta asalari mumi parvonasida ko'paytiriladi.

Katta yoshdagi asalari mumi parvonasining qurtlari maxsus idishlardan terib olinib, uch litrli bankalarga 300 tadan solinadi. Ularning ichiga bukilgan qog'oz solinadi. So'ngra balonlar qora mato bilan yopilib, qorang'u joyda 4-6 soat qoldiriladi. Bu vaqt ichida qog'oz egatchalari ichiga qurtlar kirib pilla o'ray boshlaydi. Maxsus qog'ozdagi qurtlar oldindan tayyorlanib qo'yilgan, ikki kun qo'shimcha oziqlantirilgan 100ta brakon imagosi solingan idishga tushiriladi. 10 kun davomida zararlangan qurtlarda yangi brakon uchib chiqadi.

Brakonni saqlash-uchun yetuk xashoratlar 5-6 kun asal bilan oziqlantirilib, xaroratni sekin asta 27 dan, 16° gacha tushiriladi, so'ngra ularni probirkalarga № 12 probirkaga 12-20 juft, № 16 probirkaga 25 juft, №21 probirkaga 50 juft yaydoqchi imogasi solinadi yoki ichiga qirindi solingan 3 litrli bankalarga 2-3 ming dona yaydoqcha imogasi solinadi. Asal probirkaning ichki qopqog'iga surkaladi, bankalarga esa dokaga surib osib qo'yiladi.

Brakonni 700 x 600 x 1500 sm. kattalikdagi maxsus Sandiqlarda ham saqlash mumkin. Buning uchun dastlab polietilen plyonka to'shab 10-12 sm. qirindi, so'ngra uning ichiga balonlar va probirkalar terilib uning ustiga yana qirindi yoyiladi. Xar 35-40 kun ichida qirindi namlanib turadi.

Brakonni sovitgichda ham saqlash mumkin. yetuk brakonlar ikki kun davomida asal bilan oziqlantirilib, haroratni 27° dan 16° ga tushiriladi. So'ngra brakon ichida yog'och qirindilari bor bo'lgan bankalarga solinadi. Balonning qopqog'iga asal surtilgan doka osib qo'yiladi. Keyin sovitgichda +8° da saqlanadi. Har 15-30 kun ichida sovitgich ichidan olinib, 25° da parazit ikki kun oziqlantiriladi. So'ngra 16° ga tushirilib yana balonlar sovitgich kameralariga qo'yiladi.

Fevral oyining ikkinchi dekadasida qishlovchi biomaterial olinib 25-30^c.da jonlantirishga qo'yiladi. Keyin uni qayta ko'paytirishga ishlatiladi.

Asalari mumi parvonasi. Mum parvonasi brakon parazitini ko'paytirishda asosiy biomahsulot sifatida foydalaniladi.

*mum kuyasi issiqsevar xashoratdir. U asalarining zararkunandasi hisoblanadi;

*mum parvonasi tuxumining rivojlanishi uchun 7-10 kun qurtning rivojlani uchun 25-30 kun g'umbagining rivojlanishi uchun 8-10 kun, kapalagi (imogosi) ning rivojlanishi uchun 9-20 kun kerak bo'ladi. Bir avlodi 45-70 kunda to'liq rivojlanadi;

*Bitta urg'ochi kapalagi hayotida 100-150 ta tuxum qo'yadi.

*1000 dona qurti oxirgi yoshgacha boqish uchun 1000 gr ozuqa sarflanadi (Mirzaliyeva). Hozirgi paytda ozuqa tarkibi ancha takomillashgan bo'lib 1000 ta qurt uchun 500 gr ozuqa sarflanmoqda.

(X. Kimsanboyev, B.Sulaymonov)

*bitta mum parvonasi qurtidan 6-10 brakon olinadi;

*1 gr mum parvonasi tuxumidan 13000-14000 qurt chiqadi;

*mum parvonasi uchun optimal havo namligi 85-90% .havo xarorati esa 30-35 S.tashkil etishi kerak.

G'o'zaning so'ruvchi va kemiruvchi zararkunandalarga qarshi ishlatiladigan hashorat oddiy oltinko'z. **Oddiy oltinko'z** ham zararkunandalar kushandasi xisoblanib, g'o'zadagi o'simlik bitlari, tripslar, o'rgimchakkana, tunlam kapalaklarining tuxumi va yosh qurtlariga qiron keltiradi. Lichinkasi yirtqichlik qilib oziqlanadi.

Asalari mumi parvonasini ko'paytirish

Tuxumidan qurt olish.

<p>Buning uchun 3 l toza va sterillangan bankalarga № 1 ozuqadan va 1gr atrofida mum kuyasi tuxumi solinadi. 15-17 kun 33-35° da saqlanadi. Xar bir bankada 13000-14000 qurt paydo bo'ladi.</p>	<p>№ 1 ozuqa tayyorlash; -10 kg bug'doy uni (yoki 5 kg bug'doy uni 5 kg makkajo'xori uni) -4kg shakar - 1kg merva - 3 kg margarin - 4 kg meva qoqi (olma unabi, shaftoli). 1litr sut (achigan sut) Shu masalliqlar yaxshilab aralashtirilib 1 kun dimlab qo'yilida (achitiladi). Ertasiga 120 ° xaroratda 45 minut pishiriladi. So'ngra sovutilib 1-1.5 kg dan sterlangan bankalarga solinadi.</p>
---	--

Qurtlardan kapalak va tuxum olish.

<p>Yuqoridagi (1) ga asosan tayyor qurtlar ozuqasi bilan har bir banka 10 ga bo'linadi va avvaldan tayyorlab qo'yilgan №2 ozuqadan 100-150 gr.dan solinadi. So'ngra xar 2-5 kunda xar bir bankaga 50 grammdan ozuqa solinib boriladi. Bu ish kapalak chiqquncha davom etiriladi. So'ngra bankalarga doshechkalar solinadi. (har-bir bankaga 4 ta). Doshechkalar tuxumdan tozalanib yana qayta bankalarga solinadi. Ovqat sifatsiz tayyorlansa, ozuqalar mog'orlashib, qotib qolishi va qorindor kana tushib ketishi mumkin. Qorindor kana tushmasligi uchun tozalikka rioya qilish, hamda ozuqaning namligi oshib ketmasligi lozim.</p>	<p>№2 Ozuqa tayyorlash: -10 kg. Bug'doy uni (yoki 5 kg. Bug'doy uni, 5 kg. Makkajo'xori uni); - 4 kg. shakar - 3 litir sut (achigan) - 0,5 chelak №3 ozuqa yaxshilab aralashtirilib 1 sutka aralashtiriladi, so'ngra aralashma 120° xaroratda 45 minut termostatda pishiriladi.</p>
---	---

Qurtlarni sandiqlarda (yoki vannalarda) boqish

<p>Brakon ko'paytirish uchun qurtlar sandiqlarda boqiladi. Buning uchun №1 ozuqasi va tuxum solingan, 15-17 kun saqlangan bankalarni sandiqlarga (1 ta Sandiqqa 3 ta banka) ag'dariladi va uning ustiga yupqaroq qilib № 3 ozuqasi solinadi. Uning usti qalin mato bilan (qatma-qat qilib) yopib qo'yiladi. Xarorat +35 S bo'lishi lozim. Har kuni katta yoshdagi qurtlar terib olinib brakonni zararlash uchun ishlatiladi. Kichik yoshdagi qurtlarni boqish davom ettiriladi. Sandiqda qurt boqilib to'liq terib olinib, undagi ovqat va chiqindilarini tashlab yuboriladi. Sandiqlar yuvilib ishga tushiriladi.</p>	<p>№ 3 ozuqa tayyorlash: 10 kg. bug'doy uni (yoki 5 kg. bug'doy uni+ 5 kg. makkajo'xori uni); -4 kg. olma qoqi - 30 litr suv (bug'doyni qaynatish uchun) - 1,5 kg. margarin - 3 kg. shakar Daslab bug'doy uni va olma qoqi 30 litr suvda pishgunicha qaynatiladi, so'ngra unga margarin va shakar solinib dimlab qo'yiladi. Ozuqa sovutilib Sandiqlarda qurtlarni boqishda ishlatiladi.</p>
--	---

Imagosi yirtqich emas, ular tabiatda o'simlik bitlari, shirinchalar, o'simlik gullarining changlari, barg va mevalar ajratmalari bilan oziqlanadilar.

- O'zbekistonda oltinko'zlarning 12 dan ortiq turi bo'lib, biolaboratoriyalarda esa oddiy oltinko'z (*chrysopa sarnea*) ko'paytirilib ekinlarning zararkurandalariga qarshi qo'llaniladi;
- Oltinko'z tabiatda 3-5 avlod berib rivojlanadi;
- Oltinko'z tuxumi 3-4 kun (ko'zda 5-6 kun), lichinkasi 10-12 kun, g'umbagi 6-8 kun rivojlanadi. Imagosi 30-35 kun yashaydi. To'liq rivojlanishi uchun 25-35 kun kerak bo'ladi.
- Oltinko'z uchun optimal harorat 25-30°. Nisbiy havo namligi 60-65 %;
- Oltinko'z o'rtacha 400-600 dona tuxum qo'yadi;
- Oltinko'z lichinkasi yoshiga qarab kuniga: 50-60 ta o'simlik bitini, 20 ta o'rgimchak kanani qirishi mumkin, yoki 800 tagacha har-hil xashorat tuxumlarini yeyishi mumkin.

Shira, trips o'rgimchakkanaga qarshi 1/30 nisbatda (profilaktika uchun).
 g'o'za dalalarga 1/10, 1/20 nisbatlarga chiqariladi.

Oltinko'zni ko'paytirish. O'zbekiston sharoitida oltinko'zni don kuyasida ko'paytirish amalga oshiriladi. Oddiy oltinko'zni don kuyasida ko'paytirish. (birinchi usul). Bu usulda oltinko'z lichinkalari don kuyasining tuxumi bilan oziqlantiriladi. 3 litrli bankalarga 100 gr.dan №1 ozuqadan solinadi va 2-3 gr. Yangi qo'yilgan tuxum sepiladi.

Tuxumdan chiqqan lichinkalar don kuyasi tuxumlari bilan oziqlanadi va to'rt kun o'tgach yana bankalarga qo'shimcha №2 ozuqadan 100 gr.dan solinib, ustiga sitotroga tuxumi sepiladi. Agar aytib o'tilgan qoidalarga amal qilinsa, 70-80 % oltinko'z imagasi olinadi.

Oltinko'z lichinkalari bahorda daladan yig'ib kelingan o'simlik bitlari (shira)lar bilan ham ko'paytiriladi.

Oltinko'zni don kuyasida ko'paytirish (2-usul)

Buning uchun apra qaynoq suvda (90-95 S) 1-2 minut zararsizlantirib, keyin uni maxsus patnis (kyuvet) larga 2-3 sm qalinlikda yoyib namligi 16 % ga tushguncha shamollantiriladi.

So'ngra uning ustiga termostatda (24 S harorat, 80 % namlik) 3-4 kun saqlangan sitotroga tuxumidan 1 kg arpaga 1 gr. normada qog'ozchalarga qo'yiladi. (10 kg. Arpa sig'adigan patnisning 5 ta joyiga 2 gr.dan) keyin 3-5 kun, ya'ni qurtlar donga kirib ketguncha arpaga tegilmaydi. Undan keyin kapalaklar uchib chiqa boshlaguncha (taxminan 20-25 kun) arpa xar kuni namlanib turadi. Biroq arpaning namligi 16 % dan oshib ketmasligi lozim.

Kapalaklar ucha boshlagach arpadan 300 gr.dan har biri 3 litrli bankaga solinib kapalaklar yaxshilab uchib chiqquncha kutiladi, so'ngra ularning ustiga 300 tadan (har bir bankaga) oltinko'z tuxumi solinadi.

Tuxumlardan chiqqan oltinko'z lichinkalari don kuyasi kapalagi tuxumi, lichinkasi, xatto kapalaklari bilan ham oziqlanadilar. 10-12 kun o'tgach lichinkalar oziqlanishdan to'xtab pilla o'raydilar va g'umbakka o'ta boshlaydilar. Keyin 6-8 kun o'tgach bankada oltinko'z imogalari paydo bo'ladi. Ular darxol uchirib olinib ichida mato tasmalar bo'lgan yangi toza 3 litirli bankalarga 50-60 tadan solinadi. Oltinko'z solingan bankalarga asal surtilgan mato osiladi va ichiga har biriga 4-5 ta

qurt ezilgan silliq qog'ozchalar tushiriladi. Agar bor bo'lsa, bankaning ichki devorlariga pivo achitqisining 40 % li avtolizati surkaladi.

17-jadval

Oddiy oltinko'zni ko'paytirishda qo'llaniladigan ozuqalar va ularning tarkibi.

Buning uchun qaynayotgan suvga shakar solinib 20 minut saqlanadi va unga meva qoqi aralashtiriladi. (1 minut qo'yilib keyin sovutiladi)	№1 ozuqa tayyorlash -3,5 kg quritilgan mevalar (meva qoqi) -1,5 kg qand (shakar) -5 l. Suv
Dastlab 2,3,5-komponentlar eriguncha (25-27S) aralashtiriladi keyin unga un qo'shiladi va bir sutka aralashma qo'yib qo'yiladi. So'ngra 5 sm. qalinlikda patnislarga yoyilib 120 S haroratda 45 minut temostatda pishiriladi.	№2 ouqa tayyorlash -5,6 kg 3 nav bug'doy uni -2 l sut -0,2 kg margarin -0,2 kg achitqi -2 kg qand (shakar)

Oltinko'z imogalari oziqlangach 3-4 kundan keyin yoppasiga tuxum qo'yishga kirishadilar. Matolarga qo'yilgan tuxumlar har kuni olinib, oltinko'zlar qayta uchirilib, yangi va ichiga latta tasmalar solingan bankalarga ko'chirib o'tkaziladi, hamda yuqorida aytilgan usulda oziqlantiriladi. Oltinko'z har kuni yangi bankalarga ko'chirilib turilmasa kasallanadi. Tuxum qo'yishi bir oy (ya'ni imoga umrining oxiriga qadar) davom etadi.

Oltinko'z imogalari to'liq uchib bo'lgach, arpalar yana yangilanadi, agar kapalaklar ko'p bo'lsa arpadan ikkinchi marta foydalansa ham bo'ladi. Olingan tuxumlarni dalaga chiqarish yoki yana qayta oltinko'z ko'paytirishda foydalaniladi. Oltinko'z tuxumlari vaqtincha (1 oyga) +5° xaroratda mo'zlatgichda saqlansa, bunday tuxumlardan 70-80 % lichinkalar chiqishi kuzatiladi. Oltinko'zli imogo xolida saqlash qulay xisoblanadi. Biroq buning uchun ularni qisqa yorug'lik kuni (10 soatgacha) diapauzaga o'tkazish lozim bo'ladi. Imagoni saqlash uchun +4° xarorat va 80-90 % xovo namligi kerak bo'ladi. Bunday sharoitda imagoni 6 oy (diapauzaga o'tkazish) saqlash mumkin. Yosh imagolar (erkak va urg'ochi) diapauzaga ketkazishdan oldin 5-7 kun asal bilan oziqlantiriladi. Biroq uzoq

muddat (6 oy) saqlangan imogolar hayotchanligi va tuxum qo'yishi ikki barobar pasayadi.

Oltinko'zni laboratoriyada ko'paytirish uchun birlamchi mahsulot har yili paxta yoki boshqa ekinlardan yig'ib olingan oltinko'zdan foydalanilsa, uning samaradorligi yanada yuqori bo'ladi. Dalaga chiqarish uchun oltinko'zning 3-4 kunlik tuxumlaridan foydalaniladi. Lichinka chiqish arafasida bo'lgan tuxumlar mato tasmachada zararlangan o'simlik ustiga qo'yib chiqiladi.

G'o'za zararkunandalariga qarshi olib boriladigan kalendar ish rejasi.

Qishloq xo'jalik ekinlarining zararli organizmlariga qarshi kurashda tashkiliy-xo'jalik, oldini olish tadbirlari, ilmiy asoslangan bashorat, samarali kurash usullari asosida uyg'unlashgan kurash tizimi hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Shuning uchun bu tadbirlarni yaratishda har oy qilinishi lozim bo'lgan amaliy ishlar olib boriladiganida reja asosida olib borilishi kerak. Qishloq xo'jalik ekinlarining zararli organizmlarga qarshi uyg'unlashgan kurash tizimida hal qiluvchi o'rinni biologik himoya qilish tadbirlari egallaydi. Biologik vositalarni ishlab chiqarish yil davomida olib boriladigan tadbir bo'lib, bu tadbir asosida biolaboratoriyalarida ishni to'g'ri tashkil etish muhim ahamiyatga ega.

Noyabr-dekabr oylarida quyidagi ishlar amalga oshiriladi:

-qishlayotgan zararkurandalarning tarqalishi mumkin bo'lgan maydonlarni va ularni entomofaklarning zaxirasi mavjud bo'lgan dalalardagi sonini xisobga olish;

-biolaboratoriyalar uchun zarur bo'lgan ozuqa mahsulotlari, ishlab chiqarish linyalarini extiyot qisimlar bilan ta'minlash hamda bino va linyalarni ta'minlash.

Yanvar-fevral oylarida quyidagi ishlar amalga oshiriladi:

-o'simliklarni ximoya qilish sohasidagi mutaxassis va biolaboratoriya xodimlarining haftalik o'qishini tashkil etish;

-dala nazoratchilarini tayyorlash, o'qitish va o'quv yakuni bo'yicha sertifikatlar berish;

-qishloq xo'jalik ekinlarining zararli organizimlari tarqalishi bo'yicha uzoq muddatli bashorat ma'lumotlariga asosan har bir biolaboratoriya uchun mavsumiy mahsulot ishlab chiqarish rejasini tuzish;

-biolaboratoriyalar tomonidan fermerlarga biomahsulot yetkazib berish bo'yicha o'zaro shartnomalar tuzishni tashkil etish;

-foydali hashoratlar xo'jayinlarini ko'paytirishni reja asosida tashkil etish zarur.

Bunda:

a) donni stotroga (don kuyasi) bilan zararlash va uni makkajo'xori donida yangilab olish:

b) mum kuyasini ko'paytirish

-entomofaklarni ko'paytirish:

a) trixogrammani tunlamlar tuxumida yangilab olish:

b) barcha biolaboratoriyalarda oltinko'z ko'paytirishni yo'lga qo'yish va uni ko'paytirish uchun yetarli miqdorda ozuqa va sitotroga tuxumi bilan ta'minlash:

v) brakonni jonlantirib, ko'paytirishni yo'lga qo'yish.

Mart-aprel oylarida quyidagi ishlar amalga oshiriladi:

-barcha biolaboratoriyalarning to'la quvvat bilan ishlashini ta'minlash;

-talab etilgan texnologiyalar asosida mum kuyasini ommaviy ko'paytirishni tashkil etish;

-oltinko'ni ommaviy ko'paytirishni yo'lga qo'yish;

-entomofaglarni dalaga qo'yishni tashkil etish;

-dala qirg'oqlaridagi begona o'tlardagi zararkuranda tuxumlariga qarshi trixogrammani har gektarga 0,3 gr.dan uch marotaba har 10 kunda oralatib qo'yishni tashkil etish;

-g'o'za qator orasiga ekilgan bug'doyzorlardagi kuzgi tunlam va ko'sak qurti kapalaklarning miqdorini bilish har 10 gektar maydonga 1 donadan feromon tutqichlar qo'yish va shu asosida tunlam tuxumlariga qarshi trixogrammani yuqorida ko'rsatilgan miqdorlarda chiqarish;

-dala qirg'oqlardagi begona o'tlardagi so'ruvchi zararkunandalar (o'rgimchak kana, trips, o'simlik bitlari) ga hamda tunlamlarning tuxumi va yosh qurtlariga qarshi oltinko'zning 4 kunlik tuxumini zararkunanda miqdoriga qarab 1:30 nisbatda qo'yishni tashkil etish;

-g'o'za nihollaridagi so'ruvchi zararkunandalar (o'rgimchak kana, trips, o'simlik bitlari) ga qarshi oltinko'zni zararkunanda miqdoriga qarab 1:10 yoki 1:20 nisbatlarda qo'yishni tashkil etish;

-ildiz qurti tuxumlariga qarshi trixogrammani gektariga 0,3 gr.dan uch marotaba 3-4 kun oralatib qo'yish.

May oyida quyidagi ishlar amalga oshiriladi:

-doimiy o'rgamchak kana o'chog'i xisoblangan dala qirg'oqlari va g'o'za maydonlarida oltingugurt kukinini gektariga 30-40 kg.dan changlatish;

-g'o'zaga so'ruvchi zararkunandalarga qarshi chidamliligini oshirish maqsadida 1,5 foizli karbamid eritmasi bilan ishlov berish;

-g'o'zadagi so'ruvchi zararkunandalarga qarshi gektariga zararkunanda miqdoriga qarab 200-1000 tagacha oltinko'zning 4 kunlik tuxumini dalaga chiqarish;

-may oyining birinchi o'n kunligidan boshlab har 10 gektar sabzavot ekinlari maydonlariga bittadan feramon tutqichlarini qo'yishni tashkil etish va tutqichlarga tushgan kapalaklarning sonidan kelib chiqib, 1-2 ta tunlam kapalaklari tushganda 2-3 kun oralatib gektariga 10x10 metr sxemada 0,6 gr.dan trixogramma qo'yish;

-ko'sak qurtining katta yoshdagi qurtlariga qarshi, pamidordagi avlodiga qarshi 1:10 yoki 1:20 nisbatlarda brakon qo'yish.

Iyun oyida quyidagi ishlar amalga oshiriladi:

-o'rgamchak kana xavfi kuzatilgan maydonlarda oldini olish maqsadida oltingugurt kukinini gektariga 30-40 kg.dan changlatish;

-o'rgamchak kana zararlagan o'choqlarga qo'l apparati yordamida mahsus akaratsidlar bilan ishlov berish;

-ko'sak qurtining g'o'zadagi avlodiga qarshi o'rnatilgan feramon tutqichlarini yangilash, har 2 gektariga 1 donadan feramon tutqichlarini qo'yishni

tashkil etish, tutqichga 1 sutkada 2-3 ta kapalak tushganda yoki 100 tup g'o'zada 2-3 ta tuxum aniqlansa, gektariga 0,3 gr.dan har 2-3 kun oralatib 4-5 marotaba trixogramma qo'yish;

-g'o'za ko'sak qurtining 3-6 yoshli qurtlariga qarshi gektardagi har 100 tupdagi zararkunanda soniga qarab 1:10 yoki 1:5 nisbatlarda brakon yaydoqchalarini 5-7 kun oralatib qo'yish;

-g'o'zada ko'sak qurtining tuxumlari, yosh qurtlari va shu davrda uchraydigan oq qanot katta g'o'za biti va o'rgimchakkanaga qarshi oltinko'z tuxumi, lichinkasi va yetuk yoshlarini qo'yishni tashkil etish maqsadida biolaboratoriyalardagi barcha oltinko'zlarni dalaga qo'yish kabi tadbirlar amalga oshiriladi.

Iyul oyida quyidagi ishlar amalga oshiriladi:

-g'o'zaga o'rgimchakkana tushgan maydonlarni aniqlash va uning iqtisodiy zarar keltirish xavfi yuqori bo'lgan taqdirda maxsus akaratsidlar bilan ishlov berish;

-xar 100 tup g'o'zada 2-3 tup ko'sak qurti tuxumlari bo'lsa, gektarga 0,5 grammdan 2-3 kun oralatib trixogrammani 4-5 marotaba qo'yishni tashkil yetish;

-ko'sak qurtining katta yoshdagi qurtlariga qarshi gektariga 500-1000 donadan brakon yaydoqchalarini yuqoridagi nisbatda qo'yish;

-oyning 3-o'n kunligida ko'sak qurti tuxumlarini yo'q qilish uchun chilpilgan g'o'zaning o'suv nuqtalarini etakka yig'ib olib, dalani bir chetiga tashlashni tashkil yetish;

Avgust oyida quyidagi ishlar amalga oshiriladi:

-g'o'zadagi ko'sak qurti soniga qarab 1:5 yoki 1:10 nisbatlarda brakonni har 4-5 kunda qo'yishni tashkil etish;

-qo'yilgan feramon tutqichlarga tushgan ko'sak qurti kapalaklarining miqdoriga qarab trixogramma va brakonni kechqurun soat 17:00 dan 21:00 gacha yuqoridagi ko'rsatilgan nisbat va muddatlarda davom ettirish;

-kechgi ekilgan g'o'zalardagi zararkunandalarga qarshi yuqorida ko'rsatilgan entomofaglarni qo'yishni davom ettirish;

Sentyabr oyida quyidagi ishlar amalga oshiriladi:

-kechki paxta, makkajo'xori va pomidor ekinlarida zararkunandalarga qarshi uning qishlovga ketish zaxirasini kamaytirish maqsadida biolaboratoriyalardagi oltinko'z tuxumi va lichinkalari, trixogramma va brakonni qo'yishni davom ettirish.

Oktyabr oyida quyidagi ishlar amalga oshiriladi:

-biolaboratoriyalar ishini tahlil qilish, kelgusi yil mavsumiga tayyorlash. bino va asbob-uskunalarni ta'mirlash, ishlab chiqarish xonalarini fumigatsiya qilishni tashkil etish;

-entomofaglar xo'jayinlari birlamchi mahsulotlarni yangilash, tunlam kapalaklarining g'umbaklarini va qurtlarini dalalardan yig'ib olish, trixogramma, oltinko'z va brakon avlodlarini yangilashni tashkil etish kabi tadbirlar amalga oshiriladi.

3.2 Jalaquduq tumani O'simliklarni himoya qilish otryadida biomahsulotlar ishlab chiqarishda ishlab chiqarish resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish yo'llari.

Mamlakatimiz iqtisodiyotini modernizatsiya qilish va qishloq xo'jaligini yanada taraqqiy ettirishda asosiy e'tibor agrar sohada islohotlarni chuqurlashtirish, ishlab chiqarish va boshqarish jarayonlarida bozor tamoyillarini to'la qaror toptirish asosida qishloq aholisining turmush darajasini keskin oshirishga qaratilmoqda.

Hozirgi kunda qishloq xo'jaligini modernizatsiyalash asosida jadal rivojlantirish uni iqtisodiy samaradorligini optimal darajaga ko'tarishning yagona yo'li bo'lib xisoblanadi. Shuning uchun ham qishloq ho'jaligini modernizatsiya qilish texnik va texnologik yangilash tadbirlariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jalaquduq tumani O'simliklarni himoya qilish otryadi biolaboratoriyasining moddiy-texnika bazasi nisbatan olinganda mustaxkam emas. Lekin biolaboratoriya o'zining moddiy-texnika bazasi sifat jihatdan tubdan yaxshilashi zarur. Bu sohada rivojlangan davlatlar tajribasida foydalanish ham yaxshi samara beradi.

Qishloq xo'jaligini modernizatsiyalash bo'yicha hozirgi kunda mavjud bo'lgan muammolarni xalq etish uchun Prezidentimiz tomonidan qishloq va suv xo'jaligi Vazirligi oldiga asosiy qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirishda va ularga servis xizmat ko'rsatish sohasida ilg'or mamlakatlar tajribasini o'rganish va amalda qo'llash, bizning iqlim sharoitimizda g'oyat muhim ahamiyat kasb etadigan zamonaviy sug'orish tizimlari, energiyani tejaydigan zamonaviy texnologiya va agrotexnologiyalarni o'rganish, urug'chilik-selektsiya ishlarini yanada takomillashtirish va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining mahsuldorligini oshirish bo'yicha aniq chora-tadbirlar kompleksini ishlab chiqarish vazifasi qo'yildi.

Qishloq xo'jaligi sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar va tarkibiy o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish, yer va suv resurslaridan samarali foydalanish 2016-yil va yaqin istiqbolga mo'ljallangan iqtisodiy dasturimizning printsiplial muhim yo'nalishi ekanligi ta'kidlandi.

Prezidentimiz tomonidan belgilab berilgan ustuvor vazifalar asosida O'zbekiston respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi tomonidan qishloq xo'jaligining dehqonchilik tarmog'ini va unga xizmat ko'rsatuvchi sohalarni rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor berildi. Yuqoridagi talablarni hisobga olib o'zini ishlab chiqarishini modernizatsiyalash asosida ishlab chiqarishni rivojlantirishning istiqbolli dasturini ishlab chiqishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunda asosiy e'tiborni biomahsulotlar ishlab chiqarishni modernizatsiyalash asosida ular sifatini va samaradorligini oshirish chora-tadbirlariga qaratish lozim.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 12 apreldagi "Mevasabzovot, kartoshka va poliz mahsulotlarini xarid qilish va ulardan foydalanish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarorida belgilangan tashqi bozorlarda xaridorgir va raqobatbardosh bo'lgan ho'l meva va qayta ishlangan meva - sabzovot mahsulotlarini eksport qilish xajmini ko'paytirish va turlarini kengaytirish uchun ularni yetishtirish, ishlab chiqarish va xarid qilish bo'yicha yagona tizimini shakllantirish bo'yicha bir qator vazifalar belgilangan bo'lib, ushbu vazifalarni amalga oshirishda ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarish, organik qishloq xo'jaligi- ya'ni atrof muhitga zarar keltiradigan vositalardan foydalanmasdan biologik xilma-xillikni asraydigan ekologik sikllarga asoslanish va mahalliy sharoitlarga e'tibor qaratish bo'yicha qabul qilingan. ekotizmni yaxshilaydigan, tuproq unumdorligini oshiradigan, inson salomatligini muxofaza qiladigan ishlab chiqarish tizimi yoki sof tabiiy mahsulot yetishtirish kabi muammolarni ijobiy hal etish muxim xisoblanadi.

Prezidentimiz I.Karimov "O'zbekistonda Oziq-ovqat dasturini amalga oshirishning muhim zaxiralari" mavzusidagi xalqaro konferentsiyaning ochilish marosimida O'zbekistonda shakllangan ko'p asrlik an'anaviy sabzovotchilik va bog'dorchilik madaniyati azaldan mahalliy o'g'itlardan foydalanishni ko'zda tutadigan biologik dehqonchilik printsiplariga asoslanadi. Bu genlarni modifikatsiya qilish texnologiyalarini qo'llamasdan, juda mazali ta'mga va iste'mol xususiyatlariga ega bo'lgan ekologik toza meva va sabzovotlar yetishtirish imkonini beradi, deb ta'kidlagani mirishkor dehqonlarimizni organik qishloq

xo'jalik mahsulotlarini ko'p miqdorda yetishtirayotganini tasdiqlaydi. Buning uchun respublikamizda barcha tabiiy va iqtisodiy sharoitlar yaratilgan, Faqat hozirgi organik qishloq xo'jalik faoliyatini tartibga solish bo'yicha Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi mamlakatimizda xalqaro andozalarga muvofiq organik qishloq xo'jaligini rivojlantirish bo'yicha mavjud to'siqlarni yechish maqsadida BMT ning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO) bilan hamkorlikda e'tiborga molik ishlarni oshirmoqda.jumladan, vazirlikning standartlashtirish sohasidagi mutaxasislari tomonidan "Organik qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari. Atamalar va ta'riflar" davlat standarti loyihasi ishlab chiqildi. Bundan tashqari yaqin yillarda respublikamizda organik qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirish bo'yicha keng doiradagi ilmiy –amaliy tadqiqotlar amalga oshirilishi ko'zda tutilgan, bo'lib zarar kunandalarga qarshi kurashishda biologik usuldan foydalanishga alohida e'tibor beriladi⁵.

Jalaquduq tumani O'simliklarni himoya qilish otryadida ishlab chiqarishida xom ashyo materiallarni yetkazib berish, ishlab chiqarilgan biomahsulotlarni iste'molchi fermer xo'jaliklariga yetkazib berish, ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lovlarni amalga oshirishda bir qator muammolar vujudga kelmoqda.

Asalari mumi, arpa va boshqa zarur bo'lgan xom ashyolar doimiy ishlab chiqaruvchilar kamligi uchun ,ko'proq axolidan xarid qilinmoqda.

Jalaquduq tumani O'simliklarni himoya qilish otryadi faoliyatida ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanishni tashkil etishda va uni jadal rivojlantirishda tashkiliy, iqtisodiy va huquqiy motivatsion omillardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning tashkiliy iqtisodiy va xuquqiy motivatsion omillaridan tashkiliy motivatsion omillarini ko'radigan bo'lsak, u quyidagilardan iborat:

- tadbirkorlik faoliyatini boshqarishda motivatsion omillarga tayangan holda qarorlar qabul qilish;
- samarali boshqarish usullarini ishlab chiqarish;

⁵ "O'zbekiston qishloq xo'jaligi" jurnali.2015yil №10 soni.17- bet

- xodimlardan intizomlikni talab etish;
- o'z qobilyatini ishga solish;
- innovatsion faoliyatni takomillashtirish;
- tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga ko'maklashuvchi tashqi hamkorlik bilan munosabatlarni yaxshilash;
- yaratilgan maxsulot va xizmatlarning eksport darajasini oshirish yo'llarini ishlab chiqarish;
- tadbirkorlik faoliyati natijalari bo'yicha davlat organlariga hisobotlar topshirish mexanizmini tubdan takomillashtirish;

Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning iqtisodiy motivatsion omillari quyidagilardan tashkil topgan:

- rivojlantirish mexanizmini takomillashtirish;
- o'rinsiz tekshiruvlarini bartaraf qilish choralarini ishlab chiqish;
- moliyaviy qo'llab-quvvatlashda moliyaviy institutlarning rolini oshirish;
- soliqqa tortish va soliq yukini yanada kamaytirish va rahbatlantirish;
- ishlab chiqarishda xom ashyo resurslarini tejash va ulardan oqilona foydalanish;
- xodimlar mehnatiga haq to'lash tizimini yanada takomillashtirish.

Huquqiy-motivatsion omillarga:

- tadbirkorlik faoliyatiga oid qonunchilik bazasini takomillashtirish;
- xodimlarga belgilangan majburiyatlar bajarilishini nazorat qilish bo'yicha yo'riqnomalar ishlab chiqarish;
- rahbarning jamoa barcha a'zolariga adolatli bo'lishini ta'minlash;
- vazifalarni xodimlarning huquqiy burchlaridan kelib chiqib aniq rejalashtirish;
- xodimlarga majburiy jazo-choralarni qo'llash;
- xodimlar o'rtasida oshkoralikni ta'minlash;
- tadbirkorlik faoliyatiga doir huquqiy-me'yoriy hujjatlar bilan tanishtirish va ulardan foydalanish bo'yicha tushuntirish ishlarini amalga oshirish kabilar kiradi;

Yuqorida keltirilgan tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning tashkiliy, iqtisodiy va huquqiy motivatsion omillarning amaliyotda keng qo'llanilishi tadbirkor uchun ma'lum bir darajada iqtisodiy samaradorlikni shakllantirsa, boshqa tomondan tadbirkor boshqaruvni to'g'ri tashkil etishida, iqtisodiyotda o'z o'rnini topishida hamda qonunchilik tamoyillariga amal qilishida o'ziga xos samara beradi.

Shu jihatdan, hozirda xizmat ko'rsatuvchi tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda motivatsiyaviy omillardan foydalanishni to'g'ri tashkil qilish boshqaruvchi menejerlarning zimmasidagi asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Aynan, zamonaviy boshqaruvni shakllantirishda boshqaruvchiga ishni to'g'ri tashkil qilish emas, balki motivatsiyaviy omillaridan foydalangan holda boshqaruvni samarali tashkil etish muhimdir:

birinchidan, tadbirkorlik faoliyati sub'ektlari faoliyatini turli xatarlardan himoya qilish mexanizmini takomillashtirish, bunda tadbirkorlik faoliyatida uchraydigan iqtisodiy xavflarni aniqlash, ularni baholash hamda ulardan himoya qilish choralarini ko'rish, bu boshqaruvchining ma'suliyatli vazifalaridan biri xisoblanadi;

ikkinchidan, tadbirkorlik sub'ektini davlat ro'yxatiga olish uchun ruxsat beruvchi hujjatlarni rasmiylashtirish sohasidagi muammolar va to'siqlarning yuzaga kelishining oldini olish maqsadida ularning huquqiy savodxonligini oshirish;

uchinchidan, mahalliy hokimiyatlar huzuridagi yer ajratish komissiyasi ishini qaytadan ko'rib chiqish va tadbirkorlik sub'ektlari uchun yer ajratish mexanizimini tubdan o'zgartirish choralarini ko'rish;

to'rtinchidan, tadbirkorlik faoliyatiga doir soha mutaxassislarini tayyorlash bo'yicha ta'lim muassasalarida kadrlarni tayyorlashni takomillashtirish, ishlab chiqarishni ta'lim bilan bevosita bog'lash, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish va boshqarishda innovatsion faoliyatini oshirish;


beshinchidan, tadbirkorlik faoliyati rivojidadagi marketing muammolari hali-hanuz o'z yechimini topgani yo'q, shu bois, faoliyat yurituvchi sub'ektlarni

marketing va menejment sohalariga oid iqtisodiy bilimlarni oshirish dasturlarini ishlab chiqish;

oltinchidan, tadbirkorlik natijasida ishlab chiqarilgan hamda maxsulot va xizmatlarni akkreditatsiya qilish va sertifikatlashtirishdagi muammolarning mavjudligi ular faoliyatining rivojlanishiga to'siq bo'lmoqda. Bu muammolarning yechimi ular uchun zarur omillardan biri bo'lgan eksport mahsulotlarni xalqaro standartlar va xalqaro amaliyoti negizida akkreditatsiyalash va sertifikatlashtirish bo'yicha milliy infratuzilma sifatini ishlab chiqarish vajoriy qilish bo'yicha davlat dasturini belgilash muhim omillardan biri hisoblanadi.

Umuman, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning tashkiliy, iqtisodiy va huquqiy motivatsion omillaridan to'g'ri foydalanish faoliyatning boshqaruviga ijobiy jihatdan ko'mak beradi va iqtisodiy samaradorlikning oshishiga, tadbirkorning iqtisodiy va huquqiy manfaatlari himoya qilinishiga muhim zamin yaratib beradi.

**Jalaquduq tumani O'simliklarni himoya qilish otryadi faoliyatini
rivojlantirishning tashkiliy, iqtisodiy va huquqiy motivatsion omillarning
guruhlanishi.**



Respublikamizda qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirishda zarakunandalarga qarshi kurashish borasida biologik usulni qo'llash ko'lami yil sayin ortib bormoqda.

Mevali bog'larda va tokzorlarda zararkunandalarga qarshi biologik usul keng ko'lamda amalga oshirilmoqda. Ayni vaqtda issiqxonalarda sabzovot ekinlari zararkunandalariga qarshi biologik usulda kurash ishlari jadallashmoqda.

Buning natijasida kimyoviy ishlov beriladigan maydonlar yilsayin qisqarib bormoqda. Agar respublikamiz bo'yicha kimyoviy preparatlar bilan 2000 yilda 700 ming gektar, 2003 yilda 500 ming gektar, 2010 yilda 130 ming gektar maydonga ishlov berilgan bo'lsa, keyingi yillarda bu ko'rsatkich 101 ming gektarni tashkil etdi. Umuman oxirgi 10 yilda kimyoviy ishlovlar hajmi 5 marotabaga qisqardi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, bugungi kunda qishloq xo'jalik ekinlari zararkunandalariga qarshi biologik usulni qo'llash bo'yicha O'zbekiston nafaqat markaziy osiyoda . balki butun dunyoda yetakchi o'rin egallaydi. Bugungi kunda mamlakatimiz olimlariva mutaxasislari g'o'za zararkunandalariga qarshi biologik usulni qo'llash borasida qo'shni davlatlardan tashqari Bangladesh, Xindiston va boshqa mamlakatlar dehqonlariga ham amaliy yordam ko'rsatmoqdalar Mamlakatimizda qishloq xo'jaligi ekinlarinig turli kasallik va zararkunandalariga qarshi biologik usulni qo'llash miqyosiniyanada kengaytirish va qishloq xo'jaligida kimyoviy vositalardanfoydalanish hajmini qisqartirish bo'yicha kompleks chora tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Bunda biologik, mexanik va boshqa kurash tadbirlari qoniqarli natija bermaganda yoki zararkunandalar miqdori keskin ko'payib ketganda kamdan -kam hollardagina kimyoviy usuldan foydalanilmoqda.

Biologik kurash muammolari. Ma'lumki zararkunandalarga qarshi kurashning biologik usuli sun'iy ravishda biolaboratoriya va biofabrikalar sharoitida ko'paytirish texnologiyalari yo'lga qo'yilgan va qanoatli daraja-da samaradorlikka ega bioagentlarni ko'paytirib, zararlangan ekin maydon-lariga tarqatishni nazarda tutadi. Bunday bioagentlarning eng «qo'l keladigani» va ko'plab sinovlardan o'tgani tuxum kushandasi – trixogramma (*Trichogrammatidae*), qurtlarda sirtan tekinxo'rlik qiluvchi (ektoparazit) – brakon (*Brason sp.*) hamda hammaxo'r yirtqich – oltinko'zdir – *CHrysopa sp.* Bu har uchchala kushandani laboratoriyada ko'paytirish texnologiyalari yaratilib, u amaliy ishlatilmoqda. Lekin, tobora

kuchayayotgan talablarga ko'ra va ilmiy-amaliy imkoniyatlarga ko'ra, bu texnologiyalarga o'zgarish kiritilayapti va u o'z samarasini berayapti. Bioagent mahsulotlarning xarid qilish narxi, hamda ularni ishlatish tannarxi esa barcha boshqa tovarlar kabi tobora oshib bormoqda

G'o'zani biologik usulda himoya qilishning o'ziga xos imkoniyatlari mavjudki, ularni inobatga olmay bo'lmaydi. Bu imkoniyatlar bioagentlarni ko'paytirish jarayoni hamda ularni ishlatib dala sharoitida olinadigan samaradorlik bilan bog'liqdir. Eng asosiy ko'rsatkich-bu asosan ko'sak qurtiga qarshi olinadigan samaradorlikdir. Biologik va unga bog'liq bo'lgan xo'jalik va iqtisodiy samaradorlik esa bir qator omillar ta'sirida vujud-ga keladi: bioagentning sifatiga, uni qaysi muddatda va fursatda ishlatilganiga, laborantlar (odam) omiliga, zararkunanda zichligiga nisbatan to'g'ri tarqatilganiga (sarf-me'yoriga), ayni dalada mahalliy tabiiy kushandalarning xilma-xilligi va zichligiga bog'liq bo'lib qolaveradi. SHuning uchun ham, turli vaziyatlarda biologik usuldan bir xil samara olinavermaydi. Bunday samara odatda ko'sak qurtiga qarshi 40-50% dan oshmasligiga qaramay, biologik usulning ijtimoiy samarasi yuqori va shuning uchun dalada olinadigan biologik samaradorlikni oshirish yo'lida barcha imkoniyat va ilmiy izlanishlarni olib borishga to'g'ri keladi. Misol uchun, trixogrammadan olinadigan samaradorlikni oshirish uchun uning mahalliy ekstremal iqlim sharoitlarga (yuqori havo harorati va quruq havo) bardoshli bo'lgan turlarini joriy etish talab etiladi. T. Atamirzaeva [26] hamda T. Atamirzaeva va b. [27] ko'rsatishicha, bunday turlar qatoriga *Tr. pinto* Voyege. va *Tr. principium* Sug. et Sor.) kiradi. Bular 30° harorat hamda 30-50% havo namligi bo'lganida ham o'zlarini yaxshi his qilib, tuxum izlab topish va zararlash qobiliyatini saqlaydi. Buning samarasi yuqori bo'lishi uchun yana bir masala mavjud-trixogramma yangi qo'yilgan tuxumlarni zararlash qobiliyatiga ega bo'lganligi sababli, ko'sak qurtining avlodi boshlanish davrini to'g'ri aniqlash katta ahamiyatga egadir. Buni esa, faqat feromon tutqichlarni (FT) ishlatib, uning ko'rsatishidan ilmiy asoslangan darajada foydalanish ta'minlashi mumkin. Ko'sak qurtining har avlodi boshlanishida bir kechada har 1 FTga 3-4 ta kapalakning ilinishi kapalaklar ucha

boshlaganidan dalolat berib, yana 2-3 kundan keyin dalada zararkunandaning tuxumlari paydo bo'lishi mumkinligini ko'rsata-di. Bu davrda tayyorgarlik ko'rib, 3-4 kundan keyin shu dalaga trixogramma kushandasini qabul qilingan nizomlarga asosan chiqarib tarqatilsa, kutil-gan ijobiy samaraga ega bo'lish mumkinligi haqida ko'plab maslahatlar berilgan.

Turli usulda ekilgan g'o'zada turli zararkunandalarning rivojlanish xususiyatlarini nazarda tutib, biologik kurash o'tkazishda ham bo'lishi mumkin bo'lgan o'zgarishlarni o'rganib, uni umumiy tizimga kiritish maqsadga muvofiqdir.

Uyg'unlashgan himoya qilish tizimlari

O'simliklarni samarali himoya qilish hamda zararli pestitsidlarni kamroq ishlatish borasida ularni uyg'unlashgan himoya qilish tizimi (UHQT) kontseptsiyasi alohida o'rin tutadi. Xo'jalik hamda ekologik jihatdan o'zini oqlamagan oldingi o'simliklarni umumiy himoya qilish tizimidan buning farqi shundaki, endilikda zararkunandani umuman qirib tashlash maqsad qilib olinmay, balki uning nufuzini (zichligini) ekin uchun zararsiz darajada ushlab turish nazarda tutiladi.

Bu borada UHQT maqsadi zararli organizmlarga mumkin qadar tanlab ta'sir ko'rsatadigan usul va vositalarni izlab, tabiiy muvozanatni saqlab turishga oid turlarni saqlab ko'paytirishga qaratilgan bo'lishi kerak. UHQT nazariy asosi ham shunda-tabiatni yaxlit biotsenoz shaklida tasavvur etishdadir .

Bu tizimda kimyoviy dorilarni ishlatishni kamaytirish asosan uni tartibga solish yo'li bilan: har qanday oldini olish maqsadida o'tkazadigan ishlovlarga chek qo'yish; ishlovlarni faqat zaruriyat paydo bo'lgan chog'larda-gina, zararkunandalarning nufuzi IZMM dan oshganidagina o'tkazish tavsiya etiladi. UHQT boshqa usullar bilan bir qatorda kimyoviy usulni ham ishlatish-ni tavsiya qiladi. Ammo endilikda bu usul oldiga yangi talablar qo'yiladi. YA'ni, unda shunday vositalar ishlatilishi kerakki, zararkunanda (lar)ga samarali bo'lib turib, foydali hasharotlarga mumkin qadar bezarar (selektiv) bo'lishi kerak. Kimyoviy

dorilarni ishlatishda shunday muddatlar tanlanishi kerakki, bunda entomofaglarining ayrim shakllariga kamroq ziyoni tegishi qilsin; bunda zararkunandaning (ko'sak qurtining) har avlodiga qarshi bitta ishlov yetarli va yuqori samara beradi.

Yana bir UHQTga xos talablardan biri-bu turli usullar yordamida (yangi, bardoshli navlarni yaratish; maxsus agrotexnik tadbir-choralar ishlatish va b.) o'simlikni bardoshlilikini va chidamliligini oshirishdir.

Biologik faol moddalarni (feromon tutqichlar, gormon tizimiga ta'sir etuvchi moddalar, steriliantlar) ishlatish o'simliklarni UHQT bo'yicha himoya qilishga imkon yaratadi.

Va nihoyat, zararlangan ekin maydonlariga sun'iy ko'paytirilgan ento-mofaglarni tarqatib, tabiatdagi zararli va foydali bo'g'imoyoqli hayvonlar nisbatini foydalilariga og'dirib, nisbiy muvozanatni ta'minlab, o'simliklarni beshikast o'stirish ham UHQT ga kiradi. Bioagentlar (trixogramma, brakon, oltinko'z) bashorat, feromon tutqichlar, hamda nazoratchilarning ko'rsatmalariga asosan tarqatiladi.

Foydali hasharotlarni saqlab qolishga urinib, zararkunandalardan keladigan xavfni cheklashga qaratilgan UHQT o'z ichiga turli xil usul va vositalarni qamrab olgan. SHuning uchun ham ayrim olimlar o'zining hissasini bu tizimdagi asosiy yo'nalish deb hisoblaganlar.

Hozirgi paytda o'simliklarni himoya qilishda UHQT ko'pchilik taraqqiy etgan davlatlarda asosiy yo'nalish bo'lib tan olingan va ishlatilmoqda: AQSHda, Misrda, Angliyada, Turkiyada. O'rta Osiyo davlatlari orasida: Tojikistonda, Turkmanistonda, O'zbekistonda. U shuningdek, Nikaragua hamda Avstraliyada ham keng ishlatila boshlandi. Ta'kidlanishicha, Avstraliya fermerlari UHQTni ishlatib, paxtachilikda pestitsidlarni ishlatishni 40% ga kamaytirganlar.

O'zbekistonda g'o'zani UHQT bilan himoyalash 1980 yillardan keyin keng joriy etilib, uning tarkibida zararkunandaning IZMM qat'iy rioya qilish va biologik usul katta o'rin egalladi. G'o'zani POEU ni joriy etilishi, bu ekinni himoya

qilishda UHQTga munosib o'zgartirish kiritish lozimligidan darak beradi. Ayniqsa turli usulda va turli qalinlikda ekilgan g'o'zada bu o'z ifodasini topishi mumkin. SHuning uchun ham, turli usul va qalinlikda ekilgan g'o'zani zararli organizmlardan himoya qilishda UHQTga tegishli o'zgarishlarni kiritish vazifalarimizning asosi bo'lib qolmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Hozirgi globallashuv va integratsiya jarayonlarining jadallashuvi sharoitida xukumatimiz tomonidan aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan to'liq ta'minlash, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasini yanada rivojlantirish maqsadida bir qator qarorlar qabul qilib, hayotga tatbiq etmokda. Bunda ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash kabi maqsadlarda qishloq xo'jaligidagi ekin maydonlari optimallashtirilmoqda va qishloq xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi sohalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanmoqda.

Bu olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy tadbirlarni amalga oshirishdan ko'zlangan maqsad hozirgi sharoitda qishloq ho'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishni ko'paytirish va uning tannarxini pasaytirish kabi vazifalarni hamda hozirgi moddiy va moliyaviy resurslar cheklangan sharoitda aholini bandiligini ta'minlash, xamda mavjud mehnat moliyaviy va tabiiy resurslardan tadbirkorlik asosida samarali foydalanishni belgilaydi.

Agrar sohadagi isloxlarni chuqurlashuvi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishda va ularga agrotexservis xizmatlari ko'rsatishda mulkchilikning turli shakllaridan foydalangan holda tadbirkorlik asosida sifatli mahsulot ishlab chiqarish va uning xarajatlarini pasaytirish, mahalliy va jahon bozorlarni sifatli mahsulotlar bilan to'ldirish eng dolzarb masalalari hisoblanadi.

Shuningdek O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimovning 2015-yilda mamlakatimizni ijtimoiy –iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2016-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustivor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi “Bosh maqsadimiz – mavjud qiyinchiliklarga qaramasdan, olib borilayotgan islohatlarni ,iqtisodiyotimizda tarkibiy o'zgarishlarni izchil davom ettirish, xususiy mulkchilik, kichik biznes va tadbirkorlikka yanada keng yo'l ochib berish xisobidan oldinga yurishdir” mavzusidagi ma'ruzasida belgilangan vazifalardan kelib chiqib, mulkdorlar,

tadbirkorlar, fermerlar ishlab chiqarish resurslaridan tadbirkorlik asosida foydalanishlari talab etiladi.

Jalaquduq tumanidagi O'simliklarni himoya qilish otryadi misolida biomahsulotlar ishlab chiqarishni tashkil etishni iqtisodiy samaradorlikni oshirishdagi o'rnini o'rganib, taxlil etgan xolda quyidagi xulosa va takliflarga keldik:

1. Jalaquduq tumanidagi O'simliklarni himoya qilish otryadi Jalaquduq tumanining markazida davlat tadbirkorlik sub'ekti sifatida tashkil etilganligi, qulay tabiiy-iqtisodiy sharoitiga ega ekanligini ko'rsatdi. Shuning uchun mavjud moddiy va moliyaviy resurslardan tejab-tergab foydalanish orqali raqobatbardosh biomahsulotlar ishlab chiqarish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirishga erishish mumkin.

2. Jalaquduq tumanidagi O'simliklarni himoya qilish otryadining faoliyati davlat mulkchilikka asoslangan bo'lib, biomahsulotlar ishlab chiqarishda mutaxassislar va boshqa xodimlarning mehnatiga, ularning moddiy manfaatdorligini oshirib borilishini ta'minlovchi birinchi galdagi omil ekanligi aniqlandi.

3. Jalaquduq tumanidagi O'simliklarni himoya qilish otryadida mahsulotlarni yetishtirishdagi ishlab chiqarish xarajatlarini va mahsulot tannarxini pasaytirishda yangi innovatsion texnologiyalardan va boshqa zamonaviy vositalaridan to'liq foydalanish hisobiga sifatli mahsulot yetishtirish mumkin.

4. Respublikamizda g'alla, paxta, bog'dorchilik va sabzovotchilikni jadal rivojlantirishga ham alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, tumanda 742 ta bog'dorchilik, uzumchilik va boshqa yo'nalishdagi fermerlarga 22547 gektar maydonda qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirilmoqda, shuning uchun otryadni ko'p tarmoqli xo'jaliklarga xizmat ko'rsatishni yo'lga qo'yish va bu imkoniyatlaridan fermer xo'jaligida oqilona foydalanishda, biomahsulotlarni keng qo'llash, ekologik toza mahsulot olish imkoniyatini beradi. Bu o'z navbatida O'simliklarni ximoya qilish otryadida arzon, sifatli biomahsulotlar ishlab chiqarish imkoniyatini beradi.

5. Jalaquduq tumanidagi O'simliklarni himoya qilish otryadida barcha mehnat, moddiy va moliyaviy resurslardan yil davomida to'g'ri, to'liq hamda tadbirkorlik asosida samarali foydalanish orqali talabni qondiradigan miqdorda sifatli biomahsulotlari yetishtirish mumkin. Bunda otryadni ishlab chiqarish faoliyatini ko'p tarmoqqa aylantirish orqali ularni iqtisodiy saaradorligini oshirish uchun muayyan chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur.

6. Hozirgi vaqtda respublikamiz tijorat banklari xalqaro moliya institutlari va xorijiy banklar bilan kichik biznes sub'ektlarini moliyalashtirish maqsadida hamkorlik qilmoqdalar. Bunda Halqaro moliya korporatsiyasi, Islom taraqqiyot banki, Xitoy, Germaniya va boshqa davlatlar banklarining kredit liniyalari ochilgan bo'lib, bu imtiyozli kredit liniyalaridan Jalaquduq tumanidagi O'simliklarni himoya qilish otryadida oqilona foydalanilsa, ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish imkoniyatiga ega bo'lar edi.

Yuqorida qayd etilgan xulosa va takliflar Jalaquduq tumani O'simliklarni himoya qilish otryadiga joriy etilsa, otryadda tadbirkorlik omillaridan yanada samaraliroq foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1.O'zbekiston Respublikasi qonunlari

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - T. O'zbekiston 2003 yil.
2. O'zbekiston Respublikasining yer Kodeksi. O'zbekiston Respublikasida tadbirkorlik to'g'risidagi qonun hujjatlari. 1-kitob. – T.: 1999.
- 3..O'zbekiston Respublikasining «Fermer xo'jaligi to'g'risida»gi qonuni. «Xalq so'zi». 2004 yil 27 avgust.
4. O'zbekiston Respublikasining Davlat yer kadastri to'g'risidagi qonuni O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2004 y., 25-son.
- 5.O'zbekiston Respublikasida tadbirkorlik to'g'risidagi qonun hujjatlari. 3-kitob. – T.: 1999

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari va Qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003 yil 24 martdagi PF-3226 sonli farmoni «Qishloqda islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim yo'nalishlari to'g'risida». Xalq so'zi. 2003 yil 25 mart
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 6 oktyabrdagi PF-3077-son «Fermer xo'jaliklari faoliyatini yuritishda yer uchastkalari miqdorini maqbullashtirish choralarini ko'rish yuzasidan takliflar ishlab chiqish bo'yicha maxsus komissiya tashkil etish to'g'risida»gi Farmoyishi.Toshkent-2008y.
- 3 . O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 22 oktyabrdagi “O'zbekistonda fermerlik faoliyatini tashkil qilishni yanada takomillashtirish va uni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-4478 farmoni.Toshkent-2012y.
- 4.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida shartnomaviy munosabatlarni takomillashtirish va majburiyatlarning bajarilishi uchun tomonlarning javobgarligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida» qarori.Toshkent-2003 yil 4 sentyabr 383-son.

5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining qarori. "Hosildorligi past bo'lgan yerlarda davlat extiyojlari uchun paxta xom ashyosi yetishtiruvchi kishlok xujaligi korxonalarini moliyaviy qo'llab-kuvvatlash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash xakida" Toshkent sh., 2012 yil 11 aprel, 106-son.
6. Vazirlar Maxkamasining 2013 yil 31 yanvardagi "Fermer xo'jaligi yer maydonini maqbullashtirish va uni tugatish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" gi qarori. Toshkent sh.,2013 yil 31 yanvar, 22-son.
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori "Tomchilatib sug'orish tizimini va suvni tejaydigan boshqa sug'orish texnologiyalarini joriy etish va moliyalashtirishni samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" Toshkent sh., 2013 yil 21 iyun,176-son
8. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot Vazirligining qarori "Paxta xom ashyosini yetishtirishda yuqori hosildorlikka erishgan fermer xo'jaliklarini rag'batlantirish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" Toshkent sh., 2013 yil 26 sentyabr,49-son
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2014 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. Xalq so'zi, 18.01.2015.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2015-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2016-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi "Bosh maqsadimiz – mavjud qiyinchiliklarga qaramasdan, olib borilayotgan islohatlarni ,iqtisodiyotimizda tarkibiy o'zgarishlarni izchil davom ettirish, xususiyl mulkchilik, kichik biznes va tadbirkorlikka yanada keng yo'l ochib berish xisobidan oldinga yurishdir" mavzusidagi ma'ruzasi. Xalq so'zi, 17.01.2016.

3 . O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. I.A.Karimov «O'zbekistonning siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari T., O'zbekiston. 1995 yil
2. I.A.Karimov «O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida» T.: O'zbekiston. 1995 yil
3. I.A.Karimov «O'zbekiston buyuk kelajak sari» T., O'zbekiston, 1998.
4. I.A.Karimov. Barqaror taraqqiyotga erish ustivor vazifa. T O'zbekiston 1998.
- 5.I.A.Karimov «Dehqonchilik taraqqiyoti – to'kin hayot manbai» T.: O'zbekiston. 1998 yil
6. I.A.Karimov «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari». T.: O'zbekiston. 2009 yil
- 7.I.Karimov «Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish- eng oliy saodatdir»

4.Sohaga oid me'yoriy xujjatlar

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 1999 yil 5 fevraldagi 54-sonli qarorida tasdiqlangan «Mahsulotlar (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish harajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risidagi Nizom». Toshkent-“Adolat”-1999y.
2. Qishloq xo'jaligida islohotlarni chuqurlashtirishga doir qonun va me'yoriy xujjatlar to'plami. (1-2 qism). Toshkent 1998 yil.

5.Asosiy adabiyotlar

1. O.Zokirov, A.Abdullaev, Sh.Zokirov. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti. (o'quv qo'llanma). Andijon, 2002.
- 2 .A.Ismoilov, O.Murtazaeva. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti (darslik). T.: 2002.
3. B.Salimov, K.Hamdammov. Dexqon va fermer xo'jaliklari iqtisodiyoti (o'quv qo'llanma) Toshkent 2004 yil. y.
4. O'.P.Umrzaqov va b. Fermer xo'jaligi iqtisodiyoti. – T.:”Iqtisod-moliya” 2007.
5. A.A.Abdug'aniyev, A.Abdug'aniyev. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti (darslik). Toshkent, 2010.

6. N.X.Jumaev va boshqalar. "Kichik biznes va tadbirkorlik" T. 2011 yil.

6.Qo'shimcha adabiyotlar

1. M.SHarifxo'jaev, YO.Abdullaev. Menejment. – T.: «Moliya», 2003.
2. B.Salimov va B. Dehqon va fermer xo'jaliklari iqtisodiyoti. – T.:TDIU, 2004
3. R.Xakimov va B. Agrosanoat majmui iqtisodiyoti. – T.:TDIU, 2004
4. O.Olimjonov va B. Fermerlik faoliyatining huquqiy va moliyaviy asoslari. T. «Universitet», 2005.

7.Davriy nashrlar, statistik to'plamlar va xisobotlar.

1. Andijon viloyati Jalaquduq tumani O'simliklarni ximoya qilish otryadining 2013-2015 yillardagi yillik moliyaviy hisobotlari, biznes rejalari, hamda boshqa statistik ma'lumotlari.

8.Internet manbaalari

1. www.msu.ru. – Moskva Davlat Universiteti.Iqtisodiyot fakulteti.
2. www.rsute.ru. - G. Plexanov nomidagi Moskva iqtisodiyot akademiyasi.
3. www.tsue.uz.- Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti
4. www.timacad.ru.-K.A.Timiryazev nomidagi Moskva davlat qishloq xo'jaligi akademiyasi, iqtisodiyot fakulteti.
5. www.pravo.uz. O'zbekiston respublikasi qonunchilik bazasi.
- 6.www.ziyonet.uz – O'zbekiston OO'MTV qoshidagi elektron kutubxona.
- 7.www.lex.uz -Qonunlar va me'yoriy xujjatlar milliy bazasi.